

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**NOZIMJON ALIMDJANOV NIMADJANOVICH**

**YER RESURSLARI EKOLOGIYASI**  
**(O‘QUV – QO‘LLANMA)**

**NAMANGAN - 2023**

Ushbu o‘quv qo‘llanmada qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerkarning ekologik holati, xalq xo‘jaligi tarmoqlarining yer resurslariga bo‘lgan extiyojlari, yangi yerkarni o‘zlashtirishdagi ekolgik muammolar, tabiiy ekosistemalarga antropogen ta’sirning salbiy oqibatlari va yer resurslarini muhofaza qilishdagi amalga oshirishgan ijobiy natijalar va hal etilishi zarur muammolar bayon etilgan.

O‘quv qo‘llanma 70710401 – Atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: Boymirzayev K.M., geografiya fanlar doktori, professor

Taqrizchilar: .M.Qoriyev, g.f.f.d., PhD  
A.Rahimov, g.f.f.d., PhD

Ushbu o‘quv qo‘llanma Namangan Davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 2023-yil 11-noyabrdagi 3-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

**N.N.Alimdjanov**

**Yer resurslari ekologiyasi**  
**(o‘quv qo‘llanma)**

**Namangan Davlat universiteti**

## KIRISH

Jahonda aholi va xalq xo‘jaligi tarmoqlarining yer resurslariga bo‘lgan extiyojlarini ta’minlash maqsadida yangi yarlarni o‘zlashtirish, o‘zlashtirilgan yerdidan yanada intensiv foydalanish jarayoni kuchaymoqda. Bu esa yer fondi tabiiy-landshaft tarkibining o‘zgarishi, biologik xilma-xillikni pasayishi va uning tashqi antropogen bosim ostida qolib optimal holatini buzilishiga olib kelmoqda. BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturida «quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o‘rmonlarni ratsional boshqarish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to‘xtatish va biologik xilma-xillik yo‘qolishining oldini olish» bo‘yicha vazifalari belgilangan<sup>1</sup>. Mazkur vazifalar ayniqsa yer resurslari miqdori cheklangan mintaqalarda yerdidan oqilona foydalanish bo‘yicha tadqiqotlarni taqozo etadi.

Dunyoda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarga, ayniqsa, yerdidan barqaror rivojlanish tamoyillariga mos holda foydalanish, yer resurslarining tabiiy landshaft tarkibini o‘zgarishi bo‘yicha gomogen guruhlarga ajratish, antropogen bosim ko‘rsatkichlarini hisoblash, hududlarning ekologik-xo‘jalik muvozanati baholash orqali resurslardan oqilona foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shuningdeq landshaftshunoslik va yer to‘zish sohalari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqliknini e’tiborga olib, yerdan foydalanish turlarini imkon darajasida tabiiy-landshaft talabidan kelib chiqib belgilash, landshaftli rejlashtirish tamoyillaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Respublikamizda har bir mintaqa yer fondini toifalarga ajratishda, qishloq ho‘jaligi yer turlarini belgilashda va ekin maydonlari tarkibini aniqlashda joyning tabiiy-landshaft xususiyatlarini hisobga olish hamda yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda va ijobjiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonada «yer, tuproqni anropogen va boshqa ta’sirlardan saqlash, qishloq xo‘jaligida

---

<sup>1</sup> Povestki dnya v oblasti ustoychivogo razvitiya na period do 2030 goda //Elektronny dostup:  
<http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru>

mineral o‘g‘itlarni qo‘llashni organik o‘g‘itlar bilan bosqichma-bosqich almashtirish»<sup>2</sup> kabi muxim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, xususan, Namangan viloyatida yer resurslarining landshaft-ekologik holatini har tomonlama o‘rganish, qishloq ho‘jaligi antropogen bosimining ortishi natijasida yuzaga kelayotgan salbiy ekologik muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentabrdagi PF-6061-son «Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni va 2021 yil 24 fevraldagi PQ-5006-son «Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerdan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu o‘quv qo‘llanma muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF -5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

## **1-MAVZU: YER RESURSLARI EKOLOGIYAISI FANINING TA'RIFI,**

### **MAQSADI VA VAZIFALARI**

#### **Reja**

- 1. Yer resurslari ekologiyaisining mazqsadi va vazifalari**
- 2. Yer resurslari ekologiyaisi fanining rivojlanish tarixi**
- 3. Tabiiy ekosistemalarga salbiy ta'sir**

Yer resurslari ekologiyaisining mazqsadi - bu qishlox xo‘jaligi va u bilan bog‘lik bo‘lgan tabiiy muxitda barqaror, sifatli mahsulot ishlab chiqarishda agrolandshaftlarning tabiiy potensialidan foydalanish, agrar sektorning tabiiy boyliklar bazasini muhofaza qilish, uni qayta tiklash, ko‘paytirish, ekologik toza bo‘lgan mahsulot olish choralarini izlash va uni yoritish hamda atrof-muxit musaffoligini saqlash, uning ifloslanishining oldini olishdan iborat bo‘lib hisoblanadi.

«Yer resurslari ekologiyaisi» kursini o‘qitishda tuproq jonsiz va jonli sistemalar birligi ekanligi va uni sistema deb qarash kerakligini bayon qilish zarur, chunki unda biologiq kimyoviy, bioximik va fizikaviy jarayonlar tinimsiz bo‘lib turadi. Shu jarayonlarning tinimsiz xarakati natijasida tuproq xayotning Yer o‘zida to‘xtovsiz rivojlanishini ta’minlovchi asosiy funksiyani bajaradi. Tuproq biosferaning muxim bir bo‘lagi bo‘lib, Yer yuzasidagi bo‘layotgan ekologik jarayonlarni barqarorlashtirishda markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki biosfera, gidrosfera va atmosfera o‘rtasida moddalar va gazlar almashinishi tuprozda yuzaga keladi. Tuproqning ustki va ichki qatlamlarida tirik organizmlarning ekologik funksiyalarining o‘tishi yerda xayotning bo‘lishini ta’minlaydi. Shuning uchun ham tuproqning bioekologik xususiyatlari va uning unumdonlik mohiyati Yer yuzida ekologik voqeliklarni optimal holatda saqlashdan iboratdir. Yuqorida qayd qilinganlar asosida shuni aytish kerakki, «Umumiylar ekologiya», «O‘simpliklar», «Hayvonlar ekologiyasi», hattoki «Suv ekologiyasi», «Inson ekologiyasi», «O‘simplikshunoslik», «Chorvachilik» yoki «Qurilish ekologiyasi»ning marka- ziy o‘zagida yangi fan - «Yer resurslari ekologiyaisi» va uning ekologik xususiyatlari yotadi. Yer yuzida paydo bo‘lgan har qanday

ekologik holat - Yer siljishi, eroziya, yong'in, zaharli chiqindilarning to'planishi tuproqning ustki qatlamida yuzaga kelib, shu yerning ekologik holatini bo'zadi, tirik organizmlarning zaharlanishiga yoki tuproq (loy) ostida qolishiga sabab bo'ladi. Bunday tabiiy ekologik voqeliklar, insonlarning salbiy va ijobiy faoliyatları ham tuproq bilan chambarchas bog'liqidir. Tabiiy va sun'iy senozlarda, tuproq tiriklikni ta'minlovchi muhit bo'lishi bilan bir qatorda insoniyat moddiy manbaining asosiy xazinasidir. Insonlar ming-ming yillar davomida shu tunganmas xazina tuproq unumdorligidan foydalanib keldilar, bundan keyin esa tuproq va uning unumdorligini ko'z qorachig'iday asrab, kelajak avlodlarga qoldirishlari kerak. Ming afsuslar bo'lsinkim, keyingi vaqtarda tuproq tirik sistema ekanligi unitildi, uni fizikaviy, kimyoviy va biologik xislatlari antropogen omillar ta'sirida bo'zildi. Qishloq xo'jaligida tuproqda tinimsiz ishlov berishda katta va og'ir mashinalardan foydalanish natijasida tuproqning fizikaviy to'zilishi zarrachaligi yo'qoldi, uning zichligi oshib, havo o'tkazish qobiliyatining pasayishi tufayli unda bo'lib o'tadigan biologik jarayonlar o'zgardi. Natijada tuproqdan ug'itlar, zaharli moddalar berish bilan ham yuqori hosil olish qiyin bo'lib qoldi. Qishloq xo'jaligida yuqori texnologiya va kimyoviy uslublarni qo'llash natijasida hayot manbai o'zlashtirilgan yerlarning ekologik holati va sanitar ko'rsatkichlari bo'zildi. Tuproqning hosildorlik imkoniyatlari va tiriklikni sazqlash jarayonlari pasaydi. Tuproq zaharli pestitsidlarning birikmalari va og'ir metallar bilan zaharlandi. Ular tuproqdagi biologik xislatlar va organik moddalarning parchalanish jarayonlarini to'la bo'zdi, foydali organizmlar miqdori kamaydi, tuproq tarkibi o'zgardi va natijada tuproq unumdorlikni yuqotdi. Hozirgi Yer resurslari ekologiyaisining asosiy vazifasi ham tiriklik tuproqsiz bo'lmasligini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligidagi yerlarning hamma ijobiy xususiyatlari va undagi hayotiy jarayonlarni ekologik no'zqtai nazardan tiklash va yaxshilash, uning unumdorligini va qishloq xo'jalikdan olinadigan hosilning zararsizligini ta'minlash, tuproqning bioekologik faolligini oshirish jarayonida, qishloq xo'jalik ekinlarini suv, ozuqa va gaz rejimlari uchun yaxshi ekologik optimal sharoit yaratish yo'li bilan yuqori va

ekologik toza hosil olishga erishishdan iborat bo‘lib, bu yo‘l o‘z navbatida kelajak avlodga toza va unumdar yerlar qoldirishimizga zamin bo‘ladi.

Bugungi kunda tabiiy ekosistemalarga salbiy ta’sirning kuchayishi tufayli tabiatning barqarorligi salbiy tomonga o‘zgardi. Ilmiy-texnika yutuqlari bilan tabiatning ekologik chegaralari o‘rtasida katta qarama-qarshilik yuzaga keldi va buning natijasida muammolar paydo bo‘la boshladi. Bu muammolarni yechimini topish o‘z navbatida insonni atrof-muhit, ishlab chiqarish va yashash muhiti o‘rtasida, bir-biriga doimiy ta’sir qilish kuchlarini har tomonlama tahlil qilish va baholash natijasida muhitda yuzaga keladigan, kutilmagan tabiiy og‘ir holatlardan, doimiy xavfli hududlardan chiqib ketish chora-tadbirlarini kurish imkonini yaratadi. Buning uchun tabiat va jamiyat o‘rtasidagi doimiy aloqalarning asl ma’nosini chuqur o‘rganish katta ahamiyatga egadir. Ishlab chiqarishning hamma sohalarida ishlaydigan, tabiiy muhitda yashaydigan aholi tabiat va jamiyat o‘rtasidagi tabiiy, qonunlarni yaxshi bilishlari kerak. O‘zbekistan Respublikasi konstitutsiyasida tabiatni asrash va undan tejamkorlik bilan foydalanish sohasida ish olib boruvchilarning ishbilarmon, bilimdon bo‘lishlari tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muammolarni yechishda katta ahamiyatga egaligi qayd etilgan. Bu borada qishloq xo‘jalik xodimlarining ekologik bilimlari kengligi kishloq xo‘jaligi tabiiy boyliklari, xom ashyo va energiya manbalarini ifloslanishi, bo‘zilishidan saqlash bilan bir qatorda chikindisiz texnologiyalarni joriy qilib, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yo‘qotmasdan yig‘ib olish, saqlash, yangi uslubiyotlar asosida dehqonchiliq o‘simgilikshunosliq chorvachiliq bog‘dorchiliq sun’iy landshaftlar barqarorligini saqlash, ularning maqsuldorligini ta’minlash va ekologik toza mahsulot yetishtirishni ta’minlaydi. Shuni ham yodda saqlash kerakki, hozirgi zamон ishlab chiqarish sohalari tabiiy boyliklardan oqilona hamda tejabkorlikka rioya etgan holda foydalanishning ekologik talablarini ishlab chiqarish jarayonlarida to‘laligicha inobatga olishi kerak. Chunki qishloq xo‘jalik hududi tabiiy muhitdek tiriklikdan tiriklikni qayta ishlab chiqaradi, ya’ni tabiiy omillar ta’sirida o‘simgilikdan o‘simgilikni va hayvondan hayvon zotlarini yetishtiradi, ko‘paytiradi, mahsulot oladi. Shuning uchun yuqori mahsulot beruvchi yangi

navlarni va xayvonlarning yangi zotlarini ko‘paytirish uchun yangi tipdagи ishlab chikarish texnologiyasini qishloq xo‘jalikni mexaniza- siyalashda, yerga ishlov berish, sug‘orish, yerni o‘g‘itlash, zararkunandalarga qarshi kurashda qullash katta ahamiyatga egadir. Yer resurslari ekologiyaisi - bu ilmiy va yangi fan bo‘lib, uning ob’ekti mavjud yer resurslari, agrolandshaftlar asosini tashkil etadi. Yer resurslari ekologiyaisi-mujassamlashgan fan bo‘lib, u qishloq xo‘jalikda insonning atrof-muxit bilan bo‘lgan asosiy aloqalarini o‘rganish jarayonida qishloq xo‘jalikning tabiiy majmualarga, ularning elementlariga ta’sirini aniqlaydi.

### **Nazorat savollari**

- 1. Yer resurslari ekologiyaisining mazqsadi va vazifalari nimalardan iborat?**
- 2. Yer resurslari ekologiyaisi fanining rivojlanish tarixi qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?**
- 3. Tabiiy ekosistemalarga salbiy ta’sir niamlardan iborat?**

## **2-MAVZU: YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISH**

### **Reja**

- 1. Tuproq va uning xususiyatlari**
- 2. Tuproq hosil bo‘lishi**
- 3. Tuproq va boshqa tabiiy jismlar o‘rtasida modda va energiya almashinuvি**

Tuproq - hosildorlik xususiyatiga ega bo‘lgan yerning g‘ovaq zarrachalardan iborat hosildor qismidir. Tuproq - mustakil, murakkab tabiiy jism bo‘lib, u atmosfera, litosfera va biosferaning o‘zaro va bevosita tutashgan joyida fizikaviy, kimyoviy va biologik jarayonlar natijasida ma’lum vaqt mobaynida hosil bo‘ladi. V.V. Dokuchayev tuproq deb, yer yuzasining tuproq hosil qiluvchi omillar ta’sirida o‘zgargan ustki qavatini aytgan. Tuproq yerning ulik jinslari va yomg‘irlar, relef, iqlim, tirik organizmlar (O‘simliklar, hayvonlar,

mikroorganizmlar) va insonning xo‘jalik faoliyati ta’sirida paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Tuproq hosil bo‘lishida suv juda katta rol uynaydi. Uning tuproqda ta’siri xilma - xildir. Tuproq hosil bo‘lishida iklim sharoiti, ayniqsa, muhim axamiyatga ega. Masalan, quyoshning nurli energiyasi tuproqning issiklik rejimini belgilab, undagi organik moddalarning parchalanish sur’atiga, o‘simpliklarning rivojlanish tezligiga va tuproqdagi kimyoviy reaksiyalarning intensivligiga ta’sir qiladi.

Tuproq hosil bo‘lishida o‘simpliklar, bakteriyalar, zamburug‘lar va xayvonlarning xam o‘ziga xos o‘rni bor. O‘simpliklar ildizi orqali tuproqdan mineral moddalar va azot oladi, so‘ngra moddalar o‘simpliklarning chirigan qismi bilan birgalikda tuproqning yuza qatlamlarida to‘planadi. O‘simplik ildizlari tuproqning ostki qavatlaridan namlikni tortib chiqaradi, bunda suv bilan birga unda erigan birikmalar ham yuqoriga ko‘tariladi. O‘simplik ildizlari tuproqni yumshatadi, uning strukturasi va boshqa xossalarni o‘zgartiradi. O‘simplik qoldiqlari tuproq chirindisining asosiy manbaidir. Bakteriyalar va zamburug‘lar ta’sirida tuproqdagi murakkab organik birikmalar nisbatan oddiy birikmalarga parchalanadi. Shu bilan birga bakteriya va zamburug‘lar ta’sirida hosil bo‘lgan organik kislotalar o‘z navbatida tuproqdagi mineral birikmalar bilan reaksiyaga kirishib, yangi xil birikmalarni sintez qilishda ishtirok etadi. Tuproq hayotida mikroorganizmlarning roli g‘oyat katta. V.A. Kovda ma’lumotiga ko‘ra, tuproqdagi mikroblar massasining yillik dinamik zaxirasi yer ustidagi fitomassaga barobar yoki undan 1,5-2 hissa ko‘pdir. Qora tuproqda bo‘z va madaniy tuproqdarda organizmlar biomassasi yiliga gektariga 20-50 t. ga yetadi. Tuproqdagi chuvalchanglar va xasharotlar organik moddalarni parchalab, ularni tuproqning mineral qismlari bilan aralashtirishga imkon beradi. Tuproq hosil bo‘lishining eng muhim omillaridan biri-insonning xo‘jalik faoliyati, ya’ni o‘rmonlarni kesib o‘tloq yoki ekinzorga aylantirish, yaylovda mol boqish, tuproqda o‘g‘it solish, yerkarni sug‘orish yoki quritish va boshqalar xisoblanadi. Bularning hammasi tuproqning tarkibi va xossalariiga keskin ta’sir ko‘rsatadi. Tuproqning organik qismi turli o‘simplik va mikroorganizmlar chirindisidan iborat. Uning mineral qismini tog‘ jinslarining

maydalangan zarrachalari tashkil qiladi. Tuproqning bioximik jarayonlar intensivligi uchun muhim bo‘lgan xossalari g‘ovakligi, havo va suv o‘tkazuvchanligi, issiklik rejimi va boshqalar mana shu mineral zarrachalarning tarkibi hamda katta-kichikligiga bog‘liq. Shunday qilib, tuproq murakkab tabiiy jism bo‘lib, u to‘g‘ri va inert massa emas, balki o‘zgaruvchan dinamik hosiladir.

Tuproq o‘ziga xos murakkab, sekin o‘zgaruvchan muhit bo‘lib, unda to‘xtovsiz ravishda organik moddalarning sintezi va parchalanishi, oziqa elementlarining aylanib yurishi sodir bo‘lib turadi. Tuproq bilan boshqa tabiiy jismlar o‘rtasida modda va energiya almashinuvi quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi:

1. Atmosfera-tuproq-o‘simliklar tizimida ko‘p tomonlama gazlar, namlik va katta zarralar almashinuvi.
2. Tuproq grunt tizimida gazlar bilan suv va suvda erigan moddalarning ikki tomonlama almashinuvi.
3. Quyosh-o‘simlik-tuproq radiatsiyalarning almashinuvi.
4. Atmosfera-o‘simlik-tuproq-grunt tizimida ko‘p tomonlama issqlik energiyasi almashinuvi
5. Tuproq - yuksak o‘simliklar tizimida ko‘p moddalar, nitrat birikmalari, karbonat angidrid va kislota almashinuvi. Bundan yaqqol ko‘rinib turibdiki, tuproqdagi besh xil aylanma harakatning to‘rt xili biologik jarayonlarning aylanma xarakati xarakteriga ega. Tabiatda tuproq bilan organizmlar o‘rtasida moddalarning biologik aylanishi bilan birga, moddalarning geologik (yoki katta) aylanib yurishi deb ataluvchi jarayon ham sodir bo‘lib, u tuproqdagi ozuqa elementlarining erib, ularning suv oqimi orqali daryolar, dengizlar va okeanlarga olib ketilishi hamda turli cho‘kindi tog‘ jinslari parchalanib, yemirilib shu jarayonga yetkazilishidan iborat. Natijada ming va million yillar davomida okeanlarning tagida cho‘kindi jinslarning qalin qatlamlari hosil bo‘ladi. Keyinchalik tektonik jarayonlar va dengiz regressiyalari natijasida bu tog‘ jinslari yuzaga chiqib qolishi, unda yangidan kontinental nurash jarayoni ro‘y berishi hamda ozuqa elementlaridan o‘simlik yana foydalanishi ham mumkin. Shunday qilib, tuproq tabiatning boshqa

komponentlari va elementlari bilan doimo o‘zaro aloqada bo‘ladi va moddalarning umumiy aylanib yurishida muhim axamiyat kasb etadi. Tuproqning tabiiy komponentlariga ta’siri nixoyatda xilma-xil.

Litosfera va atmosferaning o‘zaro ta’siri xam ko‘p joylarda tuproq orqali sodir bo‘ladi. Tuproqdan havoga ko‘tarilgan chang kondensatsiya yadrosi sifatida yomg‘irlar hosil bo‘lishiga imkon beradi. Chang xavoning tiniqligini pasaytirib, yer yuzasiga yetib kelayotgan quyosh energiyasi miqdorini kamaytiradi. Atmosferadan tushadigan kimyoviy moddalar esa ba’zan tuproqda, o‘simliklarga va xayvon organizmlariga xar hil ta’sir qiladigan yangi birikmalar hosil qiladi.

Tuproq - tabiiy landshaftning oynasi, unda tabiatning barcha xil o‘zaro ta’siri va aloqalari go‘yo bir markazga jamlangandek aks etgan. Binobarin, tuproq turli lanshaftlarning juda ko‘p xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Eng muximi shuki, tuproq yerdagи organik xayotning manbai, ayni vaqtда o‘zi ham organik xayotning mahsuli bo‘lib, u bilan o‘zaro uzviy aloqadadir. Tuproqning inson va xayvonlar uchun yana bir ahamiyati uning tarkibidagi mikroelementlarning tirik organizmlarning tarkibiga o‘tishidir. Demak tuproqning kimyoviy tarkibi o‘simliklar va xayvonlar orqali insonga, avvalo, uning sog‘ligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

### **Nazarat savollari**

1. Tuproq va uning xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Tuproq hosil bo‘lishi qanday amalga oshadi?
3. Tuproq va boshqa tabiiy jismlar o‘rtasida modda va energiya almashinushi qanday amalga oshadi?

## **3-MAVZU: HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA YERDAN**

### **FOYDALANISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

#### **REJA**

- 1. Yer resurslaridan oqilona foydalanish jamiyatning barqaror rivojlantirishdagi muhim omil**
- 2. Tabiatdan foydalanishdagi keskin o‘zgarishlar**

### **3. Yer resurslaridan foydalanishni mintaqaviy sharoitda barqarorligini ta'minlsh**

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mintaqamizdagi hozirgi iqlim o'zgarishi va suv taqchilligi sharoitida yer resurslaridan oqilona foydalanish jamiyatning barqaror rivojlantirishni asosiy shartlaridan biri sifatida qaralmog'i zarurligi, biroq, hozircha bu holatni yaxshi emasligiga e'tibor qaratmoqda.

Jumladan, 2017 yil 31 may kuni «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida shunday deyiladi: «...yer resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish yuzasidan davlat nazoratini hamda tuproq unumdarligini oshirish bo‘yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi ishlari qoniqarsiz, deb hisoblansin»[2]. Farmonda ta’kidlangan barqarorlikni ta’minlovchi hududiy dasturlarni yer bilan bog‘liq bandlarini ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanib, ushbu yo‘nalishda muvofaqiyatga erishishda boshqa soha vakillari (yer to‘zuvchilar, tuproqshunoslar, iqtisodchilar...) bilan bir qatorda geograflar hamkorligi kutilgan natijani beradi. Chunki hududiy barqarorlikni ta’minalashda xo‘jalikni hududiy tashkil etuvchi mutaxassislar (yer tuzuvchi, tuproqshunos va iqtisodchi)ning bir tomonlama, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan harakatlarini me’yorlashtirishda barqaror rivojlanishni ta’minlovchi ekologlar va tabiiy geograflarning o‘ziga xos yondashuvlari alohida ahamiyatlidir [6].

Jahonda va O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish konsepsiyasini hayotga tadbiq etilishida yer resurslarining o‘rni va ahamiyati juda yuqori. Mazkur yo‘nalishda istiqboldagi yo‘nalishlarni belgilash uchun dastlab, mazkur konsepsiyanı yuzaga kelish tarixi, sharoitlari va yer resurslari bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq etish dastlabki vazifa qilib belgilandi.

Qariyb 30 yil davomida jahon hamjamiyati va ilmiy izlanishlarda keng qo‘llanib kelinayotgan ingliz tilidagi «Sustainable Development», rus tilidagi

«Ustoychivoe razvitiye» iborasi o‘zbek tiliga «Barqaror rivojlanish» deb tarjima qilinadi. Fanda va turli mamlakatlarda uning turg‘un, qo‘llab-quvvatlanayotgan, avaylanayotgan, davomli, uzluksiz, muvozanatli, yashil rivojlanish (taraqqiyot) kabi turli ifodalar ishlatib kelinmoqda.

Kishilik jamiyatining barqaror rivojlanishini ta’minlashda yer resurslarini beqiyos o‘rnini asoslash uchun uning tabiatdan foydalanish tarixiga qisqacha nazar tashlash lozimdir. Insoniyatni hozirgacha bo‘lgan tabiatdan foydalanish tarixida to‘rtta keskin burilish nuqtasi bo‘lganligi tabiat va iqtisodiyot tarixi bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Shuni qayd etish zarurki, taraqqiyotning har bir burilish nuqtasidagi o‘zgarishlar markazida insoniyatning yer resurslaridan foydalanish tizimidagi innovatsion o‘zgarishlar yotadi.

Tabiatdan foydalanishdagi birinchi keskin o‘zgarishga sabab bo‘lgan jarayonlar bundan taxminan 10 ming yil burun sodir bo‘lib, tarixda «neolit revolyusiyasi» nomi bilan atalgan. Bunda jahon xalqlarining katta qismi o‘troq hayot kechirish tarziga o‘tgan, yer resurslaridan yaylov va termachilikda foydalanishdan voz kechib, dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullana boshlagan. Ayniqsa, obikor dehqonchilikning rivojlanishi jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga katta xissa qo‘shtan. [74].

Ikkinchi keskin o‘zgarish XVII-XVIII asrlarda dastlab G‘arbiy Yevropada yuz berdi. Industriyalashtirish davrida aholisi zich mamlakatlar qishloq xo‘jaligida yer resurslarining yetishmasligi hunarmandchilik va sanoatni keskin rivojlanishiga turtki bergen.

Uchinchi keskin burilish davrida XX asrning ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari yerdan foydalanishga jalb etildi. Ayniqsa qishloq xo‘jaligidagi kimyolashtirish, mexanizatsiyalashtirish va irrigatsiya tizimining rivojlanishi bu davrni «yashil inqilob» davri deb atalishiga sabab bo‘ldi.

Bu uchta inqilobiy o‘zgarishlar kishilik jamiyati hayotida to‘qlik farovonlik va osuda to‘kin hayotni ta’minladi. Biroq, bu o‘zgarishlar kishilik jamiyatining imkoniyatlari cheksiz, u nafaqat ona yer tabiatini, balki, butun olamni

bo‘ysundirilishi mumkin, degan xayoliy tushunchani keltirib chiqardi. Ammo XX asrning o‘rtalariga kelib, jamiyatning to‘xtovsiz o‘sib borayotgan ehtiyojlari bilan qat’iy cheklangan Yer sayyorasi va uning resurslari hajmi o‘rtasida nomutanosiblik borligi ma’lum bo‘ldi. Yaqin kelajakda, o‘n yilliklar orasida Yer sharida yuz berishi mumkin bo‘lgan ekologik inqiroz xavfi haqidagi fikrlar paydo bo‘ldi. Undan qutilishning yagona yo‘li sifatida an’anaviy xo‘jalik yuritish tizimida tubdan o‘zgarish qilishni talab qiluvchi to‘rtinchi burilish nuqtasi sifatida «Barqaror rivojlanish» konsepsiysi yuzaga keldi. Bu konsepsiyada ham asosiy e’tibor yer resurslariga qaratilmoqda.

Ushbu konsepsiyaning yaratilishiga kishilik jamiyatining ayniqsa, jadal iqtisodiy o‘sishning Yer shari tabiatiga ko‘rsatayotgan ta’siri va uning oqibatlarini keskin namoyon bo‘lishi sabab bo‘ldi. Yevropada sanoatning jadal rivojlanishi natijasida birinchi marta inson o‘limiga sabab bo‘lgan tabiatdagi hodisa «smog tumanlari» ko‘zatildi. Londonda 1952 yilda 4 kun mobaynida 4 ming odam, 1963 yilda Nyu-Yorkda 300 odam vafot etdi. Bunday holatlar 1956, 1957, 1960 yillarda tez-tez takrorlanib turdi. Shu bilan birga, yer resurslarining degradatsiyasi, yer osti boyliklarining miqdor jihatdan tugab qolish xavfi (ayniqsa, neft-gaz resurslari), dunyo okeani va oqar suvlarning ifloslanishi, kislotali yomg‘irlar yog‘ishi, ozon tuynugi kabi holatlar kishilik jamiyatining rivojlanishida boshqa alternativ yo‘llarni qidirib topish zarurligini taqozo etuvchi omil bo‘lib xizmat qildi [37; 24 s].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining dastlabki nazariy asosi sifatida rus olimi V.I.Vernadskiy tomonidan yaratilgan noosfera to‘g‘risidagi ta’limot olinadi. Insoniyatni xo‘jalik yuritishda global qayta qurishni amalga oshirishni nazarda tutuvchi bu konsepsiya, biosferani «noosfera»ga o‘zgartirishni hayotiy zarurat, deb qarashni nazarda tutadi. [34; 261 s].

Amaliyotda bu konsepsiyani dastlab, italiyalik ishlab chiqaruvchi [Aurelio Pechchei](#) rivojlantirdi. U xalqaro miqyosda siyosiy, moliyaviy, madaniy va ilmiy soha vakillarini birlashtirgan Rim klubı – xalqaro jamoat tashkilotini ([analitik markaz](#)) to‘zdi. Tashkilot biosferani rivojlantirish istiqbollari va insonning tabiatga

nisbatan gumanistik jihatdan munosabatda bo‘lishi borasida ulkan ishlarni bajardi [85; 120 b].

Rim klubi a’zolaridan D.Forresterning «Mirovaya dinamika» [90; 379 s.] hamda D.Medo o‘zning «Predeli rosta» [21; 26-32 s.] nomli asarlari jahon rivojlanishining atrof-tabiyy muhitga bog‘liq tomonlarini tahlil etish bilan ko‘pchilikning diqqatini tortdi. Rim klubida qilingan ma’ruzada ular tomonidan «Agar shu holat (temp)da aholi soni, industriyalashtirish va atrof-muhitni ifloslanishi davom etsa, oziq-ovqat ishlab chiqarish va tabiiy resurslar miqdorini tugashi o‘z chegarasiga yetishi, undan so‘ng birdaniga boshqarilmaydigan tarzda aholi sonining va ishlab chiqarish hajmini kamayishi kuzatilishi bashorat qilindi» [22; 22-29.].

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan atrof-muhit holati o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ilmiy jamoatchilik 1960 yillarning boshlarida to‘liq anglay boshladi. Bu haqidagi dastlabki, butun dunyoga ovoza bo‘lgan asar AQShlik biolog olma Reychel Karson tomonidan yozilgan «Soqov bahor» («Silence spring», 1965) asari bo‘ldi [48]. Olima atrof-muhit ifloslanishi ma’lum chegaragacha davom etishini, undan ortsa, tabiiy muhit inqirozga yuz tutishi mumkinligini asoslab berdi. Uning asari kishilik jamiyati a’zolarini ekologik ongini, saviyasini oshirishga katta hissa qo‘shdi [74; 336 s.].

Shundan so‘ng, barqaror rivojlanish bo‘yicha turli yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilishi, ishlab chiqarish, demografik holat, atrof-muhitning holatini tahlil etish va modellashtirishga hamda ekologik muammolarga bag‘ishlangan konferensiyalar faol ravishda o‘tkazila boshlandi [84; 144 b., 103; 125 b.]. Xalqaro maydonda dastlabki ekologik yo‘nalishdagi konferensiya 1972 yil Stokgolmda o‘tkazildi. Mazkur konferensiyadan so‘ng jahon fani va ijtimoiy hayotiga quyidagi yangi «*Ekologik imperativ*», «*Ekologik monitoring*», «*Ekologik inqiroz*», «*Ekologik halokat*» kabi tushuncha va iboralar kiritildi [74; 336 s.]. Ushbu konferensiya xulosasi asosida ekologik qonunchilik rivojlna boshladi jahonning ilg‘or mamlakatlarida tabiat muhofazasi boshqaruviga asoslangan vazirliklar va muassasalar paydo bo‘ldi [84; 120 b.].

1983 yili Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Butun jahon komissiyasi tashkil etilib, unga Gro Xarlem Brundtland rahbarlik qildi [62; 339 s.]. Uch yil davomida komissiya iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ekologik omillarning o'zaro ta'siri va aloqadorligi masalalarini o'rgandi. Shu komissiya «barqaror rivojlanish» (sustainable development) tushunchasini ilk bor butun jahon hamjamiyatida ommalashtirdi [62; 339 s.]. 1987 yili «Bizning umumiyl kelajagimiz» deb nomlangan «Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya» ma'ruzasida «Barqaror rivojlanish» zarurati qayd etilib, unga «bugungi kundagi ehtiyojlarni qondirish kelajak avlodning o'z ehtiyojlarini qondirishiga to'sqinlik qilmasligi kerak» [66], degan tavsif berildi va u bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarda qo'llanilib kelinmoqda.

Braziliyaning Rio-de-Janeyro (1992) shahrida bo'lib o'tgan atrof-muhit muhofazasi va rivojlanishga bag'ishlangan navbatdagi konferensiyada kelgusi o'n yillik uchun ekologiq iqtisodiy va ijtimoiy harakat dasturi -«XXI asr uchun kungartib» qabo'l qilindi. Unda Yer sharida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun quyidagi tavsiya va mezonlar berilgan:

- iqtisodiyotning o'sishi Yer sayyorasining ekologik imkoniyatlari chegaralariga mos tushishi kerak;
- iqtisodiy rivojlanish atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lishi kerak;
- rivojlanishni barqaror qilish – hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodning ehtiyojlarini ta'minlash qobiliyatlarini xavf-xatarga qo'yish ta'minlash;
- yer va tabiiy resurslarni yalpi milliy boylik sifatida ko'rish;
- odamlarning faolligini ularga yerga egalik qilish va ularning mahsulotlariningadolatli baholarda bozorga chiqarish vositalarida ta'minlash huquqini berish yo'li bilan rag'batlantirish;
- kimyoviy moddalarning aholi salomatligi va atrof-muhit uchun xavflilagini aniqlash; bunday ma'lumotlar ko'pchilik moddalar uchun mavjud emas;
- pestidsitlarni o'simliklarning biologik himoya qilish vositalar bilan almashtirish;

Mazkur tavsiya va tamoyillar zamirida ehtiyojni qondirish darajasida mahsulot ishlab chiqarish, aholi sonini, tabiatdagi antropogen o‘zgarishlar ulushi hamda tiklanmaydigan resurslarning ishlatish miqdorini imkon qadar cheklash rivojlanishning barqaror yo‘liga o‘tishni asosiy shartlaridan biri ekanligi yotadi [36; 50 b].

2012 yili Rio-de-Janeyroda BMTning barqaror rivojlanish bo‘yicha «Rio+20» nomini olgan konferensiyasi ochilishida so‘zga chiqqan BMTning Bosh kotibi Pan Gi Mun insoniyat yangi davrga qadam qo‘yayotganligini qayd etdi. U 2040 yilga borib Yer shari aholisi 9 mldrд kishiga ko‘payishini hisobga olib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eski modeli o‘z ahamiyatini yo‘qotganligini ta’kidladi [85; 120 b.].

Navbatdagi konferensiyada, 2015 yil 25 sentabrda Nyu-York shahrida BMTning 193 ta a’zo mamlakatlari 2015 yildan keyin amalga oshiriladigan harakatlar borasida barqaror rivojlanish sohasida Kun tartibini qabul qilishdi. Bashoratlarga ko‘ra, mazkur dasturda qashshoqlik 2030 yilga kelib bartaraf etiladi va barqaror kelajak ta’milnadi.

Ushbu konferensiyada jamiyat oldidagi maqsadlar va yangi vazifalar kompleks va ajralmas xarakterga ega ekanligi ta’kidlandi. Uning markazida barqaror rivojlanishning uch tamoyili – iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy taraqqiyot va atrof-muhit muhofazasini chambarchas bog‘lovchi 17 ta maqsad va ularga biriktirilgan 169 ta vazifa turadi [66].

O‘zbekiston Respublikasi ham BMTning mazkur dasturiga qo‘shilgan. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi 841-son qarori qabo‘l qilinib, unga ko‘ra, barqaror rivojlanish maqsadlarini davlat rivojlanish dasturlariga asta-sekin integratsiyalash, shuningdek Barqaror rivojlanish maqsadlarining O‘zbekistonda amalga oshirilishi bo‘yicha muntazam milliy ma’ro‘zalar tayyorlanishi ko‘zda tutilgan [4].

Milliy maqsadning 15.3-vazifasida esa «2030 yilgacha sahrolanishga qarshi kurash, yemirilgan yerlar va tuproqlarni, shu jumladan saxrolanish, qurg‘oqchilik

va suv toshqiniga uchragan yerlarni tiklash va yerlarning yemirilishini neytral balansiga erishish» ko‘zda tutilgan. Mazkur masalalar «O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»da ham o‘z aksini topgan. Unda «sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob’ektlari tarmoqlarini rivojlantirish» yuzasidan muhim vazifalar belgilangan [1].

Barqaror rivojlanish konsepsiysi negizida xususiy konsepsiylar ham yaratilmoxda. Jumladan, jahonda qishloq xo‘jaligi sohasini (yerdan foydalanishni) barqaror rivojlantirish maqsadida *qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish konsepsiysi* - (sustainable agriculture) ishlab chiqildi Altieti M.A. [102; 423 p], Francis C.A., Madden J.R. [103; 123-134 p], O‘Connell R.F.[104; 175-185 p]. Mazkur konsepsiya nuqtai-nazaridan yondashilganda, yerdan foydalanishni barqaror tashkil etish 3 ta talabga (mezonga) javob berishi zarur:

- birinchidan, tabiiy-ekologik jihatdan xavfsizlikni, agrogeotizimlarni barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minalashi, salbiy degradatsion jarayonlarning (ikkilamchi sho‘rlanish, erroziya va b.) rivojlanishiga yo‘l qo‘ymasligi;
- ikkinchidan, ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashi, ya’ni aholiga kerakli miqdordagi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, ishlab chiqarish tarmoqlariga esa qishloq xo‘jaligi xom ashyosi yetkazib berishi;
- uchinchidan, iqtisodiy jihatdan unumdorlikni, ishlab chiqarish tarmoqlaridagi daromadni yetarli miqdorda bo‘lishini ta’minalashi kerak.

Ammo ta’kidlash kerakki, barqaror rivojlanish konsepsiyasining bu uch tarkibiy qismidagi talablar har doim ham bir-biriga mos tushavermaydi, qolaversa, o‘zoq vaqt davomida iqtisodiy mezonlarga ko‘proq e’tibor qaratildi. Har qanday holatda ham iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida qilingan harakatlar natijasida tabiiy-ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiy unumdorlikni oshirish uchun sarflangan harajatlar miqdori yil sayin ortib bormoqda, ularni o‘z vaqtida qoplash, yetishtirilgan mahsulot tannarxini kamaytirish rivojlangan mamlakatlardagi asosiy muammolardan biriga aylanmoqda.

Yer resurslaridan foydalanishni mintaqaviy sharoitda barqarorligini ta'minlovchi mexanizmni shakllantirish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Bu jarayonda amalga oshiriladigan ishlarni yuqoridagi tamoyillarga amal qilgan holda, quyidagi yo'naliishlarda olib borish taklif etilmoqda [72; 52-61 s]:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishda ishlab chiqarish jarayonini ekologizatsiyalash;
2. Cho'llanish, ikkilamchi sho'rlashuv, erroziya kabi salbiy jarayonlarning oldini olishga ko'maklashuvchi optimal yer fondi tarkibini yaratish, yer resurslari bilan undan foydalanish tartibi o'rtasida oqilona nisbatni, balansni topish;
3. Mintaqada yerdan foydalanish va uni o'g'itlashni tarixan shakllangan an'anaviy usullarini, chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishni innovatsion usullarini qo'llash;
4. Tuproq unumdorligini ko'tarish, unga tushadigan antropogen bosim miqdorini minimal holatga keltirish, yerni muhofaza qilish ishlariga tabaqalashgan tabiiy landshaft xususiyatlariga asoslangan yondashuv tamoyillariga amal qilishni ta'minlovchi mintaqaviy dasturlar va landshaftli rejlashtirish mexanizmini takomillashtirish.

Geografiyada turli rivojlanish qonunlari asosida faoliyat yurituvchi hududiy-ishlab chiqarish va tabiiy-hududiy tizimlarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi model yaratilgan [61; 231 s]. Bunda ishlab chiqarish (qishloq xo'jaligi) va tabiiy tizimlarning o'zaro aloqasi yuz beradigan joy, o'zining tabiiy (iqlim, relef, tuproq, suv...) va ishlab chiqarish (haydalma yer, o'tloq, mevazor...) unsurlariga ega bo'lgan qishloq xo'jalik yerlaridir. Bu tizimlarning o'zaro munosabatini muvofiqlashtirish ham yer resurslaridan oqilona foylanishni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Oqilona foydalanish mezoni bo'lib esa ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy unumdorlik xizmat qiladi. Yuqoridagi modulga tayangan holda, yaratilgan hududiy-ishlab chiqarish va tabiiy-hududiy tizimlarni o'zaro murosaga keltirish, muvozanatli, barqaror faoliyat ko'rsatishni ta'minlashda B.I.Kochurov tomonidan yaratilgan ekologik-xo'jalik muvozanati konsepsiysi ilmiy va amaliy jihatdan yaxshi natija bermoqda [53; 323-324 b., 60; 22 s., 70; 103 s.]. Bu

konsepsiya Yer resurslaridan foydalanishda barqarorlikni ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralmoqda [40; 113-121 s]. Bu konsepsiya muvofiq, hududlardagi barqarorlik ekologik va xo'jalik balansini muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari**

- 1. Barqaror rivojlannishidagi muhim omillarni nimalardan iborat?**
- 2. Tabiatdan foydalanishdagi keskin o'zgarishlar xaqida gapiring**
- 3. Barqarorligini ta'minsh deganda nimani tushunasiz?**

## **4-MAVZU: EKOLOGIK-XO'JALIK MUVOZANATI KONSEPSIYASI VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

### **REJA**

- 1. Ekologik-xo'jalik muvozanati konsepsiysi tushunchasi**
- 2. Tabiatdan foydalanishni optimallashtirish g'oyasi**
- 3. Ekologik-xo'jalik holat**

Kishilik jamiyati paydo bo'lganidan buyon fan, texnika va texnologiyaning ijobjiy yutuqlaridan foydalanib, o'z xo'jalik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilmoqda. Bu jarayonda jamiyatning ta'sir ko'lami uzuluksiz kengayib borayotgan tabiiy ob'ektlarning asosiysi yer resurslaridir. Tabiiy-hududiy majmualarning asosini tashkil etadigan bu resursning sifati va miqdori kuchli antropogen bosim ostida qolib o'zgarmoqda va afsuski, bu o'zgarish salbiy tomonga qarab ketayotgan hududlar maydoni ko'paymoqda. Tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirishning qat'iy landshaft-geografik tamoyilda amalga oshirilishi zarurligi dastlab, geograf olim A.G.Isachenko [45] tomonidan taklif etilgan edi. Unga ko'ra, optimallashtirishning oxirgi maqsadi foydalanimayotgan, muhofazaga olingan (konservatsiya qilingan) va o'zgartirilmayotgan (melioratsiyaga tortilgan) tabiiy resurslar o'rtaqidagi muvozanatni (balansni) topishdir. Bunday muvozanatni topishda quyidagi

landshaft-geografik tamoyillarga amal qilish talab etiladi [80; 152 b, 41; 366 s, 42; 222 s]:

- optimallashtirishning asosiy ob'ekti - tabiiy (geografik) muhit ierarxiyalı, bir-biriga buysunuvchi turli rangdagi tabiiy geografik majmular (geotizimlar) yig'indisidan iborat;
  - insonning geotizmlarni biror komponentiga yoki funksional xalqasiga ta'sir etishi komponentlararo aloqalarni buzilishiga va oqibatda, butun tizimni izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Har bir tizimni tashqi ta'sirlarga, jumladan, texnogen ta'sirlarga chidamlilik darajasini ma'lum chegarasi mavjud. Tabiatga nooqilona, ongsiz ta'sir etishdagi asosiy xavf mazkur geotizmlarning tabiiy tarkibining buzilishidir. Shuning uchun tabiiy muhitni optimallashtirishning oliv mezoni-geotizmlarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashdir;
  - tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishda tabiatni bir elementi yoki komponentiga qaratilgan xususiy ta'qiqlar, texnologik yoki boshqa tadbirlar natija bermaydi, butun geotizimni haddan ortiqcha texnogen bosimlardan himoya qiladigan tabiiy «mexanizm»ni saqlab qolish bosh vazifa bo'lishi zarur;
  - tabiiy muhitni optimallashtirish bo'yicha loyiha ishlab chiqishda turli darajadagi geotizmlarni ierarxiyasiga (lokal, regional, global), ular o'rtasidagi modda va energiyaning o'zaro almashinuviga e'tibor qaratish, optimallashtirishni nisbatan soddaroq lokal tizimlardan boshlash va b.

Yuqoridagi tamoyillar asosida A.G.Isachenko tomonidan optimallashtirishning ommalashgan sxemasi yaratildi. U landshaft tarkibini majmuali o'rganish, hududning hozirgi holatiga baho berish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bu umumiyligda sxema bulib, tabiatdan foydalanishning barcha turlari uchun to'g'ri kelsada, har bir tur uchun alohida yondashuvni talab qiladi. Yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirish bo'yicha ishlangan sxemalarda ham bunday klassik yondashuvlar ko'p uchraydi. Bu hududlardagi salbiy ekologik jarayonlarni to'xtatish, ma'lum tabiat komponentlarini tiklash uchun katta tashkiliy, moddiy va moliyaviy resurslarni jalg'ish etishni amal qilish talab etiladi.

etish zarur bo‘ladi. Biroq, hududlarda barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun qilinayotgan bu harakat va harajatlar har doim ham kutilgan natijani beravermaydi.

Tabiatdan foydalanishni optimallashtirish g‘oyasi “Rim klub” a’zolarining nazariy qarashlarida ham rivojlantirib kelingan. Jumladan, D.Forresterning ta’kidlashicha, bu g‘oya bo‘yicha tabiat bilan kishilarning xo‘jalik faoliyati o‘rtasida o‘zaro muvofiq (uyg‘un) munosabat o‘rnataladi va ta’minlanadi. Tabiatdan, shu jumladan yer resurslaridan foydalanishning ekologik jihatdan barqaror shakllari yaratilib, undagi texnologik yaratmalar tabiiy tizimlarga moslashtiriladi hamda barqaror, muvozanatlari (simbioz) geoekosotsiotizimni vujudga keltiradi [97; 379 s.]. Bunday murakkab tizimning shakllanishi landshaftli rejorashtirish va hududning ekologik-xo‘jalik jihatidan qayta qurish orqali amalga oshiriladi.

Bu konsepsiya butunlay yangi, mutloq innovatsion asosga qurilgan, deb o‘ylash ham u qadar to‘g‘ri emas. Uning negizida jahon geografiya fanida yillar davomida jamlangan nazariy asoslar bor. Jumladan, u yuqorida aytilgan D.Forrester, V.Vernadskiy, A.G.Isachenko [43; 328 s., 44; 289-301 b., 49; 122-133 s., 97; 379 s.] tomonidan taklif etilgan hududning ekologik optimallashtirish konsepsiyasining ijodiy rivojlantirilgan ko‘rinishi bulib, yer resurslaridan foydalanish yo‘nalishidagi tadqiqotlarda quyidagi afzalliklarga egaligi bilan ajralib turadi:

- birinchidan, hududning holatini baholash ob’ektiv (mavjud) ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tkaziladi, bu ma’muriy va tabiiy birliklarni hududni optimallashtirish bo‘yicha aniq va to‘g‘ri tavsiya ishlab chiqishi imkonini beradi;

- ikkinchidan, hududning ekologik-xo‘jalik balansini hisoblash mavjud yer fondi materiallari asosida olib borilganligi sababli ortiqcha moddiy, tashkiliy va moliyaviy resurslarni talab qilmaydi.

- uchinchidan, hisob-kitob ishlarida qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkich yer fondi materiallari dunyoning barcha mamlakatlarida yuritiladi, ulardan foydalanib, ayni paytdagi holatni baholash, yillar davomidagi o‘zgarishlarni monitoring qilish, kelajakdagi o‘zgarishlarni rejorashtirish mumkin.

**Hududning ekologik-xo‘jalik balansi (muvozanati)** - bu tabiatning mavjud va potensial imkoniyatlarini hisobga olgan holda, hududdagi turli aholi guruhlari hamda turli faoliyat turlari o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirishdir. Bunday yondashuvda tabiat va jamiyatning barqaror rivojlanishi, tabiiy resurslarning qayta tiklanishi ta’minlanadi, ekologik o‘zgarishlar salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi [50; 46-59 b].

Ekologik-xo‘jalik balansi tushunchasida hududning tuzilishi (tashkil etilishi), makonning holatiga alohida e’tibor qaratiladi. V.I.Vernadskiy [34] ham o‘zining biosfera ta’limotida «biosfera bu tashkil etilgan makon» deb ko‘rsatgan bo‘lsa, noosfera ta’limotida sivilizatsiyaning rivojlanishini biosferaning insoniyat o‘zlashtirgan qismini qay darajada tashkil etilganligi bilan bog‘laydi. Bunda keyingi yillardagi ekologik muammolar hududning tarkibiy tuzilishidagi krizislar, tabiiy va antropogen tizimlar o‘rtasidagi muvozanatni buzilishi oqibatida yuzaga kelayotgani asos sifatida olinadi. Mazkur konsepsiya keng ma’noda inson bilan tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga, kishilarni tabiatga haddan tashqari ko‘p aralashmaslik tamoyillariga amal qilishga chorlaydi.


Shu o‘rinda, muqaddas Islom dini ta’limotida ham bu masalaga alohida e’tibor berilganligini ta’kidlash joiz. Qur’oni karimning «Furqon surasi»ni 2-oyatida: «...har bir narsani o‘lchov ila o‘lchab yaratgan Zotdir» deyiladi, ya’ni, narsalarni shunday yaratibgina qo‘ymay, aniq o‘lchov bilan o‘lchab, shaklini, hajmini, zamon va makonni, boshqa narsalar bilan bo‘ladigan munosabat va aloqalarini ham ochiq-oydin, aniq qilib yaratgan [117]. Dunyodagi har bir narsa – suv ham, tuproq ham, havo ham, hayvonot olami ham, nabobat olami ham Allah taolo tomonidan muayyan o‘lchov bilan bir-biriga o‘zaro bog‘liq qilib yaratilgan. Agar bu muvozanatlik buziladigan bo‘lsa, tabiat uchun, shu jumladan, inson uchun ham jiddiy muammolar kelib chiqish ehtimoli nihoyatda yuqori. Shuning uchun ham muvozanatni (balansni) saqlash tabiatda ham, jamiyatda ham eng muhim vazifalardan biridir.

Kishilik jamiyatida muvozanatni buzilishi ham o‘ta og‘ir oqibatlarga olib kelishi haqida ko‘p asarlar yaratilgan. Mustaqillikni dastlabki yillaridagi

imtiyozlardan, ayniqsa, diniy erkinlikdan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida yuzaga kelgan noxushliklar istedotli yozuvchi U.Xamdamning “Muvozanat” asarida ham yaxshi tasvirlangan. Tabiat bilan inson munosabatlari o‘rtasidagi ma’lum muvozanatni saqlab turishga asoslangan mazkur konsepsiya chuqr ilmiy asosga ega.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi tasarrufidagi yerkarning meliorativ-ekologik holati talab darajasida bulmaganligi tufayli ularning samarali unumdarligi yuqori emas. Yildan-yilga sug‘oriladigan yerdarda sho‘rlanish, eroziya, deflyatsiya jarayonlarining kuchayishi ko‘zatilmoqda [49; 24 s., 64; 96-99 b., 63; 63-67 b.]. Lekin hamma joyda ham shunday deyish xato, albatta. Ilm-fanning asosli tavsiyalari va ming yillik dehqonchilik tajribalariga tayanib ishlayotgan dehqon, fermer va shirkat xo‘jaliklarida tuproq unumdarligi kamaymasdan, balki oshayotganligi ko‘zatilmoqda [98; 239 b].

Inson hayotini ta’minalashda tabiiy tizimlarni doimiy kengaytirib borishga yo‘naltirish, yerdan foydalanish tarkibini takomillashtirish, landshaft elementlari tarkibi bilan yerdan foydalanish turini bir-biriga mosligini ta’minlovchi yangi yerdan foydalanish tarkibini yaratish hududning ekologik-xo‘jalik balansini bosh mazmunini tashkil etadi. Hududning ekologik-xo‘jalik balansini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlar o‘rganiladi: yer turlari va toifalari, tabiatni muhofaza qilishga mo‘ljallangan yerlar maydoni, antropogen bosim turi va darjasini bo‘yicha yerlar maydoni, salmog‘i, hududning ekologik-xo‘jalik jahatidan zo‘riqish darjasini (holati), hududning tabiiy himoyalanganlik darjasini, hududning ekologik fondi. Istalgan hududni, ma’muriy birlikni ekologik-xo‘jalik balansini aniqlashning mukammal, asosli sxemasi B.I.Kochurov tomonidan taklif etilgan [54; 4-17 s. 89; 243 s.].



*Eslatma: AB – antropogen bosim, TRI – tabiiy-resurs imkoniyat*

#### **1.2.1-rasm. Hududning ekologik-xo'jalik balansini aniqlashning asoslangan sxemasi [20, s. 259].**

Ekologik-xo'jalik muvozanat (EXM) konsepsiysi dastlabki tadbig'i Rossiya federatsiyasining turli mintaqa va viloyatlarida, qo'shni Qirg'iziston Respublikasining Norin, Osh va Chuy viloyatlarida amalga oshirilgan. O'zbekistonda bu konsesiyanı dastlab ilmiy tadqiqotlarda Yu.I.Ahmadaliyev [23, 111] Farg'ona vodiysi viloyatlarida olib borgan ilmiy tadqiqotlarida qo'llagan. Keyinchalik D.Mo'minov [83] (Farg'ona viloyati qishloq joylari misolida), A.Raxmatullaev [91] Zarafshon voxasi misolida qo'lladilar.

Mazkur konsepsiyanı yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirish yo'nalishida qo'llagan hamda joyning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olib ijodiy yondashilgan ayrim tadqiqotlarni ko'rib o'tish o'rinnlidir. Albatta, konsepsiyaning dastlabki tadbig'i uning mualliflari B.I.Kochurov hamda Yu.G.Ivanov tomonidan 1988 yilda o'tkazilgan bo'lib, Moskva viloyati misolida tadqiqot olib borilgan [55;54]. E.A.Yeremin [37] tomonidan mintaqadagi ekologik-xo'jalik muvozanatini optimallashtirish muammolari va landshaftlar antropogenizatsiyasining iqtisodiy-geografik jihatlari tadqiq etilgan. Tabiatdan oqilona foydalanish sxemasini ishlab chiqish uchun hisoblash natijalarini umumlashtirilgan va ularning tahlilini ilmiy asosi yaratilgan. Landshaftlarning barqarorligiga tabiiy va antropogen omillarning ta'sir etishi tahlil qilingan.

Ekologik-xo'jalik muvozanatning eng oqilona shakllaridan biri landshaftlarga tutashib ketgan qishloqlar tizimini T.V.Krasnova taklif etgan [59;

19 s.]. Ekologik-xo‘jalik muvozanatni tiklash va qishloq xo‘jaligida rentabellikka erishish maqsadida, etnik manzilgohlarni va an’anaviy yerdan foydalanish shakllariini tiklash kabi tadbirlarga ushbu o‘qub qo‘llanvada alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu nuqtai nazardan qadimgi sug‘orma dehqonchilik madaniyati yuksak rivojlangan Farg‘ona vodiysida tabiat bilan undan foydalanuvchi aholi o‘rtasida muvozanatni ta’minlovchi aloqa o‘rnatilganligi N.Komilova [50] tomonidan olib borilgan izlanishlarda oolib berildi. Ekologik va xo‘jalik sohalarida muvozanatni saqlash, tabiatdan, birinchi navbatda yer va suvdan foydalanishda tabiiy landshaft talabiga moslashishni o‘ziga xos an’anaviy usullari, ularning ilmiy asoslari o‘rganildi.

Rossiyada bajarilgan tadqiqotlarda Krivov A. V.[60] Mordoviya respublikasi, Abramova L.A, Yushkov M.V., Ko‘zmin M.M. [13] Tambov viloyati bo‘yicha olib borgan izlanishlarida hududning ekologik-xo‘jalik balansining turli mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq etdilar.

Yerlarni ekologik muhofaza qilish ishlari Orlov viloyati misolida I.V.Mironova [79] tomonidan amalga oshirilgan. Tadqiqotchi tomonidan agrolandshaftlardagi asosiy xo‘jalik faoliyati turlari va ulardagи antropogen bosim darajasi aniqlangan, Orlov viloyati yer fondining ekologik-xo‘jalik holatiga baho berilib, hududning ekologik-xo‘jalik balansi hisoblab chiqilgan. Shuningdeq olingen tadqiqot natijalari asosida ekologik-xo‘jalik muvozanat nuqtai nazaridan rayonlashtirish ishlari amalga oshirilgan, Orlov viloyatida ekologik-xo‘jalik holatni yaxshilash uchun yer fondi tarkibini ekologik-landshaft jihatdan jiddiy optimallashtirish zarur, degan xulosaga kelingan. Buning uchun, viloyatda ekologik fond yerlarining ulishini 35% dan kam bulmasligi kerakligi asoslab berilgan. Shuningdeq qishloq xo‘jaligida samaradorligi past bulgan yerlarni foydalanishdan chiqarish, kuchli o‘zgarishga uchragan yerlarni 10%ga qisqartirish orqali qoniqarli ekologik-xo‘jalik holatini saqlab qolish mumkinligi to‘g‘risida fikrlar berilgan [79; 207 s].

Rossiyaning Baykal orti o‘lkasi hududini ekologik-xo‘jalik holati N.V.Pomazkova va L.M.Faleychik [52] tomonidan baholangan. Baholashda turli

darajadagi antropogen bosimni xarakterlash xususiyatiga ega bulgan yerdan foydalanuvchilar va asosiy yer toifalari o‘rtasidagi o‘zaro nisbat e’tiborga olingan. Hududning mutloq va nisbatan zo‘riqish koeffitsientlari hisoblab chiqilgan hamda tabiiy himoyalanish koeffitsienti aniqlangan. N.V.Pomazkova va L.M.Faleychiklar ekologik-xo‘jalik holatning eng yuqori va eng past zo‘riqish ko‘rsatkichlari asosida Baykal orti o‘lkasini klasterlarga ajratishgan. Har bir klasterga mos holda yerdan foydalanish to‘zilmasini o‘zgartirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Qирғизистон Республикасида Норин, Ош ва Чую вилоятлари misolida ekologik-xo‘jalik holatini baholash ishlari G.I.Ibraimov va G.K.Ryskulovlar (2016) tomonidan amalga oshirilgan [39; 67-74 s.].

O‘zbekistonda birinchilardan bulib Yu.I.Ahmadaliyev [23] tomonidan mazkur konsepsiya negizida qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishning ekologik jihatdan yo‘l qo‘yilishi mumkin bulgan darajasini aniqlashga harakat qilindi. Qishloq xo‘jaligida antropogen ta’sirni o‘rganish maqsadida yerdan foydalanish tarkibi tahlil qilindi. Bunda yerdan foydalanish jamiyatni talabiga javob berishi bilan bir vaqtda, ekologik jihatdan zararsiz bo‘lishini ta’minlash kerakligi hisobga olindi. Mavjud yerdan foydalanish usulini baholash uchun miqdoriy ko‘rsatkichlar yordamida yerlarning tabiiy tarkibini o‘zgarish darajasi [52; 154 s, 67; 24 s.] va yerga tushadigan antropogen ta’sir miqdori o‘rganildi [28; 32-35 b.].

Sug‘oriladigan yerlarning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘lkamizdagi yerdan foydalanishning tezkor tizimi yuqoridagi baholash usullarini takomillashtirishni talab etadi. Shuni hisobga olib, Yu.I.Ahmadaliev tomonidan har ikki guruhga kiruvchi ko‘rsatkichlardan bir vaqtini o‘zida foydalanishni ta’minlovchi, o‘rganilayotgan hududni *geoekologik-xo‘jalik jihatdan zo‘riqish darajasini ifodalovchi yangi usul ishlab chiqildi* [24; 51-56 b.].

Yerlarning geoekologik-xo‘jalik jihatdan zo‘riqish darajasi deganda – *xo‘jalikda intensiv (tezkor) foydalanish oqibatida yer fondi tabiiy tarkibining o‘zgarishi va uning tashqi antropogen ta’sir ostida qolib, meliorativ holatini buzilishi tushuniladi*. Bunda ma’muriy-xo‘jalik birliklarini shu ko‘rsatkichlar darajasi bo‘yicha guruholashtirish orqali rayonlashtirish o‘tkaziladi. Bunday

rayonlashtirish to‘ridan yerlardan foydalanishni hududiy tashkil etish va qishloq xo‘jaligida antropogen ta’sir darajasini me’yorlashtirishda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berildi.


Yerlardan oqilona foydalanish va uni hududiy tashkil etishda mavjud yerdan foydalanish tarkibini qisman o‘zgartirish (transformatsiya) hamda har bir hudud uchun qishloq xo‘jaligi antropogen ta’sirining me’yorlarini belgilab chiqish talab etiladi. Shu maqsadda yerning (landshaftning) qishloq xo‘jaligi antropogen ta’sirini har bir turiga nisbatan barqarorligi va mustahkamlik darajasini ifodalovchi sifat ko‘rsatkichlari o‘rganiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar yerdan foydalanishni landshaftli rejasini ishlab chiqishga xizmat qiladi [23; 28 b.].

D.Mo‘minovning [83] tadqiqotlarida Farg‘ona viloyati qishloq joylaridagi ekologik-xo‘jalik holatning hududiy jihatlari tahlil qilingan. Olingan natijalar asosida landshaftlarni muhofaza qilish va tiklash tartibidagi, ekologik moslashuv tartibidagi va xo‘jalikda tezkor foydalanish tartibidagi funksional zonalar ajratilib, rayonlashtirish o‘tkazilgan [83; 24 b.].

A.Raxmatullaevning [91] tadqiqotlarida O‘rtta va Quyi Zarafshon voha geosistemalaridagi antropogen yuk va uning ta’sirida ekologik vaziyatni o‘zgarishi tadqiq qilingan. Shuningdeq geosistemalaridagi antropogen yukni o‘rganish, uning maydon birligiga to‘g‘ri keladigan me’yoriy ko‘rsatkichlarini, bosim darajasini va baholash mezonlarini aniqlash hamda geoekologik vaziyatni baholovchi kartalarni to‘zish metodikasi ishlab chiqilgan [88; 86 b.].

Har qanday sharoitda, ayniqla, tabiiy holatdagi tuproq qatlamlarida to‘zlarning to‘planishi ularning fizik va suv xossalariiga bog‘liq ravishda kechadi. Bunda tuproqlarning mexanik va agregat tarkibi, xajm massasi, solishtirma massa, g‘ovakligi va boshqa xususiyatlari katta ahamiyat kasb etadi [99; 12-b.]. EXMning mohiyati ma’muriy-hududiy birliklar doirasida iqtisodiyotning turli sohalarida landshaft elementlariga mos keladigan foydalanish turini joriy etish orqali barqaror ekologik-xo‘jalik holatni saqlab qolish bilan belgilanadi. Ma’muriy-hududiy birliklar yoki landshaftlar bo‘yicha EXMning hozirgi holati va o‘zgarishini aniqlash uchun mazkur hududning **ekologik–xo‘jalik holati** tadqiq etiladi.

**Ekologik-xo‘jalik holatda (EXH)** – muayyan hudud yoki ob’ektlarning tabiiy-landshaft tarkibining o‘zgarish darajasi hamda antropogen bosim miqdorini yuqori bo‘lishiga ta’sir va talab qiladigan foydalanish turi bilan ekologik funksiyani bajaruvchi va resurslarni tiklanishini ta’minlaydigan foydalanish turi o‘rtasidagi nisbat tushuniladi. Bu nisbat o‘z navbatida hududning ekologik-xo‘jalik jihatdan zo‘riqish darajasida ifodalanadi.



### 1.2.2-rasm. Muvozanatli tarozi

EXHni barqaror bo‘lishi mintaqa yoki butun mamlakatni ekologik hamda milliy xavfsizligi bilan bevosa bog‘liqdir. Mazkur masalani ijobiy, oqilona hal etishda aholining axloqiy ta’moyillari va ma’naviyati ham alohida o‘rin tutidi. Chunki jamiyatni barqaror, o‘zaro muvofiq rivojlanishida har tomonlama kamol topgan barkamol avlodlarning alohida o‘rni bor, shunday avlodlargina o‘zaro muvozanatli barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilishga qodirlar. Hozirda muvozanatli barqaror rivojlanishni asosiy tamoyillari B.I.Kochurov (2002) tomonidan ishlab chiqilgan [57; 384 s.].

Bu holat B.I.Kochurov tomonidan Muvozanatli va uyg‘un rivojlanishning asosiy tamoyillari sifatida 2 shaklda ko‘rsatib o‘tiladi hamda uni 1.2.2-rasmda kelitirilgan “**muvozanatli tarozi**” sxemasi orqali tasavvur qilish mumkin (1.2.2-rasm).

### **Muvozanatli va barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari**

#### **1.2.2-jadval**

<b>1-Tamoyil</b>	<b>2-Tamoyil</b>
Tamoyillarni bilish va amal qilish	Tamoyillarni bilmaslik va amal qilmaslik
Ma’naviyilik	Ma’naviyatsizlik
Muvozanatlari	Muvozanatni buzilishi
Boshqaruvchanlik	Boshqaruvni yo‘qotilishi
Birlashuv	Buzilish (tarqoqlik)
Mo‘l-ko‘lchilik	Yo‘qchilik
Xavfsizlik	Xavf-xatar
Salomatlik	Kasallik
Bashorat	Bashoratni yo‘qligi
Obodonliq shinamlik	Vayronaliq xarobalik
Rivojlanish bosqichlariga o‘z vaqtida rejali tayyorgarlik	Favqulotda holat, avariya, halokat tabiiy ofatlar

Shunday qilib, hududning ekologik-xo‘jalik balansi – bu landshaftlarning barqarorligini ta’minlashda muhim bulgan modda va energiya oqimining barqaror darajasini qo‘llab-quvvatlash, tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish hamda tabiat va tabiiy resurslardan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanish jarayonida salbiy ekologik o‘zgarishlarni keltirib chiqarmaydigan faoliyat turlari o‘rtasidagi o‘zaro nisbatning optimal holati hisoblanadi. Bunga erishish uchun yuqoridaq tamoyillarga har bir sohada og‘ishmay amal qilish talab etiladi. Tabiatdan, jumladan yer resurslaridan foydalanishda barqaror rivojlanishning vositasi sifatida tadqiqotda ekologik-xo‘jalik muvozanat konsepsiysi tanlab olindi.

Albatta, mazkur konsepsiyanidan sug‘orib dehqonchilik qilinadigan O‘zbekiston sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tadqiqot jarayonida foydalanish ma’qul bulmaydi. Undan joyning tabiiy-geografik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda foydalanish talab etiladi. Bu haqida navbatdagi paragrafda so‘z yuritiladi.

## **Nazorat savollari**

- 1. Ekologik-xo‘jalik muvozanati konsepsiysi tushunchasi nima?**
- 2. Tabiatdan foydalanishni optimallashtirish g‘oyasi nima?**
- 3. Ekologik-xo‘jalik holat nima?**

## **5-MAVZU: YER RESURSLARINING TABIIY-LANDSHAFT HOLATINI BAHOLASH: MEZONLAR VA KO‘RSATKICHLAR**

### **REJA**

- 1. Yer resurslarining tabiiy-landshaft holati**
- 2. Tabiiy-landshaft holatini baholash: mezonlar**
- 3. Yer resurslarini antropogen yuk darajasi**

Tabiiy landshaftlarning takror ishlab chiqarish salohiyatini, ya’ni tabiiy resursslarni qayta tiklovchi va tabiiy muhit hosil qiluvchi imkoniyatlarini saqlab qolish – O‘zbekistonning 2030 yilgacha bulgan davrda barqaror rivojlanish strategik rejasida belgilangan asosiy milliy maqsad va vazifalardan biridir [4]. Mamlakat yer fondini takror ishlab chiqarish va qayta tiklash jarayonini o‘zoq muddat davomida barqaror saqlab tura oladigan yerdan oqilona foydalanishning hududiy shaklini yaratish muhim ahamiyatga egadir. Bunday maqsad va vazifalarga erishishda yer fondi tarkibini optimal nisbatlarini aniqlash zarur.

Ekologik yoki tabiiy nuqtai nazardan qaraganda, yer quruqlikning muhim birikmasi hisoblanadi hamda tabiiy resurslarning tarkibiy qismiga kiradi. Tabiiy resurslarning o‘zi kishilar uchun zarur bulgan moddiy va ma’naviy boyliklar manbai hisoblanadi [26; 6 b.]. Shuning uchun, tabiat va tabiiy resursslarni baholash ishlari nafaqat iqtisodiy nuqtai nazardan, balki hududning ekologik xavfsizlik va barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati hamda mintaqaviy ekologik infratuzilmaning o‘ziga xos jihatni va elementlari sifatida ham ko‘rib chiqilishi kerak. Bu esa, tovar ishlab chiqarishga nisbatan xom ashyo resursslarni tayyorlash ustun bulgan, qishloq xo‘jaligi rivojlangan va aholining katta qismi qishloq

tumanlarida yashaydigan hududlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv antropogen ta'sir darajasi yuqori bulgan hududlarda yuz berishi mumkin bulgan ekologik oqibatlarni va zararlarni bartaraf etish uchun sarflanadigan harajatlar bashoratini tezkor amalga oshirish, aniqlash va hisobga olish imkonini beradi. Yerdan foydalanish turi va uni ko'lami hududning tabiiy resurs salohiyati va imkoniyatiga mos kelsa, ishlab chiqarish jarayonidagi natijalarning samaradorligi ham yuqori bo'ladi. Aks holda, olingan daromadning katta qismi ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga, melioratsiya va irrigatsiya ishlarini rivojlantirishga sarflanadi.

Yerdan foydalanish to'zilmasi – landshaft yoki tabiiy hududdan foydalanishning yer-mulk hamda makon va zamonda hududning tabiatdan foydalanish jihatlarining tarixiy, siyosiy va ekologik kategoriyalari sifatida aks etadi. Hududning tabiiy imkoniyatlari bilan mavjud yerdan foydalanish to'zilmasi o'rtaqidagi nomutanosiblik hamda tabiiy komplekslarni qayta tiklash imkoniyatlarini real hisobga olmaslik tabiiy resurslarni dastlabki tabiiy, ijtimoiy va xo'jalikdagi mavjud ahamiyati yoki qiymatini yo'qotilishiga olib keladi. Bundan tashqari, buzilgan yerlar (axlatxona, chiqindilarni yig'ish joylari, foydali qazilma qoldiqlari) atrof muhitga hamda aholi salomatligi va farovonligiga salbiy ta'sir qiluvchi manbara aylanib qoladi [77; 304 s., 81; 23 b.].

Hududning yerdan foydalanish to'zilmasini takomillashtirish juda muhim jarayon bulib, u insonning hayoti va faoliyati barqarorligini ta'minlashda ziyor bulgan tabiiy tizimlarni ma'lum darajasini saqlab qolish va kengaytirishni ta'minlaydi. Buning uchun, hududning ekologik va xo'jalik muvozanatini aniqlash talab etiladi. Hududning ekologik va xo'jalik muvozanati (EXM) jamiyat manfaatlarini qondirishda hudud tabiatining potensial va real imkoniyati bilan iqtisodiyotning turli sohalari (ishlab chiqarish) o'rtaqidagi o'zaro nisbatni muvozanatga keltirish orqali shakllantiriladi. Tabiatdan foydalanishning bunday shakli tabiat bilan jamiyatning barqaror rivojlanishini va tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarilishini ta'minlaydi hamda salbiy ekologik o'zgarish va oqibatlarni keltirib chiqarmaydi [57; 384 b.].

Yerdan foydalanish to‘zilmasining tahlili yer kadastri klassifikatsiyasi birliklari asosida amalga oshiriladi. Hududdagi antropogen yuk (AYu) darajasini aniqlash uchun ekspert baholash ballari aniqlanadi, unga muvofiq, har bir yerdan foydalanish turlariga mos holda ball belgilanadi. Bunday yondashuv yerdan foydalanish turlarini ball ko‘rsatkichi bo‘yicha guruhlarga ajratish imkonini beradi [57; 384 b.] va uning izdoshlari tomonidan antropogen yuk darajasini aniqlashda ma’muriy birliklardagi yer fondi toifalarini tasniflash taklif qilinadi. Shu asosda, yuqorida sanab o‘tilgan qator mintaqalarda turli maqsadlar uchun yer resurslarining ekologik-xo‘jalik holati baholab chiqiladi. Biroq, Yu.Axmadaliyevning [23] ta’kidlashicha, sug‘oriladigan maydonlar katta hududni egallagan mintaqalarda yer fondini toifalar bo‘yicha tasniflanganda, AYu integral miqdorini aniq hisoblash imkoni bulmaydi. Sababi, yer toifalarini barchasida ham toifa bilan yerdan foydalanish turi bir xil bulmaydi. Aholi punktlari toifasidagi yerlar tarkibida sug‘oriladigan yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar yoki buzilgan yer turlari bo‘lishi mumkin. Huddi shuningdeq qishloq xo‘jaligi yer toifasida ham meliorativ holati yomon yer turlari ajratiladi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi yer toifasiga kiruvchi bog‘lar, yaylov va pichanzorlarni ekologik jihatdan bosimi yuqori bulgan sug‘oriladigan xaydov yerlar turi bilan bitta guruhga kiritish, u qadar to‘g‘ri bulmaydi. Shuning uchun O‘zbekiston sharoitida ekologik-xo‘jalik holatni baholash maqsadida o‘tkazilayotgan tadqiqotlarda Yu.Axmadaliyev [23; 158-b.]. tomonidan takomillashtirilgan uslubiyotdan foydalanish maqsadga muvofikdir. Bunday tadqiqot bir birini tuldirib boruvchi oltita bosqichda amalga oshiriladi (1.3.1 rasm).



*Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

### 1.3.1-rasm. Hududning ekologik va xo‘jalik balansini baholash bosqichlari

**Birinchi bosqichda**, o‘rganilayotgan hududiy ob’ekt yer fondi haqida ma’lumotlar yig‘iladi. Yer fondi xaqidagi oxirgi 15-20 yillik ma’lumotlar yig‘ilishi mumkin. Olingan ma’lumotlar asosida yer fondi toifalari va turlarini AYu darajasi bo‘yicha tasniflash jadvali to‘zib chiqiladi. Bunda yerdan foydalanish tarkibini tasniflash yer kadastri ma’lumotlariga mos bo‘lishiga e’tibor beriladi, bu hisob-kitob ishlarida statistiq kartografik ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Yer fondi tarkibini ekologik o‘xshash guruhlarga ajratish va har bir guruhga ekspert bahosi bo‘yicha mos ball berishda B.Kochurov [51; 154-b.], ma’lumotlari eng to‘g‘ri va ishonarli ekanligi amaliyotda o‘z tasdig‘ini topdi [52; 51-57 s].

Hududiy ob’ektning yer fondi toifa va turlari ekologik-xo‘jalik jihatidan o‘xshash bulgan 6ta gomogen guruhlarga ajratiladi. Bu jarayonda ilmiy

tadqiqotlarda keng foydalanilayotgan tasnifga [52.,23] Namangan viloyatining o‘ziga xos tabiiy-landshaft sharoiti va xo‘jaligi xususiyatlarini hisobga olib, qisman o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, yuqoridagi tadqiqotlarda ekologik gomogen guruhlarni ajratishda birinchidan, yer toifalari asos sifatida olingan, ikkinchidan, tuproq-ekologik holatga ta’siri yuqori bulgan sug‘oriladigan yerlar e’tiborga olinmagan [51; 154 b., 23; 158 b.].

Biroq, hozirda yer toifalarini tarkibida turli xil antropogen bosimga uchragan yer turlari ham bor. Masalan, aholi punktlari toifasidagi yerlarning katta qismi «urbanizatsiyalashgan hududlar» gomogen guruhiga kiritilib, ularga «juda yuqori» AYu darajasi berilgani holda, shu toifadagi «tomorqadagi mevali daraxtlar» yer turi AYu ko‘rsatkichi bo‘yicha «o‘rta» darajaga to‘g‘ri keladi. Bunday holatlarni boshqa yer toifalari tarkibidagi yer turlarida ham ko‘zatish mumkin.

O‘ziga xos murakkab relef shakliga ega bulgan Namangan viloyati sharoitida bu omilni hisobga olmasliq noaniq natijalar olinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Sug‘orish ta’sirida tog‘oldi,adir landshaftlarida tuproq erroziyasi jarayoni ko‘zatilsa, tekislik landshaftlarda sho‘rlanish jarayonining kuchayib ketishi ko‘zatilmoqda. Yuqoridagi har ikki holatni e’tiborga olib, mazkur tadqiqotda ekologik gomogen guruhlar asosan yer turlari bo‘yicha ajratildi.

Viloyat va tumanlar yer fondining satrlar bo‘yicha taqsimlanishi haqidagi ma’lumotnomalardan (O‘zbekiston Respublikasi Yer fondi 0.1 2020; 22-sonli shakl) ekologik gomogen guruhga mos keluvchi yer toifalari va yer turlari aniqlandi, o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu tasnifdagi guruhlarga hududning tabiiy-landshaft tarkibi o‘zgarib borishi va antropogen yuk darajasiga qarab 1 dan 6 gacha bulgan ballar beriladi [52]. Bundan tashqari keyingi jarayonlarda foydalanish uchun har bir guruhning tavsiflovchi AYu indeksi, kadastr yuritishda foydalanadigan raqami, yuk darajasini belgilovchi sifat ko‘rsatkichlar berib boriladi (1.3.1-jadval).

Yuqoridagi tasnif bo‘yicha ekologik jihatdan eng murakkab, xo‘jalikda intensiv foydalaniladigan yer turlari shartli ravishda **«Urbanizatsiyalashgan hududlar»** deb nomlangan guruhga jamlandi. Viloyat va tumanlar yer fondining

mazkur guruhini sanoat, transport, aloqa yerlari; aholi punktlari; qishloq xo‘jaligi yer toifalariga kiruvchi yerlar tashkil qiladi. Yerdan foydalanish turlarini aniqlashda tuman yer kadastr hisobi yuritishning 33 satri tanlab olindi. Uning 18-(imorat bilan band yerlar), 21-(meliorativ qurilish holatidagi yerlar), 31-(yo‘l, so‘qmoq va chorva yo‘llari), 32-(ijtimoiy xovli kucha va maydon yo‘llari), 33-(ijtimoiy binolar) ustunidagi yerlar ushbu guruhga kiritildi.

Ikkinchi guruhga «**Sug‘oriladigan ekin yerlar**» kiritilib, yer fondida bunday yerlar tarkibiga 33-satrning 3-(ekin yerlar), 16-(tomorqadagi ekin yerlar), 20-(bog‘ va sabzavotchilik uyushmalari yerlari) ustunidagi yerlar kiradi. Bu guruhni ajratilishida ham I.Milyus va B.I.Kochurov [56] taklif etgan tasnifga o‘zgartirish kiritildi. Boltiqbo‘yi va Rossiyada haydov yerkarta tushadigan antropogen yuk miqdori bilan O‘rta Osiyodagi sug‘oriladigan haydov yerkarta tushadigan antropogen yuk o‘rtasidagi farq katta. Sug‘oriladigan haydov yerga ekilgan paxtaga ishlov berish, sug‘orish, texnikaning kirishi, ximiyaviy o‘g‘itlar miqdori, sug‘orilmaydigan yerda yetishtirilayotgan bug‘doyga nisbatan 5-7 marta yuqori bo‘ladi.

Uchinchi guruhga «**Irrigatsiya ob’ektlari ostidagi yerlar**» kiritilib, tumanda bunday yerlar tarkibiga 33-satrning 29-(suv ombor va havzalari) va 30-(kanal, kollektor va zovurlarostidagi yerlar) ustunidagi maydonlar kiradi. Bu ob’ektlarning eklogik jihatdan murakkabligi, atrof-muhitga ta’sirini yuqoriligi ularni tabiiy suv ob’ektlari (daryo, soy, ko‘l) dan boshqa, alohida guruhga kiritilishiga sabab bo‘ladi.

To‘rtinchi guruhga «**Ko‘p yillik daraxtzorlar bilan band yerlar**» kiritiladi. Ularning ekologik funksiyasi, atrof-muhitga ijobiy ta’sir etish xususiyatlari hisobga olinadi. Yer fondida bunday yerlar tarkibiga 33- strning 4; 5; 6; 7; 8- ustunidagi (ko‘p yillik daraxtzorlar, bog‘lar, o‘zumzor, tutzor, mevali ko‘chatlar) hamda 17-ustunidagi (tomorqadagi mevali daraxtlar egallagan yerlar) maydonlar kiradi.

Beshinchi guruhga «**Kam foydalilanadigan yerlar**» kiritilib, bunday yerlar tarkibiga 33-strning 9-(buz yerlar), 10-(pichanzorlar), 11-(yaylovlari) va 34-

(qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar) ustunidagi maydonlar kiritiladi.

Oltinchi guruh «**Ekologik tayanch yerlar**» bulib, bu guruhning ekologik barqarorlikni saqlashdagi funksiyasiga alohida ahamiyat berish zarur. Bunday yerlar tarkibiga 33-strning 22-(o‘rmonzorlar), 23-(ixota daraxtzorlari), 24-(terakzorlar), 25-(butazorlar) hamda tabiiy suv havzalari bilan band bulgan maydonlar kiritiladi, jumladan, 27-(daryo va soylar egallagan yerlar), 28-(ko‘llar egallagan yerlar) ustunidagi yerlar kiritiladi.

## Yer resurslarini antropogen yuk darajasi bo'yicha tasniflanishi

### 1.3.1-jadval

Tartib raqam i	Gomogen guruhlar nomi	Ko'proq keluvchi toifalari	Asosiy yer turlari (33-satr bo'yicha)		Antropogen yuk (AYu)		
			Nomi	Raqami	Indeksi	Ball	AYu darajasi
1.	«Urbanizatsiyala shgan hududlar»	Sanoat, transport, aloqa yerlari; aholi punktlari; qishloq xo'jaligi yerlari	Imorat bilan band yerlar Yo'l, so'qmoq va chorva yo'llari Ijtimoiy hovli ko'cha va maydon yo'llari Ijtimoiy binolar Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	18 31 32 33 21	AYu6	6	Juda yuqori
2.	Sug'oriladigan ekin yerlar	Qishloq xo'jaligi, aholi punktlari yerlari	Ekin yerlar Tomorqadagi ekin yerlar Bog' va sabzavotchilik uyushmalari yerlari	3 16 20	AYu5	5	Nisbatan yuqori
3.	Irrigatsiya ob'ektlari ostidagi yerlar	Qishloq xo'jaligi, suv fondi yerlari	Suv ombor va havzalari Kanal, kollektor va zovurlar	29 30	AYu4	4	Yuqori
4.	Ko'p yillik daraxtzorlar	Qishloq xo'jaligi, o'rmon, aholi punktlari yerlari	Ko'p yillik daraxtzorlar (bog'lar, o'zumzor, tutzor, mevali ko'chatlar) Tomorqadagi mevali daraxtlar	4 (5, 6, 7, 8) 17	AYu3	3	O'rtalama
5.	Kam foydalaniladigan yerlar	Qishloq xo'jaligi; zahira yerlar	Buz yerlar Pichanzorlar Yaylovlari K/Xda foydalanilmaydigan boshqa yerlar	9 10 11 34	AYu2	2	Past
6.	«Ekologik	Tabiatni	O'rmonzorlar	22(23,24)	AYu1	1	Juda past

	tayanch» yerlar	muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya, madaniy ahamiyatga moliq o‘rmon, suv fondi va zahira yerlari	Butazorlar Daryo va soylar egallagan yerlar Ko‘llar egallagan yerlar	25 27 28				
Kochurov,	1999;	Ahmadaliyev,	2007,	<i>ma'lumotlari</i>	<i>asosida</i>	<i>muallif</i>	<i>tomonidan</i>	<i>ishlab</i>

Ushbu ishlab chiqilgan tasnifga tadqiqotning navbatdagi bosqichlarida bir necha marta murojaat qilinadi. Shuning uchun undagi ma'lumotlarning aniqligi olinadigan natijalarning ishonarli va xaqqoniyligini ta'minlaydi.

**Tadqiqotning ikkinchi bosqichda** yuqoridagi jadval va tasnifdan foydalaniib, o'rganilayotgan hududiy ob'ektni tabiiy landshaftlarini o'zgarish darajasini baholash va monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Buning uchun yuqoridagi 6 ta guruhning istalgan ma'muriy tuman yer fondidagi salmog'i aniqlanib, jadvalda berilgan tegishli ballga ko'paytiriladi va 100 ga bulinadi. Olingan natija tuman yerlari tabiiy tarkibining o'zgarish darajasini ko'rsatadi [23].

Yer fondi tabiiy tarkibini o'zgarish darajasini baholash va monitoring qilish ishlari, kadastr ma'lumotlari asosida Namangan viloyatining Kosonsoy tumani misolida ko'rib chiqildi (2.2-paragrafga qarang).

Yuqorida keltirilgan tartibda hisob-kitob ishlari Namangan viloyatining 11 ta ma'muriy tumani bo'yicha o'tkaziladi. Bu ma'lumotlar asosida har bir tumanning tabiiy landshaftlarini tabiiy tarkibining o'zgarish darjasini va uning dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

**Uchinchi bosqichda** hududiy ob'ektlarning *yer resurslariga* tushadigan antropogen yukni ifodalovchi xususiy ko'rsatkichlari o'rganib chiqiladi. Bunday ko'rsatkichlar ancha mukammal ishlab chiqilgan, 4 ta blokdan iborat [23; 30; 51]. Yer resurslariga tushadigan bosimning asosiy qismi qishloq xo'jaligi tarmoqlari tomonidan bulgani uchun Farg'ona vodiysi, jumladan Namangan viloyati uchun asosan qishloq xo'jaligi antropogen bosim turlari o'rganildi.

Birinchi blokda antropogen bosimning *demografik* turi o'rganiladi. Yu.Ahmadaliyev [23] va D.Mo'minov [83] tomonidan bajarilgan ishlardan farq qilib, ushbu tadqiqotda qishloq aholisi emas, balki butun ma'muriy tuman aholisi ko'rsatkichlari o'rganilgan. Olingan ko'rsatkichlar ham hududdagi xaqiqiy demografik bosimni ifodalash uchun, H.Abduvaliyev [8] tomonidan taklif qilingan 1 ga sug'oriladigan yerga to'g'ri keladigan aholi soni o'rganildi. Bu an'anaviy, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan ekin yerlar miqdoriga nisbatan demografik bosimni aniqroq ifoda qilishi H.Abduvaliyev [8] tomonidan asoslab

berildi. ABning ushbu turi uchun ko‘rsatkichlar sifatida 1 kv.km maydonga to‘g‘ri keladigan aholi soni (kishi hisobida) va 1ga sug‘oriladigan ekin yerlar maydoniga to‘g‘ri keladigan aholi soni o‘rganib chiqiladi [83; 24 b., 87; 128 b.].

Ikkinchi blokda *agrotexnik bosim* miqdori o‘rganib chiqiladi. Qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan og‘ir texnikani ko‘p marta dalaga kirishi tuproqqa (tarkibini buzib, zichlashuviga), mikroorganizmlarning nobud bo‘lishiga hamda dala faunasining keskin kamayib ketishiga sabab bo‘lishi tadqiqotlarda aniqlangan. V.Kravchenko [58], G.Brauchinskiy [23] tadqiqotlarida og‘ir texnikani tuproq mexanik tarkibiga ta’siri o‘rganilgan bo‘lsa, S.P.Manush [23] tomonidan og‘ir texnikani yovvoyi hayvonlar va mikroorganizmlarga zararli ta’siri o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarga asoslanib, yer resurslariga qishloq xo‘jaligi texnikalarini ta’siri agrotexnik bosim sifatida o‘rganildi. Ushbu bosim turining ko‘rsatkichlari sifatida har 1000 ga ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan barcha rusumdagи traktorlar soni (dona) hamda har 1000 ga ekin yerga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi mashinalari soni (dona) olindi.

Uchinchi blokda *agrokimyoviy bosim* miqdori hisobga olinadi. Kimyoviy o‘g‘itlar va o‘simpliklarni kimyoviy usulda himoya qilish vositalarini yer resurslariga hamda butun atrof-muhitga salbiy ta’siri va uni minimal holatida kutilgan hosilni olish masalalari yaxshi o‘rganilgan [25; 345-350., 29; 32-35 b., 96; 356 b., 75; 287 s., 79; 28-32 s., 14; 5 b.]. Asosiy ko‘rsatkichlar sifatida 1 ga ekin yerga solinadigan kimyoviy mineral o‘g‘itlar ( $N$ ,  $R_2O_5$ ,  $K_2O$ ) va o‘simpliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari olinadi.

To‘rtinchi blokda irrigatsion *bosim* ko‘rsatkichlaridan yer fondi va qishloq xo‘jalik yerlari tarkibidagi sug‘oriladigan jami yerlar salmog‘i (foiz bo‘yicha) o‘rganib chiqiladi. Albatta, arid iqlim sharoitida dehqonchilikni irrigatsiyani rivojlantirmasdan turib yuritish qiyin. Biroq, hududdagi sug‘oriladigan maydonlarni ham ma’lum me’yori bo‘lishi, tabiatdagi muvozanatni, landshaft xilma-xillagini ta’minlaydigan o‘rni bo‘lishi talab qilinadi. Xududni 90-100% ini sug‘oriladigan antropogen landshaftlarga aylantirish oqibatida salbiy ekologik holatlar (ikkilamchi sho‘rlanish, suv erroziyasi, botqoqlashuv) kelib chiqishi

mumkin. Shuning uchun bu bosim turi alohida o‘rganilishi zarur. Bu yo‘nalishda geografik tadqiqotlarni ahamiyati yuqori ekanligi olimlar tomonidan ta’kidlab kelingan. [76;92.] Qiyosiy baholash o‘tkazishda yuqoridagi ko‘rsatkichlar uchun mintaqaviy baholash shkalasi to‘zilib, ma’muriy tumanlar bo‘yicha baholash o‘tkaziladi. Tanlab olingan baholash ko‘rsatkichlari bo‘yicha alohida baholash shkalasi (baholashning daraja ko‘rsatkichi) to‘zishda ma’lum uslubiy qoidalarga amal qilinadi (1.3.2-jadval).

### **Yer resurslariga tushadigan xususiy antropogen bosim turlarini o‘lchov shkalasi**

#### 1.3.2-jadval.

ABturlari	AB ko‘rsatkichlari	AB ko‘rsatkichlariga mos ballar				
		5	4	3	2	1
Demografik	Bir km <sup>2</sup> to‘g‘ri keladigan aholi zichligi	480 dan yuqori	480-361	360-241	240-121	120 dan past
	1 ga sug‘oriladigan ekin yerga to‘g‘ri keladigan aholi soni	4 dan kichik	5-8	9-12	13-16	17 dan katta
Agrotexni-kavyi	Har 1000 ga ekin yerga to‘g‘ri keladigan barcha rusumdagи traktorlar soni, dona	25 dan ko‘p	24-23	22-21	20-19	18 dan oz
	Har 1000 ga ekin yerga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi mashinalari soni, dona	56 dan ko‘p	55-51	50-46	45-41	40 dan oz
Agrokimyoviy	Bir ga yerga solinadigan mineral o‘g‘itlar (N, P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> , K <sub>2</sub> O) miqdori, kg	600 dan yuqori	600-575	574-551	550-525	525 dan oz
	Bir ga yerga solinadigan, o‘simgliklarni kimyoviy himoya qilish vositasi, kg	17 dan yuqori	16-15	14-13	12-10	10 dan oz

Irrigatsion	Yer fondi tarkibida sug‘oriladigan yerlar salmog‘i, foiz	65 dan yuqori	65-59	58-52	51-45	45 dan past
	Qishloq xo‘jalik yerlari tarkibida sug‘oriladigan ekin yerlar salmog‘i, foiz	86 dan yuqori	86-81	76-80	71-75	70 dan past

*Jadval Namangan viloyati ma’muriy tumanlari uchun muallif tomonidan to‘zilgan.*

Baholash shkalasidagi ko‘rsatkichlarni alohida pog‘onalar tashkil etishiga, ular o‘rtasidagi oraliqni (intervalni) o‘zaro mos bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot davomida baholash guruhlarini ajratishga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi. Sababi, har bir guruhga berilayotgan baholash bali turlicha bulganlagidan yakuniy ko‘rsatkichlar bir-biridan katta farq qilishi, mazkur holatni noto‘g‘ri aks ettirishi mumkin.

AB ning har bir turi 5 balli shkala bo‘yicha baholanib, yakuniy baho integral ko‘rsatkich sifatida quyidagi formula yordamida topiladi:

$$QXAB = \frac{Q_1 \cdot Sh_b + Q_2 \cdot Sh_b + \dots + Q_n \cdot Sh_b}{1000}$$

Bu yerda,

Q-qishloq xo‘jalik antropogen bosim turlari ko‘rsatkichi;

1,2,3, ...,n- baholashda qatnashgan bosim turlari soni;

Sh<sub>b</sub>- bosim turlarining regional baholash shkalasidagi bali;

1000 - umumiy buluvchi.

Ikkinci va uchinchi blokdagi ko‘rsatkichlar aksariyati markazlashgan boshqaruv idoralari orqali taqsimot qilinganligi uchun ular miqdori tumanning ekin maydonlariga qarab o‘zgarib borishiga e’tibor qaratish lozim. Shuning uchun bu ko‘rsatkichlarning aksariyati viloyat doirasidagi ma’muriy tumanlar bo‘yicha bir xil yoki bir-biriga yaqin natijaga ega bo‘lishi mumkin.

Hisoblash ishlari yuqorida keltirib o‘tilgan uslubiyot va formulalar bo‘yicha Uchqo‘rg‘on tumani misolida ko‘rib chiqildi (2.3-bob).

**To‘rtinch bosqichda** hududiy ob’ekt yer fondining ekologik-xo‘jalik muvozanatni baholash ishlari amalga oshiriladi. B.Kochurov [56;57] tomonidan

ishlab chiqilgan usullardan foydalanib, viloyat yoki tumanning yerdan foydalanish to‘zilmasini tahlil qilish orqali antropogen yukini baholash hamda yer fondi tarkibini takomillashtirishning asosli takliflarini ishlab chiqishimiz mumkin. Yer resurslari ustidan nazorat hududiy-ma’muriy birliklar (viloyat, tuman, shahar) doirasida amalga oshirilganligi sababli, ularning hududidagi landshaft-ekologik va tabiiy-xo‘jalik tizimlari ishning maqsadiga ko‘ra, tadqiqot ob’ekti sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu tadqiqot jarayonida axborot yig‘ish va natijalarini amaliyatga tadbiq etishni soddalashtirishga imkon beradi.

Ekologik-xo‘jalik muvozanatni baholash koeffitsientlari B.I.Kochurov tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyatga keng jalg etilgan usullar va ko‘rsatkichlar asosida o‘tkaziladi (1.3.3 jadval).

**Xududlarning ekologik-xo‘jalik muvozanatni baholash koeffitsientlari (B.Kochurov, 2003).**

**1.3.3-jadval**

Koeffitsient-larini nomlanishi	Formula	Foydalilanidigan manbaalar	Olingan natija yoki qiymatlarni o‘zgarish xususiyati
$K_{mez}$ – mutloq ekologik zo‘riqish koeffitsienti	$K_{mez} = \frac{AIO6}{AIO1}$	Antropogen yuk yuqori bulgan yer maydonlari – AYu6; antropogen yuk past bulgan (METH) yer maydonlari – AYu1.	$K_{mez} \uparrow$ – zo‘riqish ko‘rsatkichini o‘sib borishini bildiradi.
$K_{nez}$ – nisbiy ekologik zo‘riqish koeffitsienti	$K_{nez} = \frac{AIO4 + AIO5 + AIO6}{AIO1 + AIO2 + AIO3}$	Viloyatdagi antropogen yuk ko‘rsatkichi yuqori bulgan (AYu4, AYu5, AYu6) va nisbatan past bulgan (AYu1, AYu2, AYu3) yer toifalarini o‘zaro nisbatli tahlil qilinadi	$K_{nez} \rightarrow 1$ viloyatdagi EXMning zo‘riqish darajasi me’yorida; $K_{nez} \uparrow$ – zo‘riqish ko‘rsatkichini o‘sib borishini bildiradi
$K_{th}$ – tabiiy himoyalanish koeffitsienti	$K_{th} = \frac{P_{x_{\phi}}}{P_{xye\phi}}$	$R_{xuef}$ – tadqiq etiladyotgan hudud yer fondining umumiy maydoni	$K_{th} \uparrow$ – tabiiy himoyalanish koeffitsientini o‘sishi; $K_{th} \leq 0.5$ tabiiy himoyalanishi kritik darajada
$R_{xez}$ – ekologik zahira yerkari	$P_{x_{\phi}} = P1 + 0.8 \times P2 + 0.6 \times P3 + 0.4 \times P4$	$R_{xez}$ – hududning ekologik zahira yerkarining umumlashtirilgan maydoni bulib, asosan,	$R_{xez}$ – ko‘rsatkichi viloyatning tabiiy himoyalanish darajasini belgilab beradi

		muhit hosil qiluvchi va resurs saqlovchi funksiyalarining barqarorligini ta'minlanganligi bilan belgilanadi	
--	--	---	--

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, ishda nisbiy ekologik zo'riqish koeffitsientini aniqlash formulasidan foydalanib olib borilgan hisob-kitob ishlari 3.1 paragrafda Namangan viloyati misolida beriladi.

**Beshinchи bosqichda** yuqoridagi tahlillarga asoslanib, Namangan viloyatida yerdan foydalanish jarayonida yuz berayotgan va kelajakda yuz berishi mumkin bulgan muammolar ochib beriladi. Mazkur muammolarni yechishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida yer fondidan foydalanishda lanshaftli rejalshtirish va yer to'zishdagi innovatsion ekologik loyhalaridan foydalanish usuliga murojaat qilinadi [55; 81-87 s., 56; 154 s., 57; 384 b.]. Buning uchun yuqoridagi ko'rsatkichlar tumanlar kesimida umumlashtirilib, hududning ekologik-xo'jalik jihatdan zo'riqish darajasi aniqlanadi, hudud tabiiy landshaft tarkibini o'zgarish darajasi, xususiy va integral antropogen bosim ko'rsatkichlari umumlashtiriladi. Shu asosda ma'muriy tumanlar hududining geoekologik-xo'jalik jihatdan zo'riqish darajasini aniqlanib, rayonlashtirish o'tkaziladi.

**Oltinchi bosqichda** ma'muriy tumanlar yer fondidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha landshaftli rejalshtirish tamoyillariga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu tavsiyalar ma'muriy tumanlardagi landshaft turlariga mos holda, ularning antropogen bosim turlariga chidamlilik darajasini, tashqi ta'sirlarning har bir turiga qarshilik ko'rsatish imkoniyatini e'tiborga olgan holda ishlab chiqiladi.

### Nazorat savollari

- 1. Yer resurslarining tabiiy-landshaft holati deb nimaga aytildi?**
- 2. Tabiiy-landshaft holatini baholash: mezonlar nimalardan iborat?**
- 3. Yer resurslarini antropogen yuk darajasi qanday aniqlanadi?**

## **6-MAVZU: YER TUZISHNING OB'YEKTI VA YER TOIFALARI REJA**

## **1. Yer tuzishni obyekti va yer toifalari**

### **2. Yer tuzishining turlari**

### **3. Yerning ekologik xususiyatlari**

Yer tabiiy obyekt va ishlab chiqarish vositasi sifatida yer tuzishning ob'yekti bo'lib xisoblanadi.

Davlat yerning yagona egasi sifatida yer fondini boshqarishini amalga oshiradi. Yer fondi yerlardan foydalanishning asosiy maqsadiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligi yerkari - qishloq xo'jaligi extiyejlari uchun yoki ana shu maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;
2. Axoli punktlarining (shaxarlar va qishloqlar axoli punktlarining yerkari), shaxar qishloq axoli punktlari chengarlari doiralaridagi yerlar;
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar;
4. Tabiatni muxofaza qilish, rekratsiya maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar;
5. Tarixiy madaniy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar;
6. O'rmon fondi yerkari;
7. Suv fondi yerkari;
8. Zaxira yerkari.

Qishloq xo'jaligi extiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki shu maqsadlar uchun belgilangan yerkari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerkari deb xisoblanadi.

Shaxar doirasidagi barcha yerkari, shaxar yerkariga kiradi. Qishloq aholi punktlarining yerkariga yer tuzish tarkibida ana shu punktlar uchun belgilab qo'yilgan chegaralari doirasidagi xamma yerkari kiradi.

Sanoat yerkari jumlasiga sanoat korxonalariga, energetika korxonalariga, ishlab chiqarish va yordamchi binolar xamda inshootlar qurilishiga doimiy foydalanish uchun berib qo'yilgan yerkari kiradi.

Transport yerlari jumlasiga temir yo'l, ichki suv transporta, avtomobil, xavo transporta uchun doimiy foydalanishga berib ko'yilgan yerlar kiradi. Aloka yerliri jumlasiga aloka liniyalari xamda tegishli inshootlarni joylashtirish uchun, aloka, radioeshittirish, telefideniye va axborot korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy foydalanish uchun berib ko'yilgan yerlar kiradi.

Qurolli kuchlar, chegara, ichki va temir yo'l qo'shinlarining xarbiy qismlari, xarbiy o'quv yurtlari, korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining joylashishi hamda doimiy faoliyati uchun berib qo'yilgan yerlar mudofaa extiyeji uchun mo'ljallangan yerlar deb e'tirof etiladi.

Suv xo'jaligi extiyejlari uchun tashkilotlarga belgilangan tartibda berib qo'yilgan suv xavzalari (daryolar, ko'llar suv omborlari va x.k), gidrotexnika va suv xo'jaligi inshootlar egallab turgan yerlar suv fondi yerlari jumlasiga kiradi.

Tabiatni muxofaza qilishga mo'ljallangan yerlar jumlasiga davlat ko'riqxonalari, milliy bog'lar, botanika bog'lari, tabiat yodgorligi yerlari kiradi.

Axolining ommaviy dam olishini tashkil etish uchun tegishli muassasalar va tashkilotlarga berilgan yerlar rekratsiya uchun mo'ljallangan yerlar.

Tarixiy madaniy qo'riqxonalar, mineral bog'lar, maqbaralar, arxeologiya tarix va madaniyat yodgorliklari joylashgan yerlar tarixiy madaniy axamiyatga molik yerlar qatoriga kiradi.

O'rmon xo'jaligi extiyojlari uchun berib qo'yilgan yerlar o'rmon fondi yerlari deb e'tirof etiladi.

Zaxira yerlar tuman, shaxarlarining davlat xokimiyat organlari tasarrufida bo'ladi va qishloq xo'jaliki maqsadlari uchun egalik qilish, foydalanishga va ijara berishga mo'ljallanadi.

Yerni xududiy, miqdor va sifat jixatdan tavsiflash uchun yer turlarining klassifikasiyasi kiritilgan. Turlicha tabiiy xususiyatlari ega bo'lgan, aniq bir ishlab chiqarish maqsadlarida tizimli tarzda foydalanadigan yer bo'laklariga yer turlari deb e'tirof etiladi.

Qishloq xo'jaliki maxsulotlarini yetishtirishda to'g'ridan -to'g'ri foydalanilgan yer turlariga qishloq - xo'jaliki yer turlari deb ataladi.

Qishloq xo‘jaliki yer turlariga quyidagilar kiradi:

1. Xaydalma yerlar
2. Ko‘p yillik daraxtlar
3. Bo‘z yerlar
4. Pichanzorlar
5. Yaylovlар

Qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish maqsadida mustaxkam ravishda foydalaniladigan yer turi xaydalma yerdir. Bunga ekilgan ko‘p yillik o‘tlar va dam berish uchun koldirilgan shudgor yerlar xam kiradi.

Ko‘p yillik daraxtzorlarga bog‘lar, uzumzorlar, tutzorlar va mevali ko‘chatzorlar kiradi.

Muntazam ekin ekib kelingan, ammo bir yil va undan ortiq davrda (kuzdan - kuzgacha) xaydalmagan va foydalanilmay qolgan yerlar bo‘z yerlardir.

Uzluksiz pichan o‘rib turiladigan qishloq xo‘jaliki yerlari pichanzorlardir.

Qishloq xo‘jaligida chorva mollarini uzluksiz boqish uchun foydalaniladigan yerlar yaylovlар deb e’tirof etiladi.

### **Yer tuzishning turlari**

Yer tuzish ikki turga bulinadi: 1. Xo‘jaliklararo yer tuzish. 2. Ichki xo‘jaligi yer tuzish

Xo‘jaliklararo yer tuzish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- yangi yer egaligi, yerdan foydalanuvchlarning tashkil etishi;
- mavjud xo‘jaliklar va yerdan foydalanuvchilarining chegaralarini tartibga keltirish;
- sanoat ob’yeklari, transport va boshqa noqishloq xo‘jaligi extiyojlari uchun yer ajratish;

Xalk xo‘jaligida yerdan foydalanishning masalalarini yechish.

Yangi yer egalari va yerdan foydalanuvchilarining tashkil qilish uchun tuziladigan xo‘jaliklararo yer tuzish loyixasi tarkibiga quyidagi asosiy masalalarni (loyixaning tarkibiy kismlari) yechish kiradi:

1. Tashkil qilinayotgan xo‘jaliklarning yer maydonini aniqlash;
2. Uni xududda joylashtirish;
3. Uning tarkibiga zarur yer turlarini kiritish;

4. Uning yer maydonini ko‘paytirish shaklini belgilash;
5. Xo‘jalik xududi chegaralarini to‘g‘ri belgilash Xo‘jaliklararo yer tuzishga mavjud xo‘jalikilar yer maydonlaridagi kamchilik va nuqsonlarini tugatish va boshqa tadbirlar xam kiradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida o‘tkaziladigan ichki xo‘jalik yer tuzish quyidagi asosiy masalalarni (loyixaning tarkibiy qismlarini) o‘z ichiga oladi.

1. Xo‘jaliki markazlari va ishlab chiqarish bo‘limlarini joylashtirish. ,
2. Asosiy yo‘llarni joylashtirish.
3. Yer turlarini belgilash va almashlab ekishni tashkil etish.
4. Bog‘ va uzumzorlar maydonlarini tashkil etish.
5. Yaylovlar va pichanzorlar maydonlarini tashkil etish.

Yer tuzish bu ijtimoiy iqtisodiy jarayen bulib, yerdan foydalanish, uni muxofaza qilishni tashkil etish, yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning maxsus yer foidlarini tashkil qilish va tartibga solish, qishloq xo‘jaliki korxonalarini va dexkon xo‘jalikilarini xududlarini tashkil qilish tabiiy landshaftlarni yaxshilash va maxbul ekologik muxit yaratishdir.

Yer tuzishning moxiyati uning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib, yerdan ishlab chiqarish vositasi va iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar manbai sifatida foydalanishni tashkil qilish xududni ishlab chiqarish talablariga moslab tuzishdan iborat.

Insonning atrof-muhitga bo‘lgan ta’sirining kuchayishi munosabati bilan ekologik holatni o‘rganish katta axamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Tabiiy resurslardan foydalanish landshaftlar va ularning inson faoliyati natijasida sifatli o‘zgarishi bilan bog‘liq.

Ob-xavo, joy rel’yefi tuproq va o‘simlik qoplamasи, geologiya, gidrografiya va boshqa fizik - geografik faktorlar mamlakatning turli tabiiy-iqtisodiy xududlarini tavsiflaydi.

Ob-xavo qishloq xo‘jalik ekinlarni o‘stirish imkoniyatlari va shart-sharoitlarini aniqlab beradi.

Joy rel’yefi tuproq hosil bo‘lish jarayonining rivojlanishga ta’sir qiladi.

Tuproq - yerning ustki unumdor qatlami. Tuproqni o‘rganish va ularni xududiy joylashtirishni o‘rganish uchun tuproqni tekshirish o‘tkaziladi, uning natijalari yer tuzishni o‘rganish uchun kerak bo‘ladi.

### **Nazorat savollari**

- 1. Yer tuzishning ob’yekti nima?**
- 2. Yer tuzishning turlariga nimalar kiradi?**
- 3. Yer turlariga nimalar kiradi?**

## **7-MAVZU: QISHLOQ XO‘JALIGI EKOSISTEMALARI VA ULARNING MAHSULDORLIGI**

### **REJA**

- 1. Ekosistemalrning xillari va energiyalari**
- 2. Muhitning energetik tavsifi**
- 3. Ekosistemadarning mahsuldaorligi**

Qishloq xo‘jaligi ekosistemalarini, asosan avtotrof komponentlar yoki «yashil zonalar» tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi ekosistemalari tabiiy yoki yarim tabiiy ekosistemlardan kuyidagicha farkdanadi:

- 1) Qishloq xo‘jaligi ekosistemalari inson qaramog‘idan yordamchi energiya oladi, u quyosh energiyasiga qo‘srimcha yoki uni o‘rnini bosadi (issiqxona);
- 2) argonsozlar ichida organizmlar soni xilma-xilligi juda ham chegaralangan (foydali o‘simliklar, xayvonlar turlari);
- 3) Qishloq xo‘jaligi ekosistemalarida dominantlik kesadigan turlar tabiiy tanlanish emas, balki sun’iy tanlanish ta’sirida bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi ekosistemalar kerakli ozuqa mahsulotlari olish uchun tashkil qilinadi va funksiyasi, to‘zilishi bosh sarilib turiladi, ya’ni:

1. Sistemanı ushlabturish uchun kushimcha energiyadan foydalanish, bu xolat tabiiy sistemalarda quyosh energiyasi tomonidan bajariladi. Qishloq xo‘jaligi ekosistemalarida quyosh nurining asosiy energiyasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ozuqa urug‘iga, mevaga o‘tadi.

2. Maxsus moslashtirilgan muhitda seleksiya asosida yaratilgan o'simliklar navlari va xayvonlar zotlaridan optimal mahsulot olinadi. Agroekosistemani 2 katta tipga bo'lish mumkin (Odum, 1986):

1. Fan-texnika taraqqiyoti davrigacha bo'lgan agroekosistema. Bu davrda qo'shimcha energiya sifatida inson va xayvon kuchidan foydalanilgan va yetishtirilgan mahsulot dexqonning oilasi uchun yoki bir qismini sotish, yoki kerakli mahsulotga almashtirishga mo'ljallangan.

2. Mexanizatsiyalashgan intensiv ekosistemada qo'llab yoqilg'i energiyasi, ximikatlar va mashinalar ishlataladi, maxalliy aholi talabidan ortiqcha maxsulot yetishtiriladi, ortiqchasi tashqi bozorga jo'natiladi. Masalan, O'zbekistonning paxtasi, sabzavot va poliz ekinlari, Afrikaning banani, Arabistonning xurmosi, Gurjistonning apelsini tashqi bozorda sotiladi.

Ekosistemalarning funksional xislatlari yoki tuzilish belgilariga qarab klassifikatsiya qilinadi. Masalan, ekosistemaga kelayotgan foydali energiya miqdori va sifatiga qarab, u funksional bo'lishi ham mumkin. Undan tashqari o'simliklar tiplari yoki landshaftlarning fizikaviy turg'unlik belgilariga qarab biomlarga bo'lish usullari ham keng qo'llaniladi (Odum, 1983). Ekosistemalar klassifikatsiyasini tirik organizmlar guruhlariga (taksonomik) qarab ajratib bo'lmaydi. Tabiatda hamma voqealar va xilma-xilliklar bir-birlari bilan qo'shilib ketgan, shuning uchun ham ekosistemalarni klassifikatsiya qilishda va ularning turlarini belgilashda ekologlar o'rtasida yagona fikr yo'qligidan, ekosistemalarni o'rghanishda turlicha yondashish foydali, deb topildi va quyidagi yirik sistemalarga ajratildi:

1. Yer usti ekosistemalari (tundra, mo'tadil, tropik cho'l).
2. Cho'l, suv havzalari, daryolar, botqoqliklar ekosistemasi.
3. Dengiz ekosistemasi.

Energiyaning saqlanish qonuniga asosan energiya bir turdan ikkinchi turga o'tadi, lekin yo'qolib ketmaydi va qaytadan hosil xam bo'lmaydi. Masalan, quyosh nuri energiyaning bir turi bo'lib, ish jarayonida uni issiqlikga, ozuqaga yoki boshqa kerakli mahsulotga aylantirish mumkin. Fizikaning ikkinchi termodinamik

qonuni bo'yicha boshqa shaklga aylanish jarayoni O'z-o'zidan yuzaga kelib, bunday holatda konsentrashgan energiya sochilgan (degradatsiya) formasiga o'tadi. Masalan, temirning issiqlik kuchi o'z-o'zidan sovuq muhitga qarab sochilib, tarqalib issiqlik energiyasi sifatida foydalanish mumkin bo'limgan holga o'tadi. Biosferadagi ekosistemalarning muhim termodinamik xususiyati bu - ular energiya hosil qiladilar va uni tana ichida bir xil darajada kam sochiladigan holda ushlab turadilar. Tanadagi energiyaning kam sochilishida foydasiz holatga (entropiya) kam o'tkazilib, kerakli energiya sifatida biomassa hosil qilishga, nafas olishga, o'sish, ko'payish va rivojlanishga sarf qilinadi. Shunday qilib, ekosistemalar va ular ichidagi organizmlar ochiq birbiriga teng bo'lgan termodinamik sistemalar b'lib, atrof-muhit bilan doimo energiya va modda almashib turadilar.

Har qanday ekosistema ichidagi o'tloqzor yoki o'rmonzorda quyosh energiyasi fotosintez jarayonida ozuqa energiyasiga aylanadi va fizikaning ikkala qonunini aks ettiradi. Mabodo, tabiiy yoki sun'iy sistemalar shu ikki qonundan chetga chiqsa, ular nobud bo'ladilar. Ekosistemalarda uchraydigan tirik organizmlarning har xilligi energiyaning turi o'zgarib turishi bilan bog'liq. Bu jarayonlar va o'zgarishlarni o'tishida energiyaning bir jarayondan ikkinchi jarayonga o'zgargan shaklda (quyosh energiyasi fotosintez - o'simlik tomonida organik modda hosil bo'lishi) o'tishi yuzaga keladi. Natijada populyatsiyalar-biotsenozlar-ekosistemalar va biosfera yuzaga kelgan ekosistemalarning funksiyasi doimiy xarakatda bo'ladi. Ekosistemalarda «energiya bosimi» - moddalar harakati bir tomonlama bo'lishidan iborat bo'lib, bu bosim ekosistema ichidagi tirik komponentlardan o'tadi va tabiiy hamda sun'iy sistemalar uchun umumiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Ekosistemalarda uchraydigan organizmlar quyoshdan kelayotgan uzun to'lqinli yorug'lik energiyasi ta'siriga uchraydilar. Quyosh energiyasida turli zonalar iqlimi (harorat, suvning bug'anishi) o'zgarishi yuzaga keladi, bir qismi esa fotosintezga sarf bo'ladi. Yer yuzasiga quyoshdan doimiy energiya kelib turadi. Quyoshdan kelayotgan energiya oqimi fasllar bo'yicha va ekosistemaning joyiga qarab o'zgarib turadi. Yer yuzasiga quyoshdan yiliga 558-1019 kkal yoki 134-109

kkal energiya kelib, shundan 37 foizi atmosferaga qaytadi, 63 foizi esa havo va yerga yutiladi. Quyoshdan tarqalayotgan nurning yarmiga yaqini yer yuzasiga yetib keladi. Kolbalarga  $290 \text{ kJ/sm}^2$  yoki  $70 \text{ kkal/sm}^2$ , subtropik va tropik zonalarga esa yiliga  $917 \text{ kJ/sm}^2$  yoki  $220 \text{ kkal/sm}^2$  energiya keladi. Shu energiyalar hisobiga dengiz to‘lqinlari, suv bug‘lanishi, yer yuzidagi hayot jarayoni, tabiatda moddalar almashinuvi tinimsiz davom etib turadi. Organik moddalarni hosil qiladigan yashil o‘simliklar yer yuziga keladigan quyosh energiyasidan yiliga 5-1020 kkal miqdorida foydalanadilar. Ekosistemalar mahsuldarligi va ularda biogen elementlar aylanib turishida shu yerdagi avtotrof o‘simliklarning kun, oy, yil davomida olgan umumiy quyosh nuri katta ahamiyatga ega. Shimoliy kenglikning  $40^\circ$  va janubiy kenglikning  $40^\circ$  o‘rtaligidagi dengiz yuzasiga yiliga 1 mln.  $\text{kkal/m}^2$  toza radiatsiya tushsa, quruqlikka yiliga 0,6 mln.  $\text{kkal/m}^2$  tushadi (Budiko, 1977). Quyosh dan kelayotgan energiyaning 1 foiziga yaqini ozuqa energiyasiga va boshqa biomassalarga o‘tadi, taxminan 70 foizi issiqlikka aylanib, bug‘lanish, yog‘in, shamolga ketadi, lekin mutlaq yo‘qolmaydi. Haroratni, iqlimni, ob-havo o‘zgarishini va suvning aylanib turishini ta’minlaydi, yerda hayot jarayonini boshqaradi.

Tabiatdagi har bir organizmning olgan energiyasi uning biologik tizimi ichida harakat qilishi va yashashiga sabab bo‘ladi. O‘simliklar quyoshdan energiya olib, hosil qilgan organik massa boshqa organizmlarga o‘tadi va yangi massa hosil qiladi. Tirik organizmlar yuzaga keltirgan massani energiya birligida olinsa, unga biomassa deb ataladi. Masalan, ma’lum joydagi ( $1 \text{ m}^2$  yoki  $1 \text{ ga}$ ) massa birlamchi produsentlar-o‘simliklar tomonidan hosil bo‘ladigan biomassa miqdori birlamchi mahsulot deb aytiladi. Buni bir kunda bir joydan olingan quruq organik modda, bir yilda bir hektar joydan  $N \text{ kg}$  sifatida ifodalanadi. Fotosintez jarayonida hosil bo‘lgan umumiy energiya birlamchi yalpi mahsulot deyiladi (BYAM). Uning bir qismi nafas olishga sarflanadi. Undan qolganini birlamchi toza mahsulot deyiladi (BTM). Shu birlamchi toza mahsulot turli geterotrof organizmlar: bakteriyalar, zamburug‘lar, hayvonlar, insonlar uchun ozuqa bo‘ladi. Shu ozuqa asosida geterotrof organizmlar hosil qiladigan biomassa tezligiga ikkilamchi mahsulot deb

aytiladi. Ma'lumotlarga ko'ra yil davomida birlamchi toza mahsulotning miqdori 110-120 mlrd. tonna quruq modda hisobida bo'lsa, okeanda 50-60 mlrd. Tonnage teng (Leith, 1975; Whittaker, 1975; Rodin, 1975). Yer usti muhitining mahsuldarligi nam tropikadan mo'tadil zonalarga qarab kamayib boradi. Mo'tadil zonalarning mahsuldarligi  $4000 \text{ g/m}^2$ , tropikada -  $7000 \text{ g/m}^2$  ga teng. Tundra zonasasi o'tloqzorlarining birlamchi mahsuloti yiliga  $10 \text{ g/m}^2$  dan  $110 \text{ g/m}^2$  atrofidadir. Grenlandiyada va Antarktidaning qulay sharoitda biologik birliklarning mahsuldarligi  $2000 \text{ g/m}^2$  ga teng. Yer yuzida hosil bo'ladigan biologik fitomassaning miqdori  $1,5-5,5 \text{ Yu10}$  tonnaga teng (Kovda, 1971). Yer muhitida uchraydigan avtotrof va geterotroflar organizmlarning umumiyligi biomassasi  $1,4-1012-30-10^{12}$  tonna atrofida belgilangan. Avtotrof organizmlarning umumiyligi yillik mahsuldarligi  $176-109$  quruq modda hisoblanadi. Quruqlikda hosil bo'lgan avtotrof organizmlarning umumiyligi biomassasi  $1770 \text{ mlrd.t. bo'lib}$ , uning  $1509 \text{ mlrd. tonnasi}$  yoki yer yuzida o'simliklar hosil qilgan jami biomassaning 85 foizini o'rmon o'simliklari hosil qiladi. Quyosh energiyasidan foydalanish hisobiga quruqlikda  $3,1-1010$  tonna yoki yiliga  $5,8-10^9$  tonna va okeanda  $2,7-1010$  tonna organik modda hosil bo'ladi. Yer yuzidagi hayvonlarning zoomassasi o'rtacha  $20 \text{ mlrd. tonna}$  quruq moddani tashkil qiladi. Shulardan  $3,5 \text{ mlrd. tonnasi}$  okean hayvonlari hisobiga tushadi. Planetada hozirgi kunda  $6,2-6,3 \text{ mlrd. yashaydi}$ .

Ularning umumiyligi massasi  $201 \text{ mln. tonnadan ortiq}$ . Katta maydonlardagi mahsuldarlikning o'rtacha ko'rsatkichi yiliga  $200$  dan  $20000 \text{ kkal/m}^2$  ga teng yoki undan  $100$  barobar farq qiladi. Yer yuzidagi umumiyligi maxsulot yiliga  $1018 \text{ kkal}$  atrofida. Lekin yer yuzidagi ayrim ekosistemalarda mahsuldarlik  $2$  barobar ortiq bo'lib, fotosintezning eng yirik mahsuloti yiliga  $50000 \text{ kkal/m}^2$  ni qabul qilishdan iborat.

### **Nazorat savollari**

- 1. Ekosistemalarning turlari va energiyalari nima?**
- 2. Muhitning energetik tavsifi nima?**
- 3. Ekosistemalarning mahsuldaorligi nima?**

## **8-MAVZU: QISHLOQ XO‘JALIGIDA EKOLOGIK TOZA MAHSULOTLAR YETISHTIRISH REJA**

- 1. Qishloq xo‘jaligida ekologik sof mahsulot yetishtirish**
- 2. Ekologik toza mahsulotlar yetishtirish texnologiyalari**
- 3. Tuproqda namlik miqdori**

Qishloq xo‘jaligida ekologik sof mahsulot yetishtirish deganda inson salomatligi uchun zararsiz mahsulotlarni tayyorlash nazarda tutiladi. Ekologik zararsiz ekinlarni yetishtirish, uning mahsulotlarini qayta ishslash va umumiyligi, texnologik va toksikologik qoidalarga amal qilib tayyorlangan, insonlar va hayvonlar hayotiga xavf solmaydigan jarayonlar nazarda tutiladi. Ozuqa moddalarning foydali xususiyati — ksenobiotikligi kimyoviy elementlarning bir yoki bir nechta oziqaviy halqlar orqali harakati natijasida aniqlanadi. Bu halqlar kuyidagilar: Ksenobiotiklar - % xavo - inson, % xayvon. Ksenobiotiklar - suv - inson, % hayvon. Ksenobiotiklar - oziq; mhsulotlari - inson, % hayvon. Ksenobiotiklar - tuproq - suv - % hayvon. Ksenobiotiklar - tuproq - suv - o‘simlik - inson - % hayvon - inson - tuproq. Ksenobiotiklar - tuproq - o‘simlik - hayvon - inson - tuproq. Bu -halqalarda kimyoviy moddalarning trofik aylanishi qancha uzoq bo‘lsa, inson uchun havfi kamayib boradi. Inson tanasiga zararli moddalarning 70 foizi oziq-ovqat, 20 foizi havo, 10 foizi suv bilan tushadi. Qishloq xo‘jalik ekinlari va chorva mahsulotlarining ifloslanish darajasi qishloq xo‘jaligi ekosistemalarinyng ekologotoksikologik xususiyatiga bogliq. Qishloq xo‘jaligida kimyoviy moddalarni qo‘llash tuproqdagagi ekologik holat buzilishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, sanoat, transport va xo‘jalik chiqindilaridan tuproqning ifloslanishi polimerlar, oltingugurt hisobiga ortib bormoqda. Shuning uchun oziq-ovqat mahsulotlari va yem-xashaklarning sifatini baholashda ularning tarkibidagi zararli moddalarning ruxsat etilgan konsentratsiyasini (REK) yoki ruxsat etilgan qoldiqlar miqdori (REKM ) yoki maksimal ruxsat etilgan darajasi (MRED) normalari aniqlanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari va yem-xashakdagi toksikontlarni kimyoviy toksikologik tahlil yo‘li bilan aniqlanadi. Muhitni ifoslantiruvchi

kimyoviy moddalar ichida eng xavflisi ofhp metallar bulib, ulardan qo‘rg‘oshin, simob, kadmiy, marginush, rux, nikel kabilar tuproqda tushgandan keyin suvda erib, o‘simplikda, undagi oziq moddalarda va iste’mol qilgan insonlarda to‘planib boradi. Texnogen omillar hisoblanmish bu ofhp metallar muhitda to‘planib, biotipdagи organizmlarda ro‘y beradigan fiziologik jarayonlarning salbiy O‘zgarishiga sabab bovlib, o‘sish va rivojlanishni sekinlashtirib, hosil sifati va miqdorini keskin kamaytiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra ofhp metallarning inson organizmida ta’sir ko‘rsatadigan bir xafalik miqdorining darajasida qo‘rg‘oshin - 3 mg, kadmiy - 0,5 mg, simob - 0,3 mg ni tashkil qiladi. Bu moddalar o‘simpliklarning turli a’zolarida turli miqdorda to‘planadi. Masalan, O‘simplik ildizi va eski yaproqlarida rux ko‘p to‘plansa, poya, novda, yangi barglari, ildiz mevalar va mevalarda kam to‘planadi. Ofhp metallarning O‘simpliklarni turli organlarida, to‘qmalarida to‘planishi ekinlarning turiga, nava, morfologik tuzilishiga, fiziologik jarayonlarning intensivligiga va yoshiga bog‘liq. Masalan, temir sabzining ildiz bug‘izida, rux va ko‘rg‘oshin o‘zak qismida, mis va marganes, kadmiy, temir ildiz qismida to‘planadi. Lavlagining o‘zak qismida rux, qo‘rg‘oshin, po‘stlog‘ida mis, marganes, kadmiy, temir to‘planadi. Karamning ustki barglarida ruxning miqdori o‘zakka qarab kamayib boradi . O‘simpliklarning turli a’zolarida qo‘rg‘oshinning miqdori, mg/kg (Sokolov, 2000) O‘simpliklar Azolari qo‘rg‘oshin miqdori . Arpa doni qobiq 1,35 endosperm 0,50 murtak 8,90 Bug‘doy doni qobiq 0,74 endosperm 1,22 murtak 7,69 Suli doni qobiq 3,85 endosperm 8,33 murtak • 63,3 Grechixa doni qobiq 0,94 endosperm 1,28 murtak 5,56 Pista doni qobiq 0,06 endosperm 0,06 murtak 0,09 Petrushka qobiq 2,50 endosperm 1,00 murtak 0,50 Salat band 19,7 barg 28,9 ildiz 37,4 Shovul band 37,5 barg 28,0 Piyoz piyoz po‘sti 13,8 bargi 5,0 Ukrop poya 41,7 barg 24,8 Sarimsoqpiyoz, piyoz bosh 10,0 barg 30,0 Xren barg 0,25 bandi 0,75 ildizi 0,25 Selderey barg 2,0 bandi 4,0 ildiz meva 3,5 Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, kartoshin o‘simpliklarning barg va bandlarida ko‘p miqdorda to‘planadi. Shuning uchun otar metallar miqdorini tuproqda, o‘simplik tarkibida me’yorida saqlashga erishish muhim tadbir hisoblanadi. Tabiiy muhitda va qishloq xo‘jalik mahsulotlari

tarkibidagi zararli elementlar miqdorini me'yorida saq- lash inson salomatligini muhofaza qilishning birdan-bir yo'lidir. Masalan, yerga go'ng solinsa, tuproqdag'i qo'rg'oshin 12 foizga kamayadi. Vermikulintdan tuproqda foydalanish zararli elementlarni kamayishiga olib keladi. Mineral o'g'itlarni - N 60, R 60, K 60 kg miqdorida foydalanish suli va no'xat tarkibidagi kadmiyni 1,3, qo'rg'oshinni 1,8 baravar kamaytiradi. Sabzavot va kartoshkadan foydalanishdan oldin yuvish, ildiz va po'stloqlarini olib tashlash ular tarkibidagi qo'g'oshin va simob miqdorini 85 foizga, kadmiyni 20 foiz kamaytiradi. So'nggi yillarda azotli uritlarni normadan ortiqcha ishlatish tuproqda va o'simlik a'zolarida nitratlarning to'planishiga olib kelmoqda. Tabiiy sharoitda o'simlikdagi nitrat miqdori 1-30 mg/kg bo'lsa, madaniy o'simliklarda 40-12000 mg/kg tashkil qilmokda . Qishloq xo'jalik o'simliklarida to'plangan nitrat miqdori o'simliklar miqdori mg\kg (Xul massa) Tarvo'z 40-600 Baqlajon 80-270 Garchitsa 400-550 Kovun i700-2500 Kuk nuxat 40-500 Ok karam 600-3000 Pekin karami 1000-2700 Kolbrabi karami -160-2700 Kabachki 400-700 Kartoshka 40-980 Koriandr 40-750 Salat kress 1300-4900 Ko'k piyoz 40-1400 Bosh piyoz 60-900 Sabzi 60-2200 Bodring 80-560 Pamidor 160-900 Shirin qalampir 40-330 Petrushka 1700-2500 Revan 1600-2400 Kora turup 1500-1800 Rediska 400-2700 Sholg'om 600-900 Salat 400-2900 1 Lavlagi 200-4500 Pomidor 10-1900 qovoq 300-1300 Ukrup 400-2200 Sarimsoq piyoz 40-300 Shovul 240-400 Shpinat 600-4000 Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, pomidor, qalampir, baqlajon, sarimsok piyoz, loviya kabi o'simliklarda nitratlar miqdori juda kam. Qishloq xo'jalik ekinlarini turri parvarish qilish, hosilni o'z vatida yig'ishtirib olish, me'yorida saqlash, turri texnologik usullardan foydalanib oziq moddalar tayyorlash — ular tarkibidagi nitratlar midori keskin kamayishiga olib keladi. Nitratlar o'simlik a'zolarida turli mikdorda tuplanadi . O'simliklarning turli a'zolaridagi nitratlar mikdori O'simliklar A'zolari N 0 3-mg/kg Osh lavlagi Barg 1300-2000 Ildiz meva 220-3000 Sabzi Barg 600-1500 Bandi 1700-3000 Ildiz meva 10-1200 Petrushka Barg 1300-1900 Bandi 1700-2600 Ildiz meva 1700-5700 Ukrup Barg 40-400 . Bandi 800-1600 Poya 1300-2100 Ildiz 1300-1600 Kartoshka Barg 20-400 Poya 40-1100 Tuganak 40-1000 Sapat Barg 100-550 Bandi 400-900

Poya 600-3000 Shpinat Barg 200-400 Bandi 400-2000 Ildiz 70-100 Poya 500-5000 Shovul Barg 40-150 Bandi 170-250 Koriandr Barg 10-100 Bandi 150-350 Poya 140-300 Ildiz 60-110 Jadvallardan ko‘rinib turibdiki, qovoq va karamda nitratlar miqdori 3000 m g/k g , dukkakdoshlarda 100 mg/kgni tashkil qiladi. Almashlab ekishda beda» burchoq, no‘xat kabi o‘simliklarning qoldiqlari tuproqda nitratlar miqdori kamayishiga sabab bo‘ladi. Bu o‘simliklarning qoldiqlari tuproqga solinganda bu yerlarga 3-4 yil davomida mineral o‘g‘itlar qo‘llashga ehtiyoj qolmaydi. Sabzavot ekinlarini optimal qalinlikda ekilganda ular azotni minimal miqdorda to‘playdilar. Tuproqda namlik miqdori 60-70 foiz bulganida ham nitratlar miqdori o‘simliklarda kam tuplanadi. Bargli sabzavotlarning hosili kechki soatlarda yig‘ilsa ham ular tarkibida nitratlar kam bo‘ladi. Nitratlar miqdori oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashga ham bog‘liq. Sabzavotlar past haroratli binolarda saqlanganda nitratlar hosil bulmasa, uy haroratida saqlansa, ular miqdori keskin ortib ketadi. Nitratlar miqdori oziq moddalarni tayyorlash jarayonida o‘zgarib borishi orasidagi ma’lumotlar keltirilgan. Sabzavot mahsulotlarida nitratlar miqdori kamayishi, foizda (Sokolov, 2000) Mahsulotlar Saqlash vaqtin, 3 oy Pishirishdan oldin Pishgandan keyin Kamayishi foizi Tozalanmagan kartoshka 10-15 32,6 27,2 17 Tozalangan karoshka - 39,0 23,5 40 Sabzi 20-30 34,6 28,6 17 Karam 10-15 57,8 24,3 58 Osh lavlagi 20-30 100.8 80,3 20 Kartoshkani suvda pishirilganda nitratlar 40-89 foiz, bug‘lab pishirilganda 30-70 foiz, qsimlik yog‘ida qovurilganda 15 foizga kamayadi. Vino tayyorlashda o‘zumdagagi nitratlar vinoga o‘tib, uning 1 1 dagi miqdori 1-48 mg ni tashkil qiladi. Bunday vinolar inson uchun zaharli hisoblanadi. Nitratlar tabiatda nitrifikator va denitrifikator mikroorganizmlar tamonidan hosil qilinadi. Ular konserva, kolbasa, pishloq, sosiskalar tayyorlashda ham foydalaniladi. Nitratlarning organizmlardagi miqdorini 10-14 mg/kg dan ortiq asli issis qonli organizmlarda turli o‘sintalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Tabiatda keng tarqalgan nitrozoaminlardan nitrozodimetilamin (NDMA) tuproqda, suvda, o‘simlik va hayvonlar organizmida uzoq va barqaror saqlanadi. NDMA ning eng ko‘p miqdori baliqda 31-33 mg/kg, go‘shtda 37-42 mg/kg, undirib yanchilgan bug‘doyda 560-590 mg/kg ligi aniqlangan. Nitrozoaminlarning ruxsat

etilgan konsentratsiyasi 0,005-0,01 mg/kg hisoblanadi. Ularning miqdori gall ada 0,002 mg/kg, pivoda 0,003 mg/kg, yem-xashak tarkibida 150 mg/kg dan ortmasligi kerak. Bu moddalarning ruxsat etilgan konsentratsiyalari quyidagicha, mg/kg (Pozn ya - kovskiy, 1996): Go'sht va go'sht mahsulotlari-0,002. Dudlangan go'sht mahsulotlari-0,004. Baliq mahsulotlari-0,003. Balla, krupa, non, makoronlar-0,002. Pivo, vino, aroq va boshqalar-0,003. Nitrat birikmalari insonlarda turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, yosh bolalarda metgemoglobinemiya kasalligi tufayli qonda metgemoglobin 6-7 foizdan 20-40 foizga ortishi o'lim bilan yakunlanadi. Organizmda nitratlarning ortishi vitaminlardan A, Ye, S, V, va V6 ning kamayishiga, fiziologik jarayonlarning va modda almashinishing buzilishiga sabab bo'ladi.

### **Nazorat savollari**

- 1. Qishloq xo'jaligida ekologik sof mahsulot yetishtirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?**
- 2. Ekologik toza mahsulotlar yetishtirish texnologiyalari nimalar kiradi?**
- 3. Tuproqda namlik miqdori deganda nimani tushunasiz?**

## **9-MAVZU: QISHLOQ XO'JALIGIDA KIMYOLASHTIRISHNING EKOLOGIK JIHATLARI**

### **REJA**

- 1. Hududlardagi agrokimyoviy bosim qanday aniqlanadi?**
- 2. Agrokimyoviy ifloslanishga moyilligi bo'yicha guruhlashtirish qanday amalga oshiriladi?**
- 3. Sug'oriladigan yerlarga ishlatilgan mineral o'g'itlar miqdori me'yorlari qanday?**

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaliqi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq – ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni

kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish”<sup>3</sup> kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar orasida ekologik toza, raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash o‘zaro bog‘liq masalalardan bulib, aniq me’yor va meztonni talab etadi. Aks holda bir tomonga ko‘proq e’tibor berish boshqa tomonda muammoni keltirib chiqarishi mumkin.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida 20 million gektardan ortiq, shu jumladan, 3,2 million gektar sug‘oriladigan ekin yerlardan foydalanib, aholining ehtiyojlari uchun oziq – ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur hom – ashyo yetishtirilmoqda. Bu yerlarning unumdorligini oshirishda mineral o‘g‘itlardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Biroq, ulardan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida ko‘p miqdordagi nitratlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida yig‘iladi, sizot suvlariga qo‘silib ketadi, tuproqqa birikadi hamda havoga uchib ketadi, bu jarayon ekologik holatni yomonlashtiradi. Yetishtirilayotgan o‘simliklarga mineral o‘g‘itlarni qo‘llash me’yori va muddati o‘simlikning navi, iqlimiylar sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Ishlatilayotgan mineral o‘g‘itlarni differensial taqsimlash uchun ishlab chiqilgan agrokimyoviy xaritalarda (kartogramma) mezonlar (normalar) tuproq va o‘simliklarni ma’lum o‘g‘itga bulgan talabidan kelib chiqib tuzilgani, lekin hududning landshaft – ekologik sharoiti to‘liq hisobga olinmaganligi kuzatiladi. O‘simliklarga mineral o‘g‘itlarni tartibli holatda ishlatilishi, ularni atrof-muhitga yetkazadigan salbiy ta’sirlarga aniqlik kiritish va bu ta’sirlarning eng minimal holatida mo‘ljallangan hosilni olish, barcha hududlar uchun qo‘llash mumkin bulgan hududiy me’yorlarini ishlab chiqishda ekologik-agrokimyoviy rayonlashtirish va haritalashtirish usulidan foydalanish mumkin. Bu rayonlashtirish har bir rayon uchun kimyoviy moddalarning, tabiiy biogeokimyoviy jarayonlarga ta’sir qilmaydigan, salbiy ekologik holatlarni keltirib chiqarmaydigan miqdorini aniqlash imkonini beradi [2,3,7]. Belgilab olingan rayonlarning eng kichik birligi

---

<sup>3</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини уанада ривожлантириш бўйисча Наракатлар стратегиуаси тўғрисида»ги Фармони. 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон. [http://lex.uz/pages/getpage.aspx?act\\_id=3107036](http://lex.uz/pages/getpage.aspx?act_id=3107036)

sifatida ma'lum geografik landshaft turi va uning relefi, tuproq mexanik tarkibi va u yerdagi dehqonchilik turini o'rganish maqsadga muvofiq [4,5].

Landshaftning mezo va mikrorelefi bilan kimyoviy moddalarning migratsiyasi (harakati) o'rtasidagi aloqadorlik dala tadqiqoti sharoitida o'rganilgan. Yuqori dozadagi o'g'itlar va zaharli ximikatlarni ishlatish oqibatida biogeokimyoviy muvozanat kirim foydasiga o'zgaradi va natijada joydagi agrokimyoviy bosim ortadi. Qayirli landshaftlarda azotning to'planishi (akkumulyatsiyasi) kirimga nisbatan 30 foizni tashkil etadi. Shunga ko'ra sarflanayotgan o'g'itlarga yuqori hududlarda joylashgan tuproqlar tarkibidagi o'g'itlarning ham qo'shilib ketishi natijasida qiya bulgan landshaftlarda bu ko'rsatkich taxminan 24 foizni tashkil qiladi. Shu sababdan ham qayir dehqonchiligida azotli o'g'it me'yorini belgilashda agrokimyoviy akkumulyatsiya e'tiborga olinishi muhim bulib hisoblanadi. Buning natijasida ijobiy ekologik holatlar yuzaga keladi. Bu holat mahsulotlar, qayir yerosti va daryo suvlarining nitratlar bilan ifloslanishini oldini oladi.

Namangan viloyati hududining adir oralig'i tekisliklarida geokimyoviy aloqa ikki tomonlama bulib, kimyoviy moddalarning to'planishi qiyalik landshaftlarga nisbatan ikki marta yuqori. Oz eruvchanligiga qaramasdan zaharli ximikatlar, ayniqsa, gerbitsidlarning harakati va to'planishi ham joyning gipsometrik o'rniga bog'liq. Misol uchun, nishabligi  $0,5\text{--}1^0$  bulgan qiyaliklarda gerbitsidlarning yuvilishi deyarli kuzatilmaydi. Lekin nishabligi  $3,5$  gradus bulgan maydonlarda esa gerbitsidlardan foydalanilgandan keyin  $130$  kun o'tgach ularning miqdori pastki hududlarda yuqoridagi hududlarga nisbatan 4 marta, qiyalikning nishabligi  $6^0$ ,  $7$  va  $8 - 8,5^0$  bulgan maydonlarda, mos ravishda,  $9 - 20$  martagacha ortib ketadi.

Namangan viloyatining butun hududi ma'lum qiyalikka ega ekanligini hisobga olinsa, bu ma'lumotlarning qanchalik muhim ekanligi hamda mineral o'g'itlardan foydalanishda bu omilni hisobga olinishi juda katta ahamiyatga ega ekanligini tushunish mumkin.

Hududdagi agrokimyoviy bosimga ta'sir ko'rsatuvchi ikkinchi omil tuproqning mexanik tarkibi hisoblanadi. Mineral o'g'itlarning yuvilib ketishi bo'yicha tuproq turlari qum – qumoq – gil (loyqa) tartibida joylashgan bulib, suv o'tkazuvchanligi katta bulgan qumli tuproqlarda oziqlantiruvchi elementlarning yo'qotilishi yuqori bulganda, aksincha, loylik, changli zarrachalik og'ir mexanik tarkibli tuproqlarga ega bulgan yerlarning nitratlar, og'ir metallar va zaharli ximikatlar qoldig'i bilan yuqori darajada ifloslanishi ko'zatiladi.

Ximikatlar bilan atrof muhitning ifloslanishi va biogen elementlarning yo'qotilishi o'rganilayotgan hududdagi dehqonchilikning ixtisoslashuvi, almashlab ekish va ekin turiga bevosita bog'liq . Oziqlantiruvchi elementlarning ko'p darajada kamayishi sabzavotlarda va ishlov beriluvchi ekinlarda ko'zatiladi. Obikor dehqonchilikda azotni bug'doy ekilgan dalalardan yillik yo'qotilishi 6 kg ga teng bo'lishi mumkin . Shu bilan birgalikda, mineral o'g'itlar yo'qotilishining miqdori ularning sarflanilayotgan hajmining ortishi bilan ham o'sib boradi. Bu holat, ko'pincha, paxta eqiladigan maydonlarda kuzatiladi.

Keltirilgan sifat ko'rsatkichlari yordamida har bir landshaft turini kimyoviy bosimga nisbatan barqarorligini, mustahkamlik darajasini aniqlash mumkin (1-jadval).

### **Namangan viloyati hududining agrokimyoviy ifloslanishga moyilligi bo'yicha guruuhlashtirish**

**1- jadval**

Landshaft nomi	Iflosla-nishga moyilli-gi	Mezorelef shakli, joy qiyaligi, gradus hisobida	Tuproqning mexanik tarkibi	Qo'llanilayotga n almashlab ekish turi
I. Poymali, konus-simon yoyilmalarni quyisi, o'rta qismi	Yuqori	Yassi, qisman qiya-tekislik, nishablik 1-2 <sup>0</sup>	Og'ir qu-moq, gilli	Paxta-beda makkajo'xori (silos)
II. Baland tekislik-lar, konussimon yoyilmalar yuqori qismi.	O'rta	Qiya va qiya-ni-shab tekislik, nishablik 2,5-5 <sup>0</sup>	O'rtacha va yengil qu-moq	Paxta-beda sabzavot-donli ekin
III. Adir va past tog'lar yonbag'irlari	Kuchsiz	Nishab yonbag'ir-lar, nishablik 5 <sup>0</sup> va 7-9 <sup>0</sup>	Yengil qu-moq, shag'al va toshli	Sabzavot-donli ekin, yem-xashak, bog' va o'zumzorlar

*Jadval Bashkin... 1991. Boymirzayev 2007, bo'yicha muallif tomonidan tuzilgan.*

Ushbu ko'rsatkichlarni miqdoriy ko'rsatkichlar bilan o'zaro taqqoslab, olingan natijalar orqali har bir landshaftning agrokimyoviy moddalar bilan ifloslanganlik holatini bilish mumkin bo'ladi. Natijada hududda ekologik-agrokimyoviy rayonlashtirish, landshaftda agrokimyoviy o'g'itlarni ishlatish mumkin bulgan, ekologik nuqtai-nazardan qaraganda eng maqbul bulgan miqdoriy ko'rsatkichni topish imkoniyati yaratiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan jadval asosida bashoratli xarita ishlab chiqiladi, hamda uni ma'muriy xarita bilan solishtirib chiqiladi, har bir xo'jalik sub'ekti yerlari uchun agrokimyoviy o'g'itlarni ekologik jihatdan mos bulgan me'yorlari belgilab chiqilishi mumkin.

Hududlarni mineral o'g'itlar bilan ifloslanish ehtimoli eng yuqori bulgan joylar qayirlar, konussimon yoyilmalarning quyi qismi, adir orti botig'ida joylashgan tekisliklar hisoblanadi. Shu hududlarda ximikatlarning sarflanishi mezonini (kartogrammada) belgilashda yuqoridagi holat bo'yicha ish olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Namangan viloyatida qishloq xo'jaligida bir yilda o'rtacha umumiyligi 47455 kg mineral o'g'itlar sarflanadi. Viloyatdagi sug'oriladigan qishloq ho'jalik yerlarning umumiyligi maydoni 282150 hektarni tashkil etadi. Shunda 1 hektar dehqonchilik qilinadigan yerga o'rtacha 160 kg mineral o'g'it to'g'ri keladi (2-jadval).

**Viloyatning sug'oriladigan yerlariga ishlatilgan mineral o'g'itlar miqdori  
2-jadval**

Nº	Tumanlar	Qishloq xo'jaligi yerlari (hektar)	Azot	Fosfor	Kaliy	Mineral o'g'itlar miqdori jami (kg)	O'rtacha 1 ga yerga to'g'ri keladigan mineral o'g'itlar (kg)
1	Uchqo'rg'on	24186	5441	1174	539	7154	290
2	Uychi	20990	3553	694	306	4553	210
3	Norin	15942	3002	645	242	3889	240

4	Chortoq	19448	1461	208	76	1745	80
5	Yangiqo‘rg‘on	26741	1500	216	55	1771	60
6	Pop	39618	5160	932	241	6333	150
7	Chust	33319	3958	652	169	4779	140
8	Kosonsoy	23624	3252	542	137	3931	160
9	Mingbuloq	37863	4777	1036	388	6201	160
10	Namangan	21439	2960	594	198	3752	170
11	To‘raqo‘rg‘on	18980	2619	512	216	3347	170
<b>Jami:</b>		<b>282150</b>	<b>37683</b>	<b>7205</b>	<b>2567</b>	<b>47455</b>	<b>160</b>

*Jadval Namangan viloyati Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi hamda Namangan viloyati “Agrokimyoximoya” hududiy aksiyadorlik jamiyatni ma'lumotlari asosida tayyorlandi, 2018 yil.*

Ushbu raqamlar tumanlar bo‘yicha farq qilib, aynan mana shu o‘rtadagi farq mineral o‘g‘itlar faqatgana tumanlarning dehqonchilikdagi ixtisoslashuvga qarab taqsimlanib kelayotganligidan dalolat beradi. Viloyatning past tog‘lar, tog‘oldi adir hududlarida joylashgan Chortoq, Yangiqo‘rg‘on, Chust, Pop tumanlariga mineral o‘g‘itlar kam ajratilishi, intensiv dehqonchilik hududlari hisoblangan daryo qayirlari, konussimon yoyilmalarning quyi qismlarida joylashgan Uchqo‘rg‘on, Uychi, Norin kabi tumanlarda bu ko‘rsatkich viloyat ko‘rsatkichidan yuqori ekanligi ko‘zatiladi. Yuqoridagi agrokimyoviy rayonlashtirish mezoni bo‘yicha baholansa bu landshaftlarda azotning to‘planishi (akkumulyatsiyasi) kirimga nisbatan 30 foizni tashkil etadi, bunga yuqori hududlardan kelib qo‘shilayotgan o‘g‘itlar hisobiga agrokimyoviy ifloslanish havfi yanada yuqorilashadi. Shuning uchun ham agrokimyoviy moddalarni hududiy taqsimotida faqatgina tuproq va o‘simliklarni kimyoviy moddalarga bulgan talabidan tashqari, joyning landshaft – ekologik holatini ham e’tiborga olish kutilgan ijobiy samarani beradi.

### **Nazorat savollari**

- 1. Hududlardagi agrokimyoviy bosim to‘g‘risida nimalarni bilasiz?**
- 2. Agrokimyoviy ifloslanishga moyilligi bo‘yicha guruylashtirishda qanday usullardan foydalilanildi?**
- 3. Sug‘oriladigan yerlariga ishlataligan mineral o‘g‘itlar miqdori qanday aniqlanadi?**

## **10-MAVZU: TUPROQLARNING IFLOSLANISHI VA MUHOFAZASI**

### **REJA**

- 1. Tuproq eroziyasi**
- 2. Tuproqlarda pestitsidlardan foydalanish**
- 3. Tuproqning sho‘rlanishi**

Tuproq muhim sanitariya - gigiena va tibbiy ahamiyatga ham ega. U kasallik tarqatadigan juda ko‘plab mikroorganizmlarning hayot muhitidir. Ma’lumki, ayrim infektion va parazit organizmlar ma’lum bir hudud bilan bog‘liq. Bu joylar kasallik qo‘zgatuvchi mikroorganizmlar uchun qulay tabiiy va ayrim hollarda kasallik o‘chog‘idir. Nihoyat, Yer kurrasining tuproq qoplami, avvalo, uning mikrodunyosi, tabiatdagi iflos moddalarni biologik yo‘l bilan o‘ziga singdiruvchi (adsorbent), tozalovchi nurifikator va neytralizatsiya qiluvchi, quruqlikdagi har qanday organik moddalar qoldiqrini minerallashtiruvchi muhitdir. Shunday qilib, tuproqning biologik o‘zini-o‘zi tozalash xususiyati yer yuzidagi moddalar aylanib yurishidek ajoyib universal jarayonning muhim elementidir. Tuproq quruqlik yuzasining qariyb hammasini (hozirgi mo‘zliklar doimiy qorlar, qumli maydonlar, qoyalar, toshli sochilmalar, shag‘altoshli va qumli plyajlar, vulqon, kollar ishgol qolgan joylardan tashqari) qoplab yotadi. Lekin turli chuqindi jinslar, mo‘zliklar va doimiy qorlar bilan ko‘milib qolgan qazilma tuproqdar ham bor. Planetamizning tuproq resurslari maydon jixatidan ham, sifatiga ko‘ra ham cheklangan. Quruqlikning salkam 70 foiz maydoni yo issiq yoki namlik yetishmasligi sababli dehqonchilik uchun ancha noqulay, tuproqdar holatini yaxshilash, turli xil melioratsiya tadbirlarini talab qiladi. Hozirgi vaqtda planetamiz bo‘yicha dehqonchilikda foydalaniladigan yerlar maydoni 1450 mln. ga bulib, butun quruqlikning 10 foizini tashkil etadi. O‘tloq va yaylov yerlar 2600 mln. ga, ya’ni quruqlikning 17 foizini ishg‘ol qiladi. Shunday qilib, quruqlikning qishloq xo‘jaligida o‘zlashtirilgan jami maydoni 27-28 foiz, mahsuldor va foydalaniladigan o‘rmonlar maydoni esa salkam 60 foizga yetadi. Dunyoda foydalanilayotgan yerlar jon boshiga salkam 0,5 ga dan to‘g‘ri keladi. Planetamiz

yer fondining 40,3 mln. km<sup>2</sup> ini o‘rmon va daraxtzorlar tashkil qiladi, 28,5 mln. km<sup>2</sup> - tabiiy o‘tloqzor, o‘tloq-butazorlar, ekin maydonlari - 19,0, quruq cho‘l, dasht, qirlar, dengiz qirg‘oqlari - 18,2, muzliklar - 16,3, tundra, o‘rmon tundrasи - 7,0 qutb va yuqori tog‘ cho‘llari - 5,0, antropogen buzilgan joylar - 4,5, sanoat va shaharlarga mo‘ljallangan yerlar - 3,0 mln. km<sup>2</sup> ga teng. Planetada yiliga 200 mm dan kam namlik tushadigan quruq maydonlar 36 foizni, sobiq Ittifoqda esa 11 foizni tashkil qilgan. Bunday quruq qumli yerlarga Qizilqum, Qoraqum, Takla - Makon, Alashgan kabi katta maydonlar kiradi. Saxroi Kabir maydoni 9,1 mln. km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Hozirgi vaqtida quruq iqlimdagи yerlarni sug‘orish, botqoqlarni quritish, yerlarni butalardan va o‘rmonlardan tozalash hamda haydash hisobiga bu mikdorni ancha oshirish imkoniyati mavjud. Lekin, bu jarayonda qurilish va muhandislik inshootlari maydoni tobora ortib borayotganligini ham hisobga olish lozim. Bundan tashqari, quruqlik yuzasining hamma joyini ham deqonchilikda foydalanib bulmaydi. FAO bergan ma’lumotga ko‘ra dunyoning yer fondi 13.4 mlrd. gektarga teng. Shundan haydalagan yerlar va plantatsiyalar maydoni taxminan 1,5 mlrd. ga (yoki 11%), o‘tloqzorlar - 3,2 mlrd. ga (24%), o‘rmon va butazorlar - 4,07 mlrd. ga (31%), qumliklar, toshloq yerlar - 4,4 mlrd. ga (34%). Yuksak rivojlangan va aholisi zinch joylashgan Ovrupada haydalagan yerlar maydoni 30 foizni tashkil etadi. Janubiy Amerikada yerning Ko‘p qismini o‘rmon va butazorlar ishg‘ol qilgan - 929 mln. ga (53%), Avstraliyada esa o‘tloqzorlar - 460 mln. ga ni (55%). Afrikada qumlik va toshloqlar - 1316 mln. ga (45%) ni egallagan. Inson faoliyati ta’sirida planetadagi yer fondi yiliga taxminan 8 mlrd. gektarga kamayib bormoqda. Shundan yerlar qishloq xo‘jaligiga yaroqsiz holga kelmoqda. Dunyo bo‘yicha 1961-1983 yillar ichida har bir odam uchun haydaladigan yer maydoni 0,45 dan 0,31 gektarga kamaygan. Rossiya bo‘yicha 1989 yil oxirida yer fondi 2231 mln. gektarni tashkil qilgan, shuningdeq kishloq xo‘jaligiga ajratilgan yerlar maydoni 603 mln. gektarni (yoki 23 foizni), o‘rmonzorlar - 33 foizni, qolgan yerlar 40 foizni tashkil kilgan.

Qishloq xuо‘jalik yerlarining 226 mln. gektari haydaladigan (10%) yerlar, utlokzorlar esa 335 mln. ga (15%) ni tashkil etgan. Qishloq xo‘jaligi uchun

yaroqsiz yerlarning 70 foizi, haydalgan yerlarni 60 foizi adir zonalarda joylashgan. 1990 yilda Rossianing kishloq xo‘jalik yerlari 222 mln. ga bulib, shundan 132 mln. getktari (yoki dunyo bo‘yicha 8%) haydaladigan yerlar bulgan. Dasht – o‘rmon zonalari asosan o‘tloqzorlar bulib, maydoni 65 mln. ga edi. Shimoliy yarim shar o‘rmonzorlari 770 ming gettar (yoki 45%), eroziyaga uchragan yerlar maydoni 82 mln. ga (37%) ni tashkil qilgan. O‘zbekistonning umumiy yer fondi 47,5 mln. ga ni tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar taxminan 25 mln. ga bulib, uning 2,8 mln. gettarini (9,7%) sug‘oriladigan yerlar tashkil etadi. 1,1 mln. ga (2,7%) lalmi dehqonchilikda, 21,5 mln. ga yaylov chorvachiligida (51,8%), 1,8 mln. ga (4,4%) sanoatda va turli kurilish massadlarida foydalaniladi.

Tuproq qatlamining (ba’zan tuproq ona jinsining) suv okimi va shamollar ta’siri bilan xilma-xil yemirilish jarayoni hamda yemirilgan materiallarni bir joydan boshqa joyga olib ketilishiga tuproq eroziysi deyiladi. Tuproq eroziysi suv va shamol eroziyasiga bulinadi. Eroziya jarayonlari hosil qiluvchi sabablarga, intensivlikka va oqibatlarga ko‘ra normal yoki tabiiy, tezlashtirilgan yoki antropogen eroziyaga bulinadi. Normal eroziya. Bu tabiiy o‘simgiliklar bilan hisoplangan, inson xo‘jalik faoliyati ta’sir etmagan rayonlardagi to‘xtovsiz, hamma joyda kuzatiladigan va juda sekin ro‘y beradigan tabiiy jarayon bulib, bunday eroziya natijasida yuvilib ketgan tuproq tuproq hosil bo‘lish jarayonida to‘la tiklanadi. Binobarin, eroziyaning bu turi jiddiy zarar keltirmaydi va uning natijasida tuproq qatlamining tabiiy muvozanati tiklanib turadi. Tezlashtirgan eroziya tuproqlarni va tog‘jinslarini yemiruvchi jarayon bulib, u insonning ishlab chiqarish faoliyati natijasida tezlashadi. Tezlashtirgan eroziya notekis relefli yoki mexanik tarkibiga ko‘ra, soz qumoq qumloq tuproqli va o‘ziga xos iqlim hamda geologik sharoitli rayonlarda ro‘y beradi. U ko‘pgina tabiiy sharoit xususiyatlari hisobga olinmasdan va eroziyaga qarshi chora-tadbirlar qo‘llanmasdan foydalanilgan yerlarda rivojlanadi. Tezlashgan eroziyada tuproqlar tabiiy eroziyaga qaraganda juda tez va shiddatli yemiriladi. Natijada tuproqning ustki unumdar qatlami ancha tez yuvilib ketadi. Tezlashtirilgan, ya’ni antropogen eroziyaning bir

qancha sabablari bor. Bu eroziya asosan insonning tuproq resurslaridan noto‘g‘ri foydalanishning oqibati bulib, uning asosiy sabablari o‘rmonlarni kesib yuborish, yaylovlarda chorva mollarini boqish qoidalariga amal qilmasliq dehqonchilik yuritishning noto‘g‘ri usullaridan foydalanish oqibatida yuzaga keladi. Suv eroziyasi oqim harakteriga ko‘ra, tuproqning yuza eroziyasi va o‘zanli eroziyaga bulinadi. Yuza eroziyada o‘zan hosil qilmaydi, tuproqning yuza qatlamin asta - sekin yoppasiga (yuza buylab) yuvib ketadi. Qiyaligi katta bulgan yerlarda sodir bo‘ladigan o‘zanli eroziya ko‘pincha jarlar hosil qiladi. Suv o‘zan hosil qilib okyanda tuproq kesimining yuqori qatlamlaridagina emas, balki uning tagidagi tog‘jinslarini ham o‘yib ketadi. O‘zanli oqim chuqurligi o‘nlab metr bulgan jarlarning hosil bo‘lishiga olib keladi. Sug‘oriladigan rayonlarda keyingi vaqtarda irrigatsiya keng rivojlanmoqda. Buning natijasida irrigatsiya eroziyasi yuzaga keladi. U yerlarni notug‘ri sug‘orish va dalalarga suvni ko‘p hamda katta oqim bilan berish natijasida hosil bo‘ladi. Bu eroziya yerlarning qiyaligi  $1,5 - 2^{\circ}$  ga yetganda paydo bula boshlaydi. Qiyalik ortib borgan sari tuproqning irrigatsiya eroziyasi kuchayadi. Shamol eroziyasi deb tuproq to‘plami va uning mayda

quruq zarrachalarini shamol uchirib ketishiga aytildi. Masalan, 1928 yili aprel oyining oxirlarida Rossiyaning janubida va Ukrainianing kuchli chang buroni oqibatida 15 mln.t.dan ortiq tuproq havoga ko‘tarilgan va Polsha hamda Ruminiya hududiga borib tushgan. 1960 yili Ukraina va Shimoliy Kavkazda ko‘tarilgan chang buron tuproqning 7-10 sm qalinligidagi qatlamni uchirib ketgan. Ana shu tuproq zarralari dala xato o‘rmonzorlari va boshqa to‘siqlar yonida balandligi 2 m va eni 50 m keladigan uyumlarni hosil qilgan. O‘rta Osiyoda shamol eroziyasi qumli yerlarda, yer yuzasidagi tabiiy o‘simplik to‘plamiga putur yetgan joylarda ro‘y beradi. Chunonchi, saksovul va boshqa butalar kesib yuborilgan joylarda - qumli yerlarda, yer kavlaganda, dagal xashaklar (yantoq, sho‘ra) ketmon yordamida chopib olinganda va boshqa xollarda paydo bo‘ladi. O‘rta Osiyoning ancha kuchli shamollari doimiy esib turadigan ba’zi bir rayonlarida, asosan Xovos va Angor, Yangiyer atroflarida ham shamol eroziyasi kuzatiladi. Bu yerlarda doimiy shamol eroziyasi oqibatida ekinlar uchun ham yaroqli bulgan chagir toshli,

shag‘alli zamin ochilib kalgan. A.G. Gael hisobiga ko‘ra, shamol eroziyasidan har yili o‘rta hisobda 5-6 mln. ga yer zarar keltiradi, jumladan, 0,5 mln. hektar dan 1,5 mln. gektargacha bulgan yerlar umuman nobud bo‘ladi. Shunday qilib, tuproq eroziyasi tuproqning yuza, eng hosildor qatlaming yopib, sel va boshqa suv oqimlari bilan yuvilib ketishi yoki shamol kuchi bilan bir joydan ikkinchi joyga uchirib ketishi jarayonidir. Buning natijasida tuproqning eng hosildor qatlami yo‘qoladi. Tuproq eroziyasi juda sekin o‘tadigan jarayondir. Masalan, o‘rmon atroflari tuprog‘ining 20 sm qalinlikdagi yuzasini yo‘qolishi 174 ming yil ichida, o‘tloqzorlarda - 29 ming yil ichidi yuzaga keladi. Almashlab eqiladigan yerkarning 20 sm. li yuza qatlami 100 yil, faqat jo‘xori monokulturasi ekilgan yerda esa 15 yilda 20 sm. li yuza qatlam tabiiy xolda yuqoladi. Tuproq eroziyasi tufayli planetaning xo‘jalik hisobidagi 1,6-2,0 mln. km<sup>2</sup>, hosildor yerkarning 1,4-1,6 mln. km<sup>2</sup> qisman buzilgan, unumdonligini yo‘qotgan. Har yili eroziya tufayli 50 - 70 ming km<sup>2</sup> yer qishloq xo‘jalik hisobidan chiqib ketadi. Bu foydalaniladigan yerkarning yiliga 3 foizi demakdir. Dunyoning turli mamlakatlarida haydalgan yer yuzasining eroziyaga uchraganini baholash keltirilgan. Hosildor yerlar va o‘tloqzor maydonining kamayishida shamolning ta’siri kuchli. Katta kuchga ega bulgan shamol yer betidagi hosildor qatlarni, chullarda qum-shagallarni bir joydan ikkinchi joyga uchirib ketadi. Masalan, 1990 yilgi kosmik suratlar ko‘rsatishicha, Orolning qurib qolgan joylarida 90 mln. t. chang, tuz, qumni uchirib ketgan.

Rossiyaning janubiy rayonlarida bunday kuchli shamollar (30-40 m/s) 1928, 1960, 1969, 1994 yillarda kuzatilgan. Jumladan, Rostov-Don shaxri meteostansiyasining axborotiga kura baxorda shamolli kunlar 15, yozda - 68, ko‘zda - 16, qishda - 1 foizni tashkil qiladi. Shimoliy Kavkaz va pastki Don rayonlarida shamolning tezligi 25-40 m/sek. ga yetib, to‘plangan qumlardan hosil bulgan barxanlarning uzunligi 25-50 m, balandligi 0,5-2,0 m ga yetib, uchirilgan chang-qumlarning massasi 50 mln. t. ni tashkil qilgan. Haydalgan yerkarning 2-5 sm yuza qatlami, Stavropolda - 6-8 sm qalinlikdagi tuproqning hosildor qatlami uchirilib, 600-646 ming hektar ekin maydonlariga ziyon yetgan. Insonning bir necha yillar davomida tinimsiz yerdan foydalanishi natijasida, Volga bo‘yi,

Ukraina, Qozog'iston va Turkmaniston unumdon ekin maydonlari ishdan chiqdi. Yerning 0-30 sm qalinligida gumus miqdori 7-10-13 foiz yoki gektariga 2210-390 t. ga kamaygan. Og'ir texnikani doimiy ishlatish esa tuproqning fizik tuzilishi buzilishiga, uning g'ovakligi, zarrachaligi yuqolishiga, havo-suv almashinishi va tutishi yomonlashishiga olib keldi. Shu sabablarga ko'ra ekin maydonlarining hosili keskin kamayib ketdi. Atrofi daraxtzorlar bilan o'ralgan ekin maydonlariga shamolning ta'siri kam bulib, unday yerlar shamol eroziyasidan qisman sakdangan. Dunyo bo'yicha haydalgan yerlardan tiklanmaydigan tuproqning hosil bo'lish mikdori 23 mlrd. t. ni tashkil qiladi. Bu narsa Hindiston va Xitoyda sezilarli darajada bulib, AQSh da har gektar haydalgan yerdan 25-41 t, Grouziyada - 55-56 t/ga, Moldovada - 39-40, Volga bo'yi rayonlarida - 1,7-2,5, Kavkaz orti yerlarida - 25-26 t/ga atrofida tuproq eroziya sababli yo'qoldi. Turli mamlakatlarda haydalgan yer yuzasining eroziyaga uchrashi (L. Braun va boiц. 1989) Mamlakatlar haydalgan yerlarning umumiyl maydoni, mln. ark tklab bulmaydigan tuproq mln. t. AQSh 413500 Rossiya 620300 Xindiston 346700 Xitoy 245300 Boshqa mamlakatlar 1499900 Jami: 3 123700 Rossiyada oxirgi 15 yil ichida tuproq eroziyasi tufayli qishloq xo'jaligida 54-55 mln. gektar hosildor yerlar yo'qotilgan. Turli katta-kichiklikdagi jarliklar 10 mln. gektarni tashkil qilgan. Eroziya tufayli qishloq xo'jalik ekinlaridan olinadigan hosil 36 foizga kamayib ketgan. AQSh da eroziyaga uchragan yerlarda jo'xorining hosil i 47 foizga, paxta hosili 32, no'xat hosili esa 38 foizga kamaygan. Eroziya tufayli tuproqning yuza qatlamida gumusning miqdori ham keskin kamayib ketadi. Jumladan, keyingi 15-20 yil ichida sobiq Ittifoqning haydalgan yerlarida gumus miqdori 8-30 foiz, Rossiyada o'rtacha — 20 foiz, Ukraina yerlarida - 9 foiz kamaygan. Turli tuproqlarda gumus miqdori 14 foizdan 50 foizgacha pasaygan, hosildor tuproq yuvilib ketgan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tabiatdan unumli foydalanishning asosiy vazifalaridan biri - tuproq eroziyasiga qarshi chora-tadbirlar ko'rishni agromelioratsiya, o'rmonmelioratsiya, agrotexnika, fitomelioratsiya, melioratsiya, rekultivatsiya kabi yo'llar bilan amalga oshirish zarur. Eroziyaga qarshi kurash kompleks tarzda olib boriladi. Bunday yerlardan

foydalinishda almashlab ekish ixota o'rmonzorlari barpo qilinadi. Bunday daraxtazorlar oralig'idagi ekinzorlarni shamol eroziyasidan, ekinlarni esa tuproq bosib qolishidan himoya qiladi. Agrotexnika tadbirlaridan tuproqni ag'darmasdan chuqur haydash, ya'ni qoldiqlarni ag'darmasdan haydash, organik o'g'itlar solish, bir yillik va ko'p yillik o'tlarni almashlab ekish va boshqalar eroziyaga qarshi kurashda yaxshi samara beradi.

Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini va mahsulot sifatini o'g'itlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun xo'jaliklarda foydalanilayotgan o'g'itlar miqdori yildan-yilga ortib bormoqda. Respublikamizda 1990 yilda 120 mln. tonna mineral o'g'itlar ishlatilgan. O'g'itlarni qo'llashda uning me'yoriga e'tibor berish muhim agrotexnik tadbirlardan biri hisoblanadi. Ulardan ortiqcha foydalinish mahsulot sifati kamayishiga va tuproq strukturasi yomonlashishiga sabab bo'ladi. Masalan, fosforli o'g'itlardan ko'p foydalinish tuproqda fosforning ko'payishiga sabab bo'ladi. Natijada, tuproqdagagi oziq moddalar nisbati buzilib, o'simliklarning temir, rux moddalarini o'zlashtirishini pasaytiradi. O'simlikda xloroz kasalligi vujudga keladi, hosildorligi keskin kamayadi. Tuproqning mineral o'g'itlar tarkibidagi azot bilan zararlanishi natijasida yer osti suvlari tarkibida nitrat miqdori kamayib ketadi. O'simlik tarkibidagi nitrat tuzlari me'yoridan ortiq bo'lsa, inson salomatligiga zarar keltiradi. Ba'zi bir gerbitsidlar tuproqda mustahkam o'rnashib, tobora ko'proq to'plana bordi. Bu esa mikroorganizmlarning tuproq hosil qilishdagi foydali faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham ko'pgina zaharli kimyoviy moddalardan foydalinish hozirgi vaqtida taqilangan. Respublikamiz fermer xo'jaliklarida hasharotlar, kasalliklar va begona o'tlarga qarshi sistemali ta'sir etish xususiyatiga ega bulgan 4 mln. tonnadan ortiq fungitsid, pestitsid, gerbitsidlardan foydalanilgan. Bu zararli moddalar ortiqcha ishlatilishi tuproqdagagi fauna va flora vakillariga, insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday zararli moddalar organizmda to'planib borib tabiatdagi ozuqa bakteriyalari orqali beosferaga ta'sir qiladi. Zararli hasharot va kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlarga qarshi biologik kurash choralarini ko'llash tabiatni muhofaza qilishda muhim bosqich hisoblanadi. Ro'zada uchraydigan vilt (oq kapalak)

kasalligiga qarshi trexoderma, gommos kasalligiga qarshi subtilis bakteriya-' sini qo'llash natijasida tuproqdagi patogen turdag'i zamburug'larning kamayishiga, ekinlar hosildorligini ortirishga erishilgan. Qishloq xo'jalik ekinlarida uchraydigan hasharotlarga qarshi biologik kurash usullarida oltinko'z xabrobrakon, trixogramma kabi foydali hasharotlar qo'llanilmokda. Bu tadbirlar ekologik so'z oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish imkonini beradi va tabiatni muhrfaza qilishga xizmat qiladi. Bu usul iqtisodiy jihatdan arzon, tabiat uchun bexavotirdir.

Respublikamizning issiq iqlim sharoitida yer osti suvlarining tuproqlarda tez bug'lanishi uning sho'rланishiga sabab bo'ladi. Natijada yer osti suvlari tarkibida mavjud bulgan sulfat va xlorid kislotasining tuzlari tuproq yuzasida to'planishi, sho'rланishga sabab bo'ladi. Vegetatsiya davrida bu tuzlar suvda erib, o'simlikning zararlanishiga olib keladi. Sho'rangan tuproqlar Mirzacho'l, Jizzax, Karshi, Sherobod cho'llarida tashkil qilingan fermer xo'jaliklarida ko'p uchraydi. Ayniqsa, qayta sho'rланish drenaj tizimi buzilgan dalalarda qishloq xo'jalik o'simliklariga katta zarar yetkazadi. Suvdag'i erigan xlorid tuzlari tuproq eritmasining osmatik bosimini ko'taradi va shunday qilib, tuproqning fiziologik quruqligini vujudga keltiradi. Bu hodisaning mohiyati shundaki, o'simliklar tuproqda nam yetishmaganda suvdan kanday qiynalsa, tuproqda tuzlar ko'p bulganda suv tanqisligidan shunday qiynaladi. Markaziy Osiyoda yer resurslaridan to'g'ri foydalanish va ko'pgina tadbirlarni rejalashtirish maqsadida respublikalarda yer kadastri tuzilgan. Bunda turli yerlarning tabiiy, iqtisodiy va huquqiy holatlari to'g'risida zarur ma'lumotlar beriladi. Respublikamiz sharoitida tuproqning sho'r bosishiga qarshi almashlab ekishga amal qilish, cho'l sharoitiga moslashgan o'simliklarni yetishtirish va yer osti suvlarini o'tkazib yuborish uchun gorizontal va vertikal drenajlar ko'rilmogda.

### Nazorat savollari

- 1. Tuproq eroziyasi nima?**
- 2. Tuproqlarda pestitsidlardan foydalanishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?**
- 3. Tuproqning sho'rланishi natijasi qanday salbiy oqibatlarga olib keladi?**

# **11-MAVZU: YER RESURSLARINING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH**

## **REJA**

- 1. Meliorativ holat tushunchasi**
- 2. Yer resrslaridan foydalanish jarayonida o‘ziga hos bulgan geoekologik muammolar**
- 3. Yer osti sizot suvlarini sathini me’yorida ushslash**

Kishilik jamiyatida ishlab chiqarish nuqtai-nazaridan baholaganda tuproqdan ahamiyatliroq bulgan tabiat komponentini topish qiyin. Tuproq o‘ziga xos tabiat mahsuli bulib, u hosildorlik xususiyatiga ega, V.V.Dokuchayev ta’biri bilan aytganda tuproq-ko‘mirdan ham, neftdan ham, xatto oltindan ham qimmatliroqdir. O‘rta Osiyoning quruq iqlim sharoitida tuproqdan sug‘orib foydalanganda uning qiymati yana bir necha barobar ortadi. Agar ekologik-geografik jihatidan tuproqning meliorativ holatini saqlashga to‘g‘ri munosabat shakllantirilsa, unday vohalardan Misr (Nil vohasi), Xitoy (Buyuk Xitoy tekisligi), Xorazm (Ikki daryo oralig‘i), Hindiston (Xind-Gang pasttekisligi) kabi ming yillar davomida samarili foydalanish mumkin bo‘ladi. Aksincha, joyning ekologik-geografik xususiyatlari e’tiborgan olinmay amalga oshirilgan melioratsiya Bobil (Vavilon) fojiyasi kabi ayanchli yakun topishi mumkin. Bunda nafaqat tuproq degradatsiyasi (sho‘rlashuvi,oriqlashi) balki o‘sha yerda yashovchi aholining ham inqirozi yuz berishi mumkin. Shuning uchun ham sug‘oriladigan hududlarda tuproqlarning meliorativ holatini bir xilda saqlab turish, turli antropogen omillar ta’sirida uning holatini salbiy tomonlarga o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun joyning ekologik-geografik xususiyatlarini har tomonlama puxta o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Qadimdan sug‘orilib kelgan, unimdon tuproqlarga ega maskanlardan biri Farg‘ona vodiysi, jumladan Namangan viloyatidir. Bugungi kunda Namangan viloyatida sug‘oriladigan ekin maydoni 282759 getarni tashkil etib, bu maydonlarni meliorativ holati doimiy nazorat qilib boriladi. Viloyatda sug‘orish tizimini to‘g‘ri tashkil etish uchun 6 ta meliorativ tizimlar tashkil etilgan. Bular

Mingbuloq tumanida “Qoraqalpoq” meliorativ tizimi, Kosonsov, Turaqo‘rg‘on va Chust tumanlarini ichiga oluvchi “Kosonsov-Sirdaryo” meliorativ tizimi, Pop tumanida “Qoraqalpoq-Sirdaryo” meliorativ tizimi, Norin va Uchqo‘rg‘on tumanlarini ichiga oluvchi “Qoradaryo” meliorativ tizimi, Chortoq va Yangiqo‘rg‘on tumanlarini ichiga oluvchi “Namangansoy-Chortoqsoy” meliorativ tizimi hamda Namangan shahri, Namangan tumani va Uychi tumanlarini ichiga oluvchi “Norin-Sirdaryo” meliorativ tizimlar tashkil etadi.

Yer ressrlaridan foydalanish jarayonida o‘ziga hos bulgan geoekologik muammolar kela boshlaydi. Ana shunday muammolardan biri sug‘oriladigan tuproqlarning sho‘rlanishidir. Bu jarayon gurunt suvlarining xududiy ko‘tarilishi natijasida yuzaga keladi. Ma’lumki tuproq sho‘rlanishi hududning relyefi, nishablilik (qiyalik) darajasiga, tuproq hosil qiluvchi jinslar, tuproq turi va iqlim ko‘rsatkichlariga bog‘liqdir. Shuning uchun ham sho‘rlanish jarayonini tadqiq etishni viloyat landshaftlarini o‘rganishdan boshlagan to‘g‘ri bo‘ladi. Viloyatda landshaftshunoslar ma’lumotlariga ko‘ra beshta landshaft turi ajratiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, viloyatdagi asosiy sho‘rlangan tuproqlar yassi allyuvial tekislik landshaftlari hududida tarqalgan. Bu tuproqlar Mingbuloq, Chust va Pop tumanlarda joylashgan. Kimyoviy labaratoriya tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki tuproqlarining sho‘rlanishi asosan sulfatli tipdir.

O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab Shimoliy Farg‘ona adirlarini ham o‘zlashishga kirishildi. Adirlarda ko‘p suv talab etadigan qishloq xo‘jalik ekinlarining eqilishi sug‘orma erroziya, suffoziya, jarlanish hamda quyi qismlarida va adir orti tekisliklarida gurunt suvlarini hududiy ko‘tarilishi kabi ekologik muammolarni yuzaga kelishiga sabab buldi. Bu o‘z navbatida mazkur landshaftlarda ham tuproq sho‘rlanishini keltirib chiqaradi.

### Namangan viloyati landshaftlari tavsifi

#### 1-jadval

Landshaft turlari	Landshaft ko‘rsatkichlari			Iqlim ko‘rsatkichlari		
	Balandlik, dengiz satxidan, m.	Tuproq hosil qiluvchi jinslar	Tuproq turi	$\sum_{t+ > 10^0} C$	Kontinentallik, K (Shas)	Yillik yog‘in, mm.

	<b>hisobida</b>				<b>hko D.I)</b>		
Yassi allyuvial tekisliklar	350 - 500	Allyuvial-prolyuvial qumloq, qum va qumoq qatlam	O‘tloqi voha, buz-voha, och tusli buz	4450 - 4550	220	130-180	0,08-0,10
Adir oldi baland tekisliklari	450 - 700	Prolyuvial-allyuvial, donador yotqiziqlar	Buz-voha, och tusli buz	4300-4500	220 - 218	180-240	0,10-0,14
Adirlar	900 – 1200	Prolyuvial-delyuvial,tosh-shag‘alli yotqiziqlar	Tipik va to‘q tusli buz	3800 - 4500	216-214	250-440	0,16-020
Adir orti va adir oralig‘i tekisliklari	500-700 750-900	Og‘ir qumoq va gilli allyuvial-prolyuvial yotqiziqlar	Buz voha, sug‘orila -digan o‘tloqi	4280 - 4450	218 - 216	200-250	0,14-0,16
Tog‘liklar	1300-2200	Prolyuvial-delyuvial, tosh-shag‘alli yotqiziqlar	Tipik va to‘q tusli buz	3600 - 4300	214-216	450-500	0.18-0.24

*Jadval: Abdulkasimov.,1983; Babushkin L.N., Kogay I.A., Zakirov Sh.S. 1985.Boymirzaev., 2007. ma'lumotlari asosida to‘zildi.*

Namangan viloyatining shimoliy qismini Qurama va Chotqol tog‘ tizmalari egallagan bulib, ulardan oqib tushuvchi daryolarning umumiy havza maydoni  $16900 \text{ km}^2$  ni tashkil qiladi. Bu havza 768 ta daryolarni mavjud. Daryolar to‘rining zichligi  $0.56 \text{ km}/\text{km}^2$  tashkil qiladi. Ulardan 10 km gacha uzunlikdagi daryolar soni 4931 ta, 10 km dan uzun daryolar soni 86 tadan iborat va 10 km dan uzun daryolarning umumiy uzunligi, 2248 km dan iborat [2; 30-b.].

Namangan viloyatining yerlari Kurama va Chotqol tizmalarining janubiy qiyaliklaridan kelayotgan soy suvlaridan sug‘oriladi. Qishloq xo‘jalik ekinlari uchun zararli bulgan tuzlar barcha viloyatlar singari, bizning viloyatimizda ham uchraydi. Viloyatdagi 282759 hektar sug‘oriladigan maydonlardan doimiy tuproq namunasi olindi va tahlil qilib borilgan unga ko‘ra viloyat bo‘yicha 18444 hektar kuchsiz sho‘rlangan maydon, 5144 hektar maydon o‘rtacha sho‘rlangan, 755 hektar kuchli sho‘rlangan tuproqlar aniqlangan[5.]. Jami viloyatda **23333,8** hektardan ko‘proq turli darajada sho‘rlangan maydonlar aniqlangan (2-jadval)

**Namangan viloyati sug‘oriladigan maydonlarini sho‘rlanish holati**  
**2-jadval**

<b>№</b>	<b>Tumanlar</b>	<b>Jami sug‘oriladigan maydon</b>	<b>Jami sho‘rlashgan maydon</b>
1	Mingbuloq	37502,0	15127,0
2	Kosonsoy	25078,0	239,0
3	Namangan	21736,0	66,6
4	Norin	15929,0	0,0
5	Pop	39510,0	7747,0
6	To‘raqo‘rg‘on	18900,0	275,0
7	Uychi	20704,0	61,2
8	Uchqo‘rg‘on	24110,0	0,0
9	Chortoq	19377,0	173,9
10	Chust	33320,0	410,1
11	Yangiqo‘rg‘on	26593,0	134,0
	<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>282759,0</b>	<b>23333,8</b>

Jadval: Namangan viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasining melioratsiya-ekspeditsiya bulimi ma’lumotlari asosida to‘zilgan.

Sho‘r yuvish bo‘yicha asosan Mingbuloq, Pop va To‘raqo‘rg‘on tumanlarini Sirdaryoning chap qirg‘og‘idagi fermer xo‘jalik yerlarida sho‘r yuvishni talab etadi. Sho‘r yuvilgan maydonlarning tuproq mexanik tarkibi va kolletor bilan ta’minlanganligini hisobga olgan holda quyidagi sho‘r yuvish miqdori belgilangan.

Sho‘r yuvish zarur bulgan maydonlari asosan o‘rtalama va yengil mexanik tarkibli ekanligini hisobga olib kuyidagi suv normasi belgilangan ;

- kuchsiz sho‘rlangan maydonlar - 2500 m<sup>3</sup>/ga
- o‘rtacha sho‘rlangan maydonlar - 4500 m<sup>3</sup>/ga
- kuchli sho‘rlangan maydonlar - 6000 m<sup>3</sup>/ga

Metodik ko‘rsatmalarga binoan kuchsiz sho‘rlangan maydonlar bir marta o‘rtacha sho‘rlangan maydonlar ikki marta, kuchli sho‘rlangan maydonlar uch marta yuvish tavsiya etiladi.

Sho‘r yuvish ishlarni nazorat qilish tashkil etiladi va tekshiruvlar mobaynida yarlarni tekkislash va pol olish ishlariga alohida e’tibor beriladi. Chunki sho‘r yuvishda yerni tekkisligi va cheklarni o‘lchovi katta ahamiyatga egadir. Bundan tashkari maydonlarga berilgan suvi to‘la singib tuproq tarkibidagi tuzlarni eritib o‘zi bilan birga zakan-zovurlarga oqib chiqib ketishiga erishish maqsadida

tashlamalarga yo‘l qo‘ymaslikka katta e’tibor qaratish lozim. Sho‘rlangan yerlar ikki va uch marta yuviladigan maydonlarda o‘tkaziladi va har bir sho‘r yuvishdan so‘ng tuproqlardan namuna olib tahlil qilinadi.

Sho‘r yuvilganda maydonlarda tuprog‘ining sho‘rlanganlik darajasi kamayib borishi kerak bo‘ladi. Haqiqatdan sho‘r yuvilgan maydonlarda sho‘rlanish darajasini yaqqol ko‘rish mumkin, o‘rtacha sho‘rlangan maydon qisman Mingbuloq va Pop tuman xo‘jaliklarida aniqlandi. Bu holat sug‘orish mavsumida va yog‘ingarchiliklar natijasida sug‘orishga zakan-zovurlarni sho‘r suvlaridan sug‘orishga ishlatilmasa tuproqni sho‘rlanish darajasi pasayishiga sharoit yaratadi.

Sug‘oriladigan yerkarni meliorativ holatini yer osti sizot suvlarini sathini me’yorida ushlab turish uchun har yili mavjud zakan-zovurlarni tizimli ta’mirlash va tiklash ishlari mexanizmlar yordamida tozalanib turiladi, umumiy zakan-zovurlarni solishtirma uzunligi sug‘oriladigan maydonga nisbatan 11,42 p.m/ga, zakanlar bilan ta’minlangan maydonga nisbatan 23,73 p.m/ga ni tashkil etadi. Sug‘oriladigan maydonni 146690 ga qismi adirliklardan va adirlik yon bag‘ri yerkardan iborat bulganligi sababli zakan-zovur tarmoqlarini qurish zarur, bu yerkarda ta’biy drenaj, ya’ni soylar va jarliklarga yer osti suvlarini sizib chiqishi ta’minlanadi.

Viloyat sug‘oriladigan ekin maydonlarining tuproq sho‘rlanganligini aniqlash va sho‘r yuvishni o‘z vaqtida sifatli o‘tkazish uchun barcha fermerlarga tavsiyanomalar berish, sho‘r yuvishni nazorat qilish va meliorativ holati yomon yerkarni aniqlash ishlarini bajarish asosiy vazifamiz hisoblanadi. Chunki viloyat bo‘yicha sug‘oriladigan maydonlarda joylashgan nazorat va tik quduqlaridan, oqim va zakan suvlaridan namunalar olib kelinib tahlil qilinadi va ekin maydonlardagi doimiy belgilangan nuqtalardan, konturlardan tuproq namunalarini keltirib taxlil qilinadi.

Viloyat tuproqlarini sho‘rlanishi bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra 2020-yilda 23333,8 hektar turli darajada tuprog‘i sho‘rlashgan maydonlar aniqlanib, shundan 18444 hektar oz sho‘rlashgan, 5144 hektar o‘rtacha sho‘rlashgan, qolgan yerkarda esa kuchli sho‘rlashgan maydon aniqlandi. Viloyatning 3 ta tumanida sho‘rlashgan

maydonlar eng yuqari, shu jumladan; Mingbuluoq tumanida 15227 gettar maydonning 12137 gettari oz sho'rlashgan, 2988 gettar o'rtacha sho'rlashgan, 102 gettar kuchli sho'rlashgan, Pop tumanida 7747 gettar maydonning 5325 gettar oz sho'rlashgan, 1861 gettar o'rtacha sho'rlashgan, 561 gettar kuchli sho'rlashgan, To'raqo'rg'on tumanida 275 gettar maydonda oz sho'rlashgan bulib ushbu maydonlarda sho'r yuvish ishlari amalga oshirildi. Qolgan sho'rlanish aniqlangan tumanlarda yerni nishobligi pol olib, cheklarga bulib sho'r yuvish ishlarini bajarish imkonи bulmaganligi sababli sug'orish mavsumida pushta usulida yaxob suvi bilan sho'r yuvish ishlari amalga oshiriladi.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yer osti sizot suvlarining sathini me'yorida saqlash, sho'rlangan maydonlarning sho'rini berilgan tavsiyanomalar asosida yuvishni tashkil qilishga bog'liqdir. Bu ishlarni amalga oshirishda viloyatdagi barcha fermer xo'jaliklari rahbarlari ichki zakan zovurlarni muntazam reja asosida tozalashni ta'minlashlari, sug'orishga ko'rsatilgan limit asosida suv olish, kollektor-drenaj suvining sho'rlanishi yuqori bo'lsa, sug'orishga to'g'ridan-to'g'ri foydalanmaslik, yerlarning sho'rini yuvish uchun yer tekislash va pol olib tayyorlash, yerlarni 40-45 sm chuqurlikda xaydash, tekislash, sho'r yuvish ishlarini sifatli o'tkazish, hosildorlikni oshirish uchun mahalliy va mineral o'g'it solish, agrotexnika tadbirlarini bajarishlari kutilgan natijani beradi.

Namangan viloyatidagi mavjud sug'oriladigan ekin maydonlarining meliorativ holatini doimiy nazorat qilish va ekologik holatini yaxshilashda kuyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish kutilgan najjalarni beradi.

Birinchi navbatda tuproqning qaysi landshaft zonasida joylashganligini aniqlash, hududlarning sho'rlanishga moyillik darajasini belgilash maqsadga muvofiq. Shu bilan bir qatorda:

-yerlarni mexanik tarkibiga qarab qishloq xo'jalik ekin turlarini tanlash, sug'orishda sho'rlanishi yuqori bulgan zakan-zovur suvlaridan foydalanmaslik yoki oqin suvgaga aralashtirib ishlatish;

-adir, adir oldi lanshaftlarida va nasos orqali sug‘oriladigan yerlarda tomchilatib sug‘orishni qo‘llash, agrotexnikaga e’tibor berilishi, kultivatsiya chizil, mola bosish va boshqa ishlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida amalga oshirish;

-sug‘oriladigan maydonlarni 40-45 sm-dan chuqur qilib xaydash va tekislash;

- ekinlarni almashlab ekishga e’tibor berish, tarixan shakllangan sho‘rga chidamli, tuproqdan sho‘rni shimib oluvchi ekinlarni[6]. Ushbu hududlarga joylashtirish va b.

Yuqoridagi meliorativ tadbirlarni amalga oshirish natijasida sug‘oriladigan maydonlarning meliorativ holati yaxshilanib olinayotgan hosildorlik ekologik jihatdan raqobatbardosh va yuqori darajada bo‘lishiga zamin yaratiladi.

### **Nazorat savollari**

- 1. Meliorativ holat tushunchasini izoxlang**
- 2. Yer resrslaridan foydalanish jarayonida o‘ziga hos bulgan geoekologik muammolari nimalardan iborat?**
- 3. Yer osti sizot suvlarini sathini me’yorida ushlash imkoniyatlari qanday?**

## **11-MAVZU: DALA SHAROITIDA TUPROQ TEKSHIRUV ISHLARINI**

### **OLIB BORISH**

#### **REJA**

- 1. Tuproq tekshiruv ishlari**
- 2. Sug‘oriladigan yerlar uchun tuziladigan tuproq kartalari**
- 3. Sug‘oriladigan yerlarni unumdarligi bo‘yicha baholash**

Sug‘oriladigan maydonlarda tuproq tekshiruv ishlarini bajarishda karta hujjalariiga asos bulib xo‘jalikning chegarasi aniq ko‘rsatilgan 1:10000 masshtabdagi yer tuzish plani xizmat qiladi, lalmikor yerlar uchun va tog‘li yaylovlardan uchun esa, 1:25000 masshtabdagi kartalar ishlataladi.

Tuproqni tekshirishdan oldin tekshiriladigan maydonni aylanib, tuproqlarning tarqalish qonuniyati bilan tanishiladi va tuman bo‘yicha sistematik ro‘yxati qayta ko‘rib chiqiladi. Bu ro‘yxatga dala tekshiruv ishlari natijasida

aniqlangan o‘zgarishlar kiritiladi. Har bir xo‘jalikdan dalada tuproq tekshiruv ishlari boshlanishi oldidan tuproqshunos xo‘jalik maydonini aylanib ko‘rib chiqadi va o‘zining tekshiruv ishlarini olib borish marshrutlarini, qayerlarda asosiy chuqurlar kovlanishi kerakligini belgilab chiqadi.

Tuproqlarni tekshirish va tuproq kartasi tuzish uchun asosiy chuqurlar, garizontlar, yarim chuqurliklar va chuqurchalar kovlanadi va yozib boriladi.

Asosiy chuqurlar tuproq morfologiyasini, u paydo bulgan jinslarni chuqu o‘rganish va laboratoriyada ximiyaviy, fizikaviy tekshirish hamda boshqa xususiyatlarini bilib olish uchun namunalar olish maqsadida kovlanadi. Tuproqning butun profili va ona jinsi ko‘p qismini ko‘rsatish va ohib berishi uchun kovlangan asosiy chuqurlarning chuqurligi 200 sm dan kam bulmasligi kearak.

Yarim chuqurlar tuproq qalinligiga qarab 100-150 sm chuqurlikda kovlanadi. Bu chuqurlar tuproqning ona jinsigacha bulgan borliq profilini ko‘rsatib turishi kerak. Chuqurchalar tuproq ayirmalari chegaralari va ularning ayrim belgilarini, shuningdek, asosiy chuqurlar qayerdan kovlanishi kerakligini aniqlash uchun chuqurligi 30-70 sm chuqurlikda kovlanadi.

Tog‘li sharoitlarda va bulinib ketgan tekisliklar tuzilishi ishlanganda kovlangan chuqurlar qiyalikning har xil ekspozisiyasini harakterlashi lozim. Murakkablik toifasi bo‘yicha bir xil tipdagi maydonlarda, xo‘jalik faoliyati ta’sirida o‘zgarishga uchragan bo‘lsa, kovlanadigan chuqurlar sonini ko‘paytirish mumkin. Kovlangan chuqurlar kartada ham belgi va raqamlar bilan, asosiy chuqurlar 3 mm tomonli kvadrat bilan, yarim chuqur esa uch tomoni pastga qaragan uch burchak bilan ko‘rsatiladi. Tuproq ayirmalari yagona raqmga ega bo‘lishi kerak.

1:5000 va 1:2000 masshtabda tuproq kartasi tuzishda reja asosida maxsus asboblar yordamida har 20-50 mm oraliqda katak chiziladi va kovlanadigan chuqurning o‘rni belgilanadi. Kovlangan chuqurlar yordamida tuproqning morfologiyasi o‘rganiladi. Tuproq qirqmasi tavsifi dala daftariga yozib boriladi. Amaldagi tuproqlar sistemalari asosida dala sharoitidagi nomi aniqlanadi.

Tupqoq qirqmasining tavsifi yozib bulingandan so'ng tuproqlarni laboratoriyada tekshirish o'tkazish uchun genetik qatlamlaridan namunalar olinadi.

Uzoq yillar davomida qayta ishlash, sug'orish, botqoq yerlarning suvini qochirish, sho'rsizlantirish ishlari bilan bog'liq holda o'zgarishga uchragan tuproqlar alohida konturlar bilan ajratiladi.

Yirik masshtabla tuproq kartalari tayyorlashning asosiy vazifasi joylardagi suv va shamol eroziyasiga uchragan tuproqlarni chegarasini aniqlab, ularni kartaga tushirishdir.

Kartada ajratilgan tuproq ayrmalari konturlari katta-kichikligiga qarab bir necha tuproq qirqmalari bilan asoslanishi kerak. Har kuni daladan qaytilganda tuproq ayrmalari chegaralari tush bilan chizib chiqiladi.

1. Dala tekshiruv ishlari qanday va qaysi masshtabdagi kartalarda olib boriladi?

Tugatish ishlari davrida quyidagilar bajariladi:

- dala sharoitida olingan yer osti suvlari va tuproq namunalari kimyoviy va boshqa laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkaziladi;
- analitik tekshiruv ma'lumotlari asosida tuproq-tekshiruv hujjatlari qayta ishlanadi, solishtirib ko'rildi va umumlashtiriladi;
- jamoa va davlat xo'jaliklarining yakuniy tuproq kartalari tuziladi;
- tuproq kartasiga tushuntirish xati yoziladi.

Bu kartalarda yer va tuproq qatlaming xilma xil xususiyatlari, sifat va miqdor ko'rsatkichlari o'z ifodasini topadi.

Jamoa, shirikat, davlat va boshqa xo'jaliklarning tuproq kartalari sug'oriladigan yerlar uchun 1:10 000 masshtabda tuziladi. Tuproq kartalari uchun, xo'jaliklarning shu masshtabdagi yer tuzish planlari geografik asos bulib xizmat qiladilar. Bu asosda aholi yashaydigan joylar, sug'orish kanallari, ariqlar va drenaj tarmoqlari (zovurlar), sug'oriladigan dala maydonlarining chegaralari tasvirlanadi. Har qaysi maydon (kontur) tartib raqamiga ega bulib xo'jalik maydonlari konturlari qaydnomasida o'z aksini topadi.

Qabul qilingan umumiy legenda va shartli belgilar bilan geografik asosda har xil qishloq xo‘jalik yer turlari, ya’ni – sug‘oriladigan haydalma yerlar, lalmikor haydalma yerlar, yaylovlar, o‘tloqlar, botqoqliklar, ko‘p yillik daraxtlar, o‘rmonlar, naqulay yerlar, do‘ngliklar, taqirlar, shag‘alli va toshloq yerlar va boshqalar ko‘rsatilgan.

Kartada tuproq qatlami sifatli rang usulida tasvirlanadi. Har qaysi tuproq xili rangdan tashqari o‘z tartib raqamiga ega. Karta legendasidan tuproq to‘g‘risidagi quyidagi ko‘rsatkichlarni olish mumkin. Tuproqning nomi, madaniylashganligi, mexanik tartibi, sho‘rlanganlik darajasi, tuproqning yemirilishi, tuproqning skletligi, yer osti suvlarining sathi va boshqalar. Karta legendasida yana xo‘jaliklarning yerdan foydalanishi bo‘yicha har qaysi tuproq ayrmalari maydoni ko‘rsatiladi. Karta ma’nosi tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlari bilan boyitiladi. Hamma tuproqlar xossalari bo‘yicha agronomik ishlab chiqarish xususiyatlari bo‘yicha bir xil guruhlarga birlashtiriladilar.

Har qaysi guruhdan foydalanish uchun, ekin maydonlarini joylashtirish. Almashlab ekishni joriy qilish, agrotexnik va meliorativ tadbirlar majmuasini tuproqning ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish, qishloq xo‘jalik o‘simliklaridan yuqori hosil olish uchun joriy qilish bo‘yicha tavsiyanomalar yozilgan bo‘ladi.

Tuproq unumdorligini belgilovchi xususiyatlarga qarab yerni sifat jihatidan aniq baholash usullaridan biri uning unumdorligini baholash «bonitirovka» qilish, ya’ni yerga eng muhim agronomik xusuiyatlariga ko‘ra ball bilan solshtirma baho qo‘yish bulib, bu davlat kadastrini ichida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston jamoa va davlat xo‘jaliklarida sug‘oriladigan yerlarni unumdorligi bo‘yicha baholash bonitirovka qilish birinchi marta 70-yillarda O‘zbekiston yer tuzish va loyihalash muassasalarining yer kadastrini filiali tomonidan o‘tkazilgan.

Natijada dasht mintaqalrada va bunday tuproqlardan iborat mintaqada tuproqning mexanik tarkibiga turlicha baho berish zarurligi va yengil qumoq tuproqlarda buz tuproqli joylardagi o‘rtacha qumloq tuproqli maydonlarga nisbatan yuqori hosil

yetshtirilayotganligi aniqlandi. Turli darajada gisplashgan tuproqlar uchun pasaytirish koeffisiyenti qabul qilinadi.

Unumdorlik bo'yicha baholash tartibini takomillashtirish, dala sharoitda o'tkazilgan va vegetasion tajribalar natijasida olingen ma'lumotlarni umulashtirish asosida ayrim pasaytirish koeffisiyentlariga o'zgartirishlar kiritish zarur, natijada litologiya bilan ona jinslar genezisi yanada uzviyroq bog'lanadi.

Unumdorlik bo'yicha baholash-agrotexnika va dehqonchilikni taraqqiyotining o'rtacha darajasida tuproq sifatiga hamda unumdorlik xususiyatlariga solishtirma baho berish, demakdir. Bu ish tuproqning ham tabiiy, ham madaniylashtirish natijasida vujudga kelgan xususiyatlari hisobga olingen holda amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorlik darjasи, hosil olish uchun zarur bulgan agrotexnik va meliorativ tadbirlar majmuining xususiyati hamda tarkibi tuproqning o'ziga xos bulib, shu tomonlarga bevosita bog'liqdir.

Unumdorlik bo'yicha baholash muayyan yerdagi qishloq xo'jaligi ekinlarining talablari hisobga olingen holda o'tkaziladi. O'zbekistonning sug'oriladigan yerlari sharoitida g'o'zaning talablari hisobga olingani e'tiborda tutiladi. G'o'zaning talablari hisobga olingen holda aniqlangan unumdorlik ko'rsatkichlari bonitetlar paxta majmuiga kiruvchi boshqa hamma ekinlar sholi, kanop va ko'p yillik mevali daraxtlardan tashqari eqiladigan sug'oriladigan yerkarni baholasht uchun ham to'g'ri keladi.

Yerlarni baholashda tuproqning asosiy xususiyatlari va tabiiy sharoitlari: genetik alomatlari, sug'orila boshlangan davrning uzoq-yaqinligi, madaniylashtirilgani, agroqlim resurslari bilan ta'minlanganligi, mexanik tarkibi, tuproq hosil qiladigan jinslar genezisi, tuproq qatlaming sizot suvlari o'tkazuvchanligi, sho'rlanish darjasи, eroziyaga uchragani, sertoshligi, gipslashgani va hokazolar hisobga olinadi.

Baholash 100 balli shkala bo'yicha o'tkaziladi. Eng yaxshi xususiyatlarga ega bulgan va eng yuqori unum beradigan tuproqlarga 100 ball qo'yadi.

**O‘zbekistonning sug‘oriladigan yerlarini unumdorlik bo‘yicha baholash shkalasi**

<b>Tuproqlar</b>	<b>Tuproqlar bonitetining ballari</b>		
	<b>Yuqori madaniyla shtirilgani</b>	<b>O ‘rtacha madaniylashtirga ni</b>	<b>Kam madaniylashtirgani</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>Eskidan sug‘orilib kelinayotgan yerlardagi tuproqlar</b>			
Buz	100	90	70
O‘tloqi-buz	100	80	60
Buz tuproqlar mintaqasidagi o‘tloq	100	80	60
Taqir	90	70	50
O‘tloqi-taqir	100	80	60
Dasht mintaqasidagi o‘tloq	100	80	60
<b>Yangidan sug‘orila boshlangan yerlardagi tuproqlar</b>			
Och tusli buz	100	80	60
Tipik buz	100	80	60
O‘tloqi buz	90	70	50
Buz-o‘tloqi	90	70	50
Buz tuproqlar mintaqasidagi o‘tloq	90	70	50
Buz tuproqlar mintaqasidagi botqoq o‘tloq	90	70	50
Sur tusli qo‘ng‘ir	60	50	40
Sur tusli qo‘ng‘ir o‘tloq	60	65	50
Taqir	80	60	50
Taqir o‘tloqi	90	70	50
O‘tloiq taqir	80	60	50
Dasht mintaqasidagi taqir	90	70	50
Dasht mintaqasidagi botqoq-o‘tloqi	90	60	40
<b>Yangi o‘zlashtirilgan yerlardagi tuproqlar</b>			
Och tusli buz	90	60	50
Tipik buz	90	60	50
O‘tloqi buz	90	60	50
Buz o‘tloqi	90	60	50
Buz tuproqlar mintaqasidagi o‘tloq	90	60	50
Buz tuproqlar mintaqasidagi botqoq o‘tloqi	90	60	40
Sur tusli qo‘ng‘ir	90	60	30
Sur tusli qo‘ng‘ir o‘tloq	90	60	40
Taqir	90	60	50
O‘tloqi-taqir	90	60	50
Taqir o‘tloqi	90	60	50

Dasht mintaqsidag o'tloq	90	60	50
Dasht mintaqsidagi botqoq-o'tloqi	90	60	40
Dasht-qumlar	90	60	50
Qumli o'tloq	90	60	50

Genetik alomatlar, sug'orila boshlanganligining uzoqligi va madaniylashtirilgани барча sug'oriladigan yerlarni baholashda umumiy mezon bulib hisoblanadi.

Yerlar unumdorligi bo'yicha omillar orasida iqlim alohida o'rin tutadi. Issiqsevar o'simlik bulgan g'o'za uchun eng ahamiyatli agroiqlim ko'rsatkichlaridan biri-harorat resurslari bilan ta'minlanganlik yoki foydali harorat yig'indisining  $10^0$  C dan yuqori bo'lishidir. G'o'zaning harorat resurslari bilan qay darajada ta'minlanganiga qarab, kenglik va yuqori mintaqalar bo'yicha bonitetlarni qanday tabaqlashtirish ko'rsatilgan.

Hozirgi pytda respublikamizda o'rta va ingichka tolali g'o'zaning vegetasiya davriga ko'ra o'rta pishar va ertapishar navari parvarish qilinmoqda. Ushbu uslubiy ko'rsatmalarda avvalgilardan farqli o'laroq,  $2450^0$  foydali harorat yig'indisi-qulay sharoit deb hisoblanadi.

Iqlim koeffisiyenti yoki odatda bioiqlim deb ataluvchi koeffisiyent hamma uchun rasm bulib qolgan quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$B_K = \frac{\sum \vartheta t \phi}{\sum \vartheta t \delta} * 100$$

bunda  $\sum \vartheta t \phi$  -haqiqatdan  $10^0 S$  dan yuqori bulgan foydalai harorat yig'indisi.

$\sum \vartheta t \delta$  -asosiy foydali harorat yig'indisi  $G'2450^0 G$ .

100 ball-birlik deb olingan holda raqamlarni beshgacha yaxlitlab, iqlim koeffisiyentlari hisoblab chiqariladi.

Iqlim hisobga olingan holda tuproq mintaqalarini tabaqlashtirish tabiiy-qishloq xo'jaligini rayonlashtirish nuqtai nazaridan amalga oshirildi.

Sug‘oriladigan dehqonchilikning turli rayonlari iqlimni baholash-shu rayonlar uchun pishib yetilish muddatlariga ko‘ra g‘o‘za navlarining qaysi guruhlariga mos kelinishi, shuningdek, silos yoki don uchun mo‘ljallangan oraliq yoki takroriy ekinlarning mumkin bulgan biologik mahsuldorligini aniqlash imkoniyatini beradi.

Tuproq unumdorligining barcha xususiyatlari uchun eng muhim omillardan biri uning mexanik tarkibidir. Yengil va o‘rta qumoqli tuproqlar eng yaxshi tuproq hisoblanadi.

Bunday tuproqlarni ishlash ham oson, ular juda yaxshi fizikaviy xossalarga ega. Mayda tosh shag‘al aralashgan bo‘lsa, sug‘oriladigan yerning sifatini buzadi, unga mexanizasiyalashtirilgan ishlov berish qiyinlashadi, qo‘l mehnati ko‘payadi, tuproqning suv xossalari yomonlashadi, uning aktiv massasi hajmi kamayadi. Tuproq hosil qiluvchi turli jinslar negizida vujudga kelgan tuproqlarning mexanik tarkibi va sertoshligiga ko‘ra pasaytirish koeffisiyenti keltrilgan.

Sug‘oriladigan dehqonchilikda tuproqni baholashda uning sho‘rlanish darajasini va meliorativ holatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Yerning sizot suvlarini o‘tkazuvchanligi va qay darajada sho‘rlanganiga qarab, bonitetni tabaqalashtirish raqamlari keltrilgan. Bunda turlicha baholanishi kerak bulgan tuproqlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Sho‘rlanmagan va ikkinchi qayta sho‘rlanishga uchramagan yerlar. Bu guruhga sizot suvlvri chuchuk bulgan yoki chuqur joylashgan yerlar kiradi.
2. Sho‘ri batamon yo‘q bulib ketmaydigan yerlar. Bunga sizot suvlarini chuqur joylashgan, sho‘r bulgan yerlar kiradi.
3. Tez eruvchan tuzlar bilan sho‘rlangan yerlar. Bu guruhga kiruvchi yerlar sho‘r yerkarning asosiy qismini tashkil etadi. Agar sho‘r sizot suvlarini yuza joylashgan va sekin harakat qiluvchi bo‘lsa, bunday yerlar sho‘rlanishda davom etaveradi.
4. Karbonat-magniy tuzlari bilan sho‘rlangan, zinch gips va karbonatli qatlami bulgan yerlar. Bu guruhga kiruvchi tuproqlar chuchuk gidrokarbonatli sizot suvlarini yuza joylashgan sharoitda rivojlanib boradi.

5. Sizot suvlarining oqib chiqib ketish imkoni katta bulgan yerlar uchun tuzatish koeffisiyentlari jadvalda keltirilgan.

**Sizot suvlarning chiqib ketish imkoniyati katta bulgan yerlarda tuproq bonitetini tabaqalashtirish**

Zaxi qochganlik darajasi	Bonitetga koeffisiyent
Qumloq va qumli bir xil yoki qatlamlili tuproqlar	0,90
50 sm chuqurlikda qumoq tuproq bulgan toshloq tuproqlar	0,80
30 sm chuqurlikda qumoq tuproq bulgan toshloq tuproqlar	0,70

Lyosslardan ya’ni, tog‘ jinslarining eng mayda, loyqa chang va qum zarralaridan tashkil topgan soz tuproqlardan iborat bulgan yerlarda tuproqning yuvilishi natijasida uning sifati nisbatan kamroq pasayadi.

Negaki, bunday yerlarning hatto chuqur qatlamlari unumdonlik xususiyatiga ega. Oqiziqlar konusning allyuvial-prolyuvial va prolyuvial yotqiziqlardan, ayniqsa, ola-bula allyuvial qatlamlarida, yuvilib ketgan tuproqning koeffisiyenti keskin pasayadi.

Keyingi yillarda sug‘oriladigan dehqonchilik uchun tuproqlari turli darajada gipslashgan katta maydonlar o‘zlashtirildi. Gips yerning meliorativ holatini yomonlashtiradi, tuproq unumdonligini pasaytiradi.

Tuproqlarning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha alomatlari va xususiyatlari (foyDALI harorat yig‘indisidan tashqari) xo‘jalikning tuproq kartalarida bor. Shuning uchun xo‘jalikning almashlab ekish maydonlari yoki almashlab ekish dalasi tuproq unumdonligi bo‘yicha baholashda nisbatan 1:10 000 bulgan tuproq kartasi kerak. Buni jamoa xo‘jaligi tuproq kartasi misolida kiritish mumkin. Sho‘rlangan yerlar mintaqasida tuproq kartasidan tashqari sho‘rlanish kartogrammasidan ham foydalanish lozim.

1. Bonitirovka qilish nima va u qanday olib boriladi?
2. Yerlarni baholashda tuproqning qaysi xususyailari hisobga olinadi va u qanday baholanadi?

## **Nazorat savollari**

- 1. Tuproq tekshiruv ishlari qanday amalga oshiriladi?**
- 2. Sug‘oriladigan yerlar uchun tuziladigan tuproq kartalari nima uchun tuziladi?**
- 3. Sug‘oriladigan yerkarni unumdorligi bo‘yicha baholash ishlari qanday amalga oshiriladi?**

## **13-MAVZU: YER RESURSLARINI IQTISODIY BAHOLASH**

### **REJA**

- 1. Yerlarni iqtisodiy baholash usullari**
- 2. Yerlarni baholash uchun rayonlarga ajratish**
- 3. Tuproqning tabiiy va sun’iy unumdorligi**

Yerlarni iqtisodiy baholash – bu yerning qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatidagi solishtirma qadr-qimmatini aniqlash, demakdir. Bu ko‘rsatkichlar ham nisbatan kattalikda, ya’ni ballarda, ham absolyut ko‘rsatkichda, ya’ni yerga hisoblab chiqazilgan shartli narxlar – so‘mlarda bo‘lishi kerak.

Shunga ahamiyat berish kerakki, yerni iqtisodiy baholash va tuproqlarni bonitirovka qilish o‘rtasidagi bir-biriga bog‘liqlik va bir-biridan farqni ajrata bilish lozim.

**Bonitirovka qilishda** – tuproqlarning ishlab chiqarish sharoitlari emas, asosan o‘simplik o‘sishi uchun kerak bulgan tabiiy xossalari hisobga olinib, guruhlarga bulinadi.

**Iqtisodiy baholashda** esa yerning tabiiy sifati va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari uning tabiiy-iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda iqtisodiy munosabatlarning farqi asos qilib olinadi.

Yerni iqtisodiy baholashning tuproq bonitirovkasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi shunda ko‘rinadiki, tuproqni bonitirovka qilishda tabiiy xossalari bo‘yicha biriktirilgan tuproq

guruhlaridan yerni iqtisodiy baholash uchun tuzilgan shkala yaratishda foydalanish mumkin.

Yerni iqtisodiy baholashning ballardagi ko‘rsatkichlari, bir tuproqning ikkinchi xil tuproqdan necha marta yaxshiligi (qimmatroq) yoki yomonligi (arzonroq) haqidagi savolga javob beradi. Bu solishtirma miqdoriy qimmatdan yerning ishlab chiqarish vositasi sifatidagi qishloq xo‘jaligini boshqarishda iqtisodiy hisob-kitob orqali rejalashtirishni tashkil qilishda foydalaniladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan shu narsa ma’lumki, bir xil ishlab chiqarish vositalari Bilan ta’minlangan bo‘lsa ham tuprq unumdorligi har xil bulganligi uchun bir xil natija bermaydi. Shuning uchun ham tuproq unumdorligini aniqlash va miqdorini hisob-kitob qilish ishlari yerning iqtisodiy baholash vazifasiga kiradi.

Tuproqning tabiiy va sun’iy unumdorligi bor. Tabiiy unumdorligi tuproqning tabiy fizik – ximiyaviy xossalari va iqlim sharoitiga bog‘liq. Tuproqning sun’iy unumdorligini inson yaratadi. Tuproqning samarali unumdorligi, bu tabiiy unumdorligi bilan sun’iy unumdorligini (mehnat xarajatlari va mehnat vositalari) birlashib ketishidan hosil bo‘ladi. Buni aniqlash uchun quyidagi ishlar bajariladi:

1. Xo‘jalikning hamma yer turlari: haydalma yerlar, ko‘p yillik mevali daraxt-zorlar, pichanzor va yaylovlar baholanadi. Yer baholash ishlarini bajarish uchun qishloq xo‘jalik tashkilotlaridan yig‘ib olingan keyingi besh yillik uchun buxgalteriya va statistik hisobot ma’lumotlari, aerofotogeodeziya hujjatlari, tuproq va geobotanik tekshiruv hujjatlari asos qilib olinadi.

2. Yer baholash ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi:

- a) yerni umumiyligi baholash (bu ayrim o‘simliklarni ekshning foydaliligi bo‘yicha yerni baholash);
- b) xususiy baholash.

Yerni umumiyligi baholashning asosiy ko‘rsatkichlari:

- mahsuldarlik (jami mahsulotning qiymati) so‘mga;
- xarajatning qoplanishi (qilingan bir so‘mlik xarajatga olingan mahsulotning qimmati);

- differensial daromad, foyda (joylashishi va sifati eng yaxshi bulgan yerdan olingan sof foydaning qo'shimcha qismi).

Yerni xususiy baholashning asosiy ko'rsatkichlari:

- hosildorlik, so'mga;
- xarajatning qoplanishi, so'mga;
- differensial daromad, so'mga;

3. Baholash ko'rsatkichlari ayrim xo'jaliklar uchun tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo'yicha hisoblab chiqilsa, ayrim xo'jaliklar uchun esa texnologik sharoitlarga va ishlab chiqarishning tig'izligiga qarab tuzatishlar kiritib, almashlab ekish dalalari bo'yicha hisoblab chiqaziladi.

Zarurat tug'ilsha va yetarli ma'lumotlar bo'lsa, tuproq ayrmalari bo'yicha ham baholash ishlarini bajarish mumkin.

Yalpi mahsulot qiymatini hisoblash uchun, ishlab chiqarishning eng yomon sharoitida qilingan, zarur bulgan umumiylar xarajatlarni hisobga olgan holda yagona kadastr narxlardan foydalaniladi.

Yalpi mahsulot qiymatiga asosiy hamda qo'shimcha mahsulotning va boshqa mahsulotlarning qimmati ham qo'shiladi.

4. Yerni baholash natijalari bo'yicha (yagona formada) quyidagi amaliy vazifalarni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va uning tannarxini pasaytirish imkonini beruvchi masalalarni hal qilish uchun asos bo'ladigan qaydnomalar (vedomost) va yer baholash kartalari tuziladi:

- qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyati natijalarini tahlil qilish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va tayyorlash rejalarini mukammallashtirish;
- tabiiy va iqtisodiy sharoitlari bir xil bulmagan xo'jaliklarning daromatlarini oshirish imkoniyatlarini tenglashtirish;
- yer tuzish tadbirlarining texnik-iqtisodiy asoslarini tuzish;
- qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlar uchun yerlarni ajratib olganda ko'rilgan zararlarni hisoblab chiqish.

- Yerlarni baholash ishlarini Respublika yer tuzish va loihalash ilmgohi va uning bulim va filiallari bajaradi. Bu ishlarni bajarish uchun metodik qo‘llanmalarni Davlat ilmiy-tekshirish ilmgohlari tayyorlab beradi.
- Yer baholash hujjatlarini yangilash va ularga tuzatishlar kiritish har besh yilda amalga oshiriladi.
- Yer baholashda quyidagi ishlar bajariladi:
  - tayyorgarlik ishlari, dastlabki ma’lumotlarni yig‘ish va bir yo‘lga qo‘yish;
  - yer baholashni tumanlar bo‘yicha rejalahtirish;
  - tuproqni agronomik ishlab chiqarish bo‘yicha guruhlash;
  - baholash shkalasini tuzish uchun o‘rtacha hosildorlikni va xarajatlarni hisoblab chiqazish;
  - baholash shkalasini tuzish va yerkarning baholash ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqish;
  - xo‘jaliklarda yer baholash ishlarini o‘tkazish;
  - baholash hujjatlarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;
  - yer baholash hujjatlarini tayyorlash va topshirish.

**I. Tayyorgarlik ishlari.** Dastlabki ma’lumotlarni yig‘ish va bir yo‘lga solish.

Dastlabki ma’lumotlar baholash ishlarini bajarish uchun zarur bulib, dala sharoitida yig‘iladi. Kameral yo‘l bilan tayyorgarlik ishlarini bajarishda va bir yo‘lga solishda quyidagi ishlar qilinadi:

1. Keyingi besh yillik mobaynida xo‘jaliklar bo‘yicha yer turlarining eksplikasiysi, yer turlari to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘iladi. Agar xo‘jalikning yer turlarida juda katta o‘zgarish bo‘lsa va yerdan foydalanish bo‘yicha yetarli statistik ma’lumotlar bulmasa (hosildorlik, mahsulotining tannarxi va boshqalar), bu xo‘jalik baholash shkalasi tuzish uchun ma’lumotlarni qayta ishslashda ishlatilmaydi.

2. Metiostansiyalar bo‘yicha agroqlim ko‘rsatkichlar. Bu ma’lumotlar viloyatlar bo‘yicha yig‘iladi. Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlarini o‘stirishda viloyat

ichida bo‘ladigan agroiqlim sharoitlarining o‘zgarishini kuzatish mumkin bo‘ladi. Bulardan baholash rayonlarini ajratishda foydalaniladi.

3. Tuproqlarning xo‘jaliklar yer turlari asosida qilingan hisob-kitobiga bog‘liq genetik, morfologik va boshqa xususiyatlari bo‘yicha ma’lumotlari bulgan tuproq ayirmalarining ro‘yxati. Bu ma’lumotlar bo‘yicha tuproqlar agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtiriladi, maydonlar bo‘yicha bir –biriga solishtiriladi.

4. Dalalarning pasport xujjatlari, ko‘p yillik mevali daraxtlar, yem-xashak tayyorlashga mo‘ljallangan yerlar, relyefi qiyali yerlar, tosh aralashganlik, tuproqning qayta ishlashda ko‘rsatadigan qarshilik, dengiz yuzidan balandligi (tog‘li tumanlarda), qishloq xo‘jalik yer turlarining kontur bo‘yicha yer maydoni va kontur sonlari. Bu ma’lumotlardan viloyat yerlarini rayonlashtirishda va yerning baholashda, unga qilingan xarajatlarini hisoblab chiqishda foydalaniladi. Qishloq xo‘jalik yer turlarining pasportlash ma’lumotlari mos ravishda bir yo‘lga solinadi.

5. Ko‘p yillik mevali daraxtlarning turlari va navlari, yoshining tarkibi haqidagi ma’lumotlar va ularning tuproq agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo‘yicha jadval tuziladi. Bu ma’lumotlar qoidaga ko‘ra ixtisoslashgan xo‘jaliklar bo‘yicha to‘planadi, shuningdek, mevali daraxtlar mahsuloti tovar ahamiyatiga ega bulgan xo‘jaliklardan to‘planadi.

6. Pichanzorlar va yaylovlarning mahsuldorligi bo‘yicha ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Bu jadvalni to‘lg‘azish uchun ma’lumotlar manbai bulib, qoidaga muvofiq, geobotanik tekshiruv ma’lumotlari hisoblanadi. Agar bu ma’lumotlar bulmasa, dala sharoitida tekshirilgan xo‘jalikning agronomik ma’lumotlaridan foydalaniladi.

7. Qishloq-xo‘jalik ekinlarining hosildorligi va ularning ekin maydoni hisobi Jamoa, davlat, fermer va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalarining yer turlari maydoning chegaralari beriladi.

8. Mahsulot ishlab chiqazishga qilingan xarajatlar shkala tarzida beriladi.

9. Xo‘jalikning ishlab chiqarish fondlari bilan ta’minlanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar qayta tiklangan qiymati bo‘yicha beriladi.

10. Yer turlari va asosiy ekinlarga berilgan o‘g‘itlar haqidagi ma’lumotlar beriladi, bu ma’lumotlar rayon qishloq xo‘jalik boshqarmasiga berilgan maxsus hisobot bo‘yicha markaziy statistika boshqarmasidan olinadi

11. Hosilni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish ma’lumotlari va xo‘jaliklarning ekin ekishga qilgan xarajatlari, davlat navlarini ekishga tajriba, ilmiy-tekshirish tashkilotlari uchun qilingan xarajatlar beriladi.

12. Oldin tayyorlangan yer baholash hujjatlari qo‘llanma bo‘yicha yana bir marta tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Dala ishlaring tarkibi va hajmi dastlabki ma’lumotlar holatiga qarab aniqlanadi.

Dala ishlari mavjud tuproq, geobotanik, aerokosmik rasmlar va boshqa hujjatlar asosida o‘tkaziladi. Dala sharoitida bu hujjatlarning yer baholash ishlarini bajarish uchun yaroqli yoki yaroqsizligi aniqlanadi, shuningdek, yerning haqiqiy holati va undan foydalanish bo‘yicha quyidagi qo‘simecha ma’lumotlar yig‘iladi:

- yer to‘g‘risidagi hisob-kitob ma’lumotlari, yerdan foydalanishning yer turlari bo‘yicha haqiqiy to‘g‘ri kelishini tasdiqlash;
- yerning haqiqiy meliorativ holatini aniqlash;
- tuproq kartalarida ajratilgan konturlarning haqiqatga to‘g‘ri kelish va kelmasligini aniqlash;
- tuproq tekshiruv hujjatlari asosisda tuzilgan tuproqlarning agronomik ishlab chiqarish guruhlarini tekshirib aniqlash;
- yerdan foydalanishning asosiy texnologiya sharoitlarini tekshirib ko‘rish va aniqlash. Birinchi navbatda konturlari relyefining nishabligi, toshlar bilan aralashgani. Tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo‘yicha asosiy qishloq xo‘jalik ekinlarining joylashshini aniqlash va almashlab ekish haqiqatdan o‘zlashtirilganligini aniqlash;
- ayrim xo‘jaliklarda mevali daraxtlar ekilgan yerdan foydalanish bo‘yicha qo‘simecha ma’lumotlar yig‘ish (relyef belgilari bo‘yicha joylashtirilganligi tuproq agroguruhlari, yoshi va nav tarkibi, agrotexnikasi va

boshqalar; tabiiy yaylov yerlardan haqiqiy foydalanish va madaniy texnik holatlari).

Dalada qilingan tayyorgarlik ishlarining natijalari, baholash rayonlarining chegaralarini va tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlarining chegaralari, xo‘jaliklar tarkibida baholash shkalasi ishlab chiqish uchun, shuningdek, tuproq, geobotanik va boshqalar bo‘yicha qilinadigan qo‘sishimcha tekshiruvlarning hajmini aniqlash uchun foydalilanadi. Chunki berilgan maydonda bu ma’lumotlarsiz baholash ishlarini bajarib bulmaydi.

Yerlarni baholash uchun (kadastr) rayonlarga ajratish, Respublika, viloyat va tumanlarda shu joylarning tuproqlari, iqlimi, texnologiyasi va boshqa farqlari, shuningdek, xo‘jalikning ixtisoslashganligi hisobga olingan holda mamlakatning umumiyligi - qishloq xo‘jalik rayonlariga ajratish sxemasi bo‘yicha bajariladi. Umumiyligi - qishloq xo‘jalik rayonlariga ajratish sxemasiga mos ravishda O‘zbekiston Respublikasining kadastr rayonlarga ajratiladi.

Yerlarni baholash maqsadida tabiiy tekislik provinsiyalar va tog‘li viloyatlar mamlakatining umumiyligi rayonlashtirish sxemasiga asosan tabiiy okrug va yer baholash rayonlariga ajratiladi. Tekislik provinsiyasi doirasida okruglarning xarakterli belgilari shulardan iboratki, qishloq xo‘jaligi yer turlarining konturlari ma’lum miqdorini belgilovchi va yerning boshqa tabiiy texnologiya xususiyatlarini ko‘rsatuvchi geomorfologik sharoitlari bir xilligidir.

Yerni baholash, kadastr rayonlari, viloyatlar va respublika tarkibida tabiiy okruglarning bir qismini tashkil qiladi.

Yerni baholash rayonlari ajratilayotganda xo‘jalikning ixtisoslashgani, ishlab chiqazilayotga mahsulotning nisbatan va uning haqiqiy tarkibi, ekin maydonlarining tarkibi, qishloq xo‘jalik ekinlariga va tarmoqlar bo‘yicha qilingan xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslanadi.

Dehqonchilikning jadallashtirish darajasiga, asosan I gettar haydalma yerga qilingan mehnat xarajatlari, berilgan o‘g‘itlar miqdori va ishlab chiqarish fondlari bilan ta’minlanganligi, xo‘jalikda qishloq xo‘jaligida foydalilanadigan boshqa yer turlariga ixtisoslashganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Yerlarni baholash rayonlariga ajratilayotgan, shu baholash rayon ichidagi xo‘jaliklarning ixtisoslashtirilganligiga alohida ahamiyat berilib, bu xo‘jalikni umumiy maydonning asosiy qismini qaysi qishloq xo‘jalik o‘simligi tashkil qilishini xo‘jalikning statistik buxgalteriya hisob-kitobidan bilish mumkin.

Yerni baholash rayoni chegaralarini imkoniyatiga qarab ma’muriy tuman chegaralari bilan uzviy bog‘lanish kerak, agar bunda qiyinchilik tug‘ilsa, ya’ni tuproq sharoiti bir xil bulmasa, u holda yerdan foydalanuvchi qishloq xo‘jalik korxonalari chegarasi bilan bog‘lash kerak. Yerni baholash rayonlarida kamida 30 ta ixtisoslashgan xo‘jaliklarning statistik ma’lumotlari qoidaga binoan qayta ishslashda qo‘llanish kerak.

Agar tabiiy sharoiti va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgani bir xil bo‘lsa, ma’muriy viloyatning o‘zi bir yerni baholash rayoni qilib olinishi mumkin.

1. Yerlarni baholash uchun qanday tabiiy hududiy rayonlarga ajratiladi?
2. Tuproq agronomik ishlab chiqarish guruhlari qanday birlashtiriladi?

Tuproqlar agronomik ishlab chiqarish gurhlariga birlashtirilayotganda sug‘oriladigan haydalma yerlar va lalmikor haydalma yerlar, aloihda «Yirik masshtabda tuproq kartalari tuzish» qo‘llanmasi asosida bajariladi. Tuproq ayirmalarini agronomik ishlab chiqarish guruhlarga birlashtirishning asosiy yo‘llari quyidagilar:

1. bir tuproq - iqlim provinsiyasiga yoki tog‘li maydonlarga mansubligi;
2. tuproq genetik kelib chiqishining, tuproq profilining morfologik tuzilishi, ayniqsa, yuqori gorizontlarning bir-biriga o‘xshashligi;
3. tuproq paydo qiluvchi jinslar va tuproqning mexanik tarkibi;
4. tuproqning asosiy fizik xususiyatlari, ularning suv, havo va issiqlik tartiblari;
5. tuproqdagi har xil shaklli ozuqa elementlarining miqdori va zahirasi, kimyoviy va fizik-kimyoyaviy xossalalarining ko‘rsatkichlari.

1. Yerlarni iqtisodiy baholash, bonitirovka qilishdan nimasi bilan farqlanadi?
2. Yerni iqtisodiy baholashni vazifasi nimadan iborat?

3. Xo‘jalikning hamma yer turlarini baholashda qanday hujjatlar asos qilib olinadi?

4. Yerni baholash necha yo‘l bilan amalga oshiriladi?

### **Nazorat savollari**

- 1. Yerlarni iqtisodiy baholash usullari qanday amalga oshiriladi?**
- 2. Yerlarni baholash uchun rayonlarga ajratish nimalarga e’tibor qaratish lozim?**
- 3. Tuproqning tabiiy va sun’iy unumdarligi nima?**

## **14-MAVZU: TABIATNI MUHOFAZA QILISHNING EKOLOGIK XUQUQIY ASOSLARI**

### **REJA**

- 1. Tabiatdan va tabiiy boyliklardan foydalanish**
- 2. Davlat boshqaruvi asosida havo, yer, suv, foydali qazilmalar, o‘rmon, o‘simgilik va hayvon resurslari, xo‘jaliklarning turli tarmoqlari**
- 3. O‘rta Osiyo hududidagi eng global muammolar**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab, tabiatni muhofaza qlish muammolariga katta e’tibor berib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va «Tabiatni muhofaza qilish» xaqidagi qarorlarda tabiiy resurslar, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishning ekologik huquqiy asoslari bayon qilingan. U O‘zbekiston Respublikasida: «Tabiatni muhofaza qilish», «Suv va suvdan foydalanish xaqida», «Yer to‘g‘risida», «Atmosfera havosi to‘grisida» qonunlar kabul qilingan. Ma’lumki, butun tabiiy ob’ektlar - yer, yer osti, yer usti boyliklari, suv, o‘rmon, atmosfera havosi, o‘simgilik va hayvonot olamining vakillari davlat mulki hisoblanadi. Shu boyliklardan foydalanish uchun davlatning maxsus ruxsati va qaysi bir viloyat yoki tashkilot bilan davlat o‘rtasidagi shartnoma asos bulib xizmat qiladi. Davlat huquqiy qonunlariga binoan mamlakatning har bir holisi toza, sog‘lom va go‘zal tabiatdan foydalanish huquqiga ega, har bir inson tabiat elementlari yer, suv, o‘rmon, o‘simgilik to‘plami va hayvonlar turlarini ijara qilishi olib,

foydanish xuquqiga egadir. Tabiatning rivojlanishi, tabiiy resurslar - havo, suv, yer boyliklari va boshqalar davlat va uning huquqiy tashkilotlari tomonidan nazorat qlinadi. har bir tabiiy resursdan foydanish ekologik va iqtisodiy tomonidan rejalashtirilgan dastur asosida olib boriladi va nazorat qilinadi. Huquqiy va tashkiliy davlat nazorati tabiatning holati, uni boshqarish ekologik nazorat formasi, davlat va turli tashkilotlar hamda korxonalar-aro ekologik nazorat, sanitarekologik nazorat va jamoatchilik nazorati o'rnataladi. Tabiatdan va tabiiy boyliklardan foydanish jarayonida yo'llar, korxonalar, turli gidrotarmoqlar qurilishida har bir ob'ekt, uning proekta, tabiatga keltiradigan foya va ziyoni har tomonlama o'rganiladi va ekologik ekspertizadan o'tkaziladi. Ob'ektning ekologik ekspertizasini bilimdon, tabiatning ekologik qonunlarini yaxshi biladigan mutaxassislar tomonidan ekspertiza qilinadi. Ob'ektning ekspertizasini keng jamoatchilik ham ko'rib chiqib, uning yaroqli yoki yaroksiz ekanligini aniqlaydi. Tabiat elementlari bulmish suv, havo, yer, o'simlik va Hayvonlar vakillari hamda yer usti, yer osti resurslarining tuplanishini, tarkibini buzgan, sonini kamaytirgan, tabiiy holat, uni ko'rinishiga, go'zalligiga, suvning tozaligiga, uni ko'p isrof bo'lishiga olib kelgan yoki foydali o'simliklarni yo'lgan, daraxtlarni kesgan, o'tqo'ygan, hayvonlarni ruxsatsiz otgan, o'ldirgan, yer usti resurslarini o'g'irlagan tashkilotlar, korxonalar, ularning vakillari davlat oldida javobgar bulib, tabiatning ekologik holatini buzgan tashkilot yoki shaxs sifatida davlat qonun-kridalari bo'yicha javobgarlikka tortiladi yoki tabiatga, davlatga yetkazgan zarari uchun jarima to'laydi. Jumladan, atrof-muhit, atmosfera havosini tutun, iflos zahar gaz bilan ifloslagan, tarkibini buzgan yoki radioaktiv chiqindilar tashalab, muhitda radioaktivlik darajasi oshishiga sababchi bulgan tashkilot yoki shaxs ekologik huquq qoidalariiga asosan turli javobgarliklarga tortiladi yoki tabiatning ekologik holatini buzilganini tuzatish uchun ketadigan harajatlarni to'playdigan jarima to'laydilar. Bunday ekologik huquq qonunlari buzilishlarini xo'jalik rahbarlari yoki huquqiy tashkilotlar kuzatishi, bajarishi va amalga oshirishlari kerak. Chunki tabiatning tabiiy holati buzilishi, havo va suvning ifloslanishi, tuproq zaharlanishi, o'simlik hayvonlar soni kamayishi natijasida tabiat boyliklaridan foydanishning

Hajmi, sifati kamayadi, oxir-oqibat insonlar hayotiga xavf tug‘iladi, ularning salomatlik darajalari pasayadi, turli kasalliklar paydo bo‘ladi, o‘lim ko‘payadi. Tabiatning yer va yer fondidan foydalanish va muhofaza qilish ham O‘zbekistan Respublikasi qonunlari asosida yer reformasining asosiy yo‘nalishlari, massalari va yer fondini davlat tomonidan huquqiy asoslarda muhofaza qilinishi qayd qilingan. Qonunlar bo‘yicha yerni shaxsiy mulk muammosi yoki yerdan umrbod foydalanish shartnomaga asosida, ijara olish borasida xo‘jaliklar yoki ayrim shaxslar huquqlari o‘z aksini topgan. Qonunda davlat, ho‘jaliklar va ayrim shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar shartnomaga asosida amalga oshirilishi, shartnomani cho‘zishi yoki to‘xtatish kabi holatlar davlat nazorati ostida bo‘lishi ochiq ko‘rsatilgan. Yer boyliklari va tuproqni muxofaza qilish davlatlarning qonun-qoidalari asosida olib boriladi. Yerni muxofaza qilishning, huquqiy chora-tadbirlari, undan foydalanishning hisobi, choralarini va ayniqsa, kishloq xo‘jalik yerlari sifatini, unumdarligini saqlash, buzilgan yerlarning bioekologik xususiyatlarini tiklash, tuproq unumdarligini oshirish, sug‘orish va melioratsiya ishlarini yaxshilash, tuproqni turli zaharli moddalar bilan ifloslanishdan muhofaza qilish va bu sohada turli chora-tadbirlarni ishlab chiqish kerak. Yerdan foydalanish va uni muxofaza qilish davlatning maxsus tashkilotlari nazoratida bo‘ladi. Yerga oid qonun qoidalarni buzgan shaxslar, tashkilotlar va xo‘jaliklar maxsus HUQUQIY qonunlar asosida jazolanadilar. Suv boyliklaridan foydalanish ham u yoki bu davlatning qonun-qoidalari asosida olib boriladi, ya’ni suv xavzalari va ulardagi suvlarni huquqiy muhofaza qilish, suvning bioekologik va iqtisodiy funksiyasi hamda ahamiyatini bilish suvni ifloslovchi manbalarni aniqlash va ifloslanishga, suv zaxiralarini kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Undan tashqari, suv havzalari va ulardagi suvlarni muhofaza qiluvchi qonun-qoidalarni bilish va yo‘llar asosida ish olib borish va suvni muhofaza qilishning asosiy talablarini ham bilish kerak. Davlat tashkilotlari suv zaxiralarini hisob-kitob qilib, rejalar asosida undan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqadilar. Ma’lum davlatlarda suvdan foydalanish uchun kerak bo‘ladi. Sanoatdan, qishloq xo‘jaligidan chiqqan oqova suvlar ma’lum ruxsatlar asosida ko‘rsatilgan joylarga tashlanishi va toza tabiiy suvlarni

